

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**T.M. KARALIYEV, O.B. SATTAROV,
I.F.SAYFIDDINOV**

BANK FAOLİYATI TAHLILI

*Kasb-hunar kollejlari uchun
o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2016

UDK: 336.71(075)

KBK 65.262.1

K24

Taqrizchilar:

D.A. Saidov – TMI, «Bank ishi» dots.,i.f.n.

M. Raximov – O‘zbekiston Respublikasi Banklar Asostsiatsiyasi qoshidagi «Axbor reyting» kompaniyasi bo‘limi boshlig‘i

Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi o‘quv metodik birlashmalar faoliyatini muvoqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan

Karaliyev T.

K24 **Bank faoliyati tahlili.** T.M.Karaliyev va boshqalar. O‘quv qo‘llanma. Moliya instituti. T.: «NISO POLIGRAF», 2016. – 136 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma kadrlar tayyorlash ta‘lim standartlari bo‘yicha ishlab chiqilgan namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratilgan.

O‘quv qo‘llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarining barcha operatsiyalarini tahlil qilish asoslari, uning bank faoliyati uchun ahamiyati yoritilgan. Bankning resurs to‘plash, ularni joylashtirish jarayonlari tahlili, ushbu jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Shuningdek, bank daromadlari va xarajatlari tarkibi, ularga ta‘sir etuvchi omillar tahlili bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma iqtisod kollejlarning «Bank ishi» yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar va bank ishiga qiziquvchi iqtisodchilar uchun mo‘ljallangan.

UDK: 336.71(075)

KBK 65.262.1

K24

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyatining barqarorligi, uning raqobatbardoshligi va istiqbollari ko'p jihatdan o'tgan davrda erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga bog'liq. Istiqbolni belgilash tahlilga asoslanmog'i lozim.

«Bank faoliyati tahlili» fani bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni uzluksiz ravishda o'rganadi.

O'rganishda ko'rsatkichlarni guruhlash, taqqoslash, bog'lash, induksiya, deduksiya, sintez, korrelyatsiya – regression tahlil kabi usullardan foydalaniladi.

Tahlil natijasida erishilgan yutuqlarning sabablari, faoliyatning samarali va samarasiz qirralari o'rganiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatlari yaratiladi. Tahlil jarayoni faoliyatning asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi, va u bankning likvidligi, daromadligini oshirish va mijozlar ishonchini qozonishga asos bo'ladi.

«Bank faoliyati tahlili» fanidan o'z va chetdan jalb etilgan mablag'lari tarkibi tuzilmasi, dinamikasi va ular o'rtasidagi mutanosibliklar o'rganiladi.

Bank aktivlari tahlilga keng e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad yuqori foyda olishdan iboratligini inobatga olgan holda bank daromadlari va xarajatlari tarkibini o'rganadi. Foydani tashkil etish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Keyingi yillarda banklar tomonidan to'lanadigan soliqlarning turlari, ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri chuqur talqin qilindi.

Banklarning raqobatbardoshligini aniqlashda ularning likvidligi va to'lov qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil davomida banklarning likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'liq o'rganiladi.

Har qanday tahlildan maqsad kamchiliklarni aniqlash va ularni tugatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

«Bank faoliyati tahlili» fani «Pul, kredit va banklar», nazariy fanining amaliy davomi bo'lib, «Bank ishi, «Bank menejmenti va marketingi», «Bank auditi», «Banklarda buxgalteriya hisobi» kabi fanlar bilan uzviy ravishda bog'liq holda o'rganiladi.

O'quv qo'llanma, «Banklar faoliyati tahlili» jarayonlarini o'rganishda iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlari va kollejlarning talabalari, qiziquvchi iqtisodchilarga xizmat qiladi. Oliy o'quv yurtlari talabalari, auditorlar, bank xodimlari va boshqa qiziquvchilar uchun ham foyda keltiradi degan umiddamiz.

1-BOB.
**BANK FAOLIYATI TAHLILI FANINING PREDMETI,
MAQSADI VA VAZIFALARI**

- 1.1. Bank faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati**
- 1.2. Bank faoliyati tahlili fanining maqsad va vazifalari**
- 1.3. Bank faoliyati tahlilining turlari**

1.1. Bank faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati

Har qanday jarayonning keyingi taqdiri uni har tomonlama chuqur tahlil etilishiga asoslanadi. Ayniqsa iqtisodiy jarayonlarning takomillashuvi va rivojlanishini iqtisodiy tahlilsiz tasavvur etish mumkin emas.

Bozor iqtisodiyoti davrida banklar Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek iqtisodiyotning qon tomirlari hisoblanar ekan, ular faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirish muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Chunki, banklar iqtisodiyotda kredit munosabatlari va hisob-kitoblarda vositachi vazifasini bajarar ekan, barcha iqtisodiy subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi bank tizimining barqarorligi bilan chambarchas ravishda bog'liq bo'lib qoladi. Banklar ish yurituvchilar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash maqsadida ularni doimiy ravishda kredit mablag'lari bilan ta'minlab turadilar. Bundan tashqari barcha iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini bank faoliyatisiz, uning barqaror rivojisiz amalga oshirish mumkin emas.

Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o'z faoliyatini uzluksizligini ta'minlashning iloji bo'lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko'p jihatdan banklarning likvidligi, to'lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatini qamrab olgan, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining asosiy sabablaridan biri sifatida, – «...banklar likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozorida tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining yetishmasligi bilan izohlanadi»¹.

¹ I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.– T.: «O'zbekiston», 2009. 8-bet.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi banklar faoliyati bilan butun iqtisodiy jarayonlarning uzluksiz ravishda bog'liqligini bildiradi.

Shunday ekan, banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash muhim iqtisodiy masalalardan biri bo'lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo'ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, Bank faoliyati tahlili fanining predmeti, bank faoliyatini o'zida aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni uzluksiz ravishda o'rganishdan iboratdir.

Bank faoliyati tahlili fani banklarda muomaladagi bo'sh mablag'larni o'ziga jalb etish, o'z mablag'larini to'plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadi.

Har qanday tahlil kabi, banklar faoliyati tahlili jarayonida birinchidan, haqiqiy holat o'rganiladi, ikkinchidan, haqiqiy holat normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi uchinchidan, olingan natijalarga ta'sir etuvchi omillar va ular ta'sirining bank faoliyatiga ta'siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviga takliflar tayyorlanadi. Shunday ekan, Bank Boshqaruvi tomonidan bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlari albatta bank faoliyati tahlil natijalariga asoslanadi. Qabul qilingan qarorlarning samarasi faoliyat tahlili natijalarining nechog'lik to'g'riligiga proporsional ravishda bog'liqdir.

Bank faoliyati tahlilining asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- birinchidan, bank balansi ma'lumotlari (1-ilova);
- ikkinchidan, bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi (2-ilova);
- uchinchidan, bank buxgalteriyasi analitik va sintetik hisob raqamlari ma'lumotlari (hisobvaraqlar rejasi 3-ilova);

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lib, banklarda kunlik balans hisobotlari tuziladi. Har bir ish kuni oxirida, bankning har bir filiali

tomonidan balans tuziladi va u Respublika Boshqaruvi tomonidan umumlashtiriladi. Bu holat bank faoliyatini tezkor ravishda tahlil qilib borish imkoniyatini yaratadi.

Bankning daromadlari va xarajatlari balans ma'lumotlariga asosan uning daromadlari manbalari, miqdori, xarajatlarining turlari va hajmi hamda faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Bank faoliyatini operativ (tezkor) tahlil qilishda analitik va sintetik hisob raqamlar oboroti va qoldig'idan foydalanadi. Shunday ekan, 1,2,3-ilovalarda keltirilgan ma'lumotlar bank faoliyatini tahlil qilishning asosini tashkil etadi.

1.2.Bank faoliyati tahlilining maqsad va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyat yurituvchi korxonada faoliyati tahlilidan asosiy maqsad faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Bank faoliyati tahlilini amalga oshirishning bosh maqsadi, bank faoliyati samaradorligini oshirishga erishishdan iboratdir.

Bank faoliyati natijasida olinadigan sof foydaning miqdori oshishini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlarning ishonchini qozonish va bank aksionerlariga to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirib borish uchun bank faoliyati domiy va uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi lozim.

Bosh maqsadga erishish uchun bank faoliyatining barcha jihatlarini uzluksiz ravishda tahlil etilishi, uning natijalari to'g'ri va aniq talqin qilingan holda Bank Boshqaruviga xulosa chiqarish va qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda taqdim etib borilmog'i lozim. Bank strategiyasini belgilash, Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi va Aksionerlarning umumiy yig'ilishi qarorlari ham bank faoliyati tahliliga asoslanadi va ushbu qabul qilingan qarorlar samaradorligini belgilab beradi.

Bank faoliyati tahlilining bosh maqsadiga erishish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

Birinchidan, bank kreditorlari va omonatchilarining manfaatlarini himoyalash. Ma'lumki, Banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ular faoliyatini yuritish uchun zurrur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini qariyb 70-85 foizini bank kreditorlari va omonatchilarining mablag'lari tashkil etadi. Shunday ekan, kreditorlar va omonatchilar manfaatlari bankning manfaatlari bilan uyg'unlashgan tarzda faoliyat yuritishi lozim. Omonatchilar o'zlarining bankka ishonib topshirgan mablag'larini va ular uchun to'lanishi lozim bo'lgan foiz shaklidagi daromadlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarib olishlari kreditorlar ham bankdagi mablag'laridan qonun doirasida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lmog'i zurrur. Bunga erishish uchun esa, bank

faoliyati kreditorlari va omonatchilari manfaatlari uzluksiz ravishda tahlil etilib borilishi lozim. Bunda doimiy ravishda kreditorlar va omonatchilarning talablarini o'z vaqtida va to'la-to'kis bajarmoq uchun yetarli miqdorda mablag'lar bo'lishi talab etiladi.

ikkinchidan, bank oborotiga chetdan jalb etilgan va bankning o'z mablag'laridan samarali foydalanishi. Ushbu maqsadga erishish uchun albatta, doimiy ravishda chetdan jalb etilgan va o'z mablag'lari dinamikasi va barqarorligi nuqtayi nazaridan tahlil etilishi talab etiladi. Shu bilan birga, ushbu mablag'lar qaysi maqsadlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilganligi va natijada ulardan qay darajada samara olinishi kuzatib boriladi. Chetdan jalb etilgan va o'z mablag'laridan samarali foydalanish uchun bankning yangi xizmatlarini joriy etish va uning bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirib borish yo'llarini izlash talab etiladi. Bank faoliyati tahlili natijasida chetdan jalb etilgan va o'z mablag'larini samarali foydalanish yo'llari aniqlanadi va u faoliyatga tadbiq etiladi.

uchinchidan, bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash va ularni oqilona boshqarish. Bank oborotiga jalb etiladigan resurslar tahlili natijasida uning barqarorligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday bank oborotga jalb etilgan mablag'larning kam xarajat talab etilishi va ushbu resurslarning bank oborotida imkon darajasida uzoq muddat xizmat qilishini istaydi. Barqaror resurslar, albatta barqaror daromad manbai hisoblanadi. Bundan tashqari bank oborotiga jalb etilgan resurslarni oqilona boshqarish ham bankning samarali va xavfsiz faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bank faoliyati tahlili asosida resurslar va bank aktivlari o'rtasida mutanosiblikka erishiladi. Bank resurslari muddat va hajm jihatidan aktiv operatsiyalarga yo'naltirilishi muvofiqlashtiriladi. Natijada bank resurslaridan samarali foydalanishning optimal variantlari ishlab chiqiladi.

to'rtinchidan, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi Qonunning 50-moddasiga muvofiq Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoyalashni ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.

Ushbu qonunning 52-moddasiga muvofiq Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni, shu jumladan;

- kapitalning monandlik koeffitsiyentini;
- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;

- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko‘p miqdori;
- likvidlilik koeffitsiyentlari;
- aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek, bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va umidsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;
- qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni;
- ochiq valyuta mavqei limitlarini belgilaydi.

Ushbu normativlarning doimiy ravishda bajarilishini ta‘minlash uchun bank faoliyati uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi talab etiladi.

Albatta normativlar bank tizimining barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Normativlar bajarilishining ta‘minlanmasligi bank faoliyatini xavflilik darajasini oshiradi. Bank boshqaruvi normativlarga rioya etilishi yuzasidan tezkor ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari va uni ta‘minlash uchun chora-tadbirlar belgilash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;

beshinchidan, bank aktivlarini tarkibini va sifatini to‘liq nazorat qilib borish.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog‘i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidlili, daromadlili va rikslilik darajasi tahlili faoliyat muvaffaqiyatining garovi hisoblandi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta‘minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o‘rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo‘lib qoladi.

Bank faoliyati tahlili bank aksionerlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bankning Kuzatuv kengashi tomonidan ham Boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirishda tahlil natijalaridan keng foydalaniladi.

Oltinchidan, bank likvidlili va to‘lov qobiliyatini doimiy ravishda ta‘minlanishiga erishish.

Bankning likvidligi deganda uning majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ravishda bajara olish imkoniyatlari tushuniladi. Bank omonatchilari va kreditorlari oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida hamda to‘la-to‘kis bajarilishi uchun doimiy darajada likvid mablag‘larga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu o‘z navbatida mijozlar tomonidan bankka nisbatan ishonchini mustahkamlaydi.

Bankning to‘lov qobiliyati, uning mijozlari tomonidan berilgan topshiriqlarni tezkor ravishda ta‘minlash, imkoniyatlari tushuniladi. Shunday ekan, bank aktivlarini likvidlilik va to‘lov qobiliyati nuqtayi nazaridan tahlil etilishi faoliyat samaradorligini ta‘minlash asoslaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Yettinchidan, bank daromadlari va xarajatlarining optimal miqdorini aniqlash. Har qanday tijorat tashkilotlari kabi banklar faoliyatining maqsadi ham maksimal miqdorda foyda olishdan iboratdir. Shuning uchun ham bank daromadlari va xarajatlarini tarkibiy jihatdan va uning sof rentabellik darajasini tahlil qilish asosiy maqsadlardan biri bo'lib qoladi. Yuqori daromad olish uchun olinadigan daromad manbalari, har bir daromad keltiruvchi aktivlar hamda bank xizmatlari turlarini o'rganish va yuqori daromad keltiruvchi sohalarni aniqlab borish zarur. Shu bilan birga bank xarajatlari tarkibini o'rganish natijasida ma'lum xarajatlarni tejash imkoniyatlarini aniqlash ham faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bank faoliyati tahlilining maqsadlaridan hisoblanadi. Ma'lumki, daromadlilik va bankning likvidiligi bir-birlari bilan qarama-qarshi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shunday ekan, daromadlilik va likvidlilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash ham faoliyat tahliliga asoslanadi.

Sakkizinchidan, bank qimmatbaho qog'ozlarining jozibadorligini ta'minlashga erishish. Bankni o'z mablag'larining ko'payib borishi asosan uning aksiyalarini sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Aksiyalarning sotilishi esa uning jozibadorligiga bog'liqdir. Qaysi bankning aksiyalari uning sohiblariga ko'p daromad keltirsa, unga bo'lgan talab ortib boradi. Bu hol o'z navbatida ushbu aksiyalarning jozibadorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida bank barqarorligini ta'minlashda uning kapitalining miqdori oshib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank aksiyalarining qanchalik ko'p miqdorda sotilishini ta'minlash ham, uning faoliyatini uzluksiz ravishda har tomonlama tahlil etilishini talab etadi.

To'qqizinchidan, Bank imijini oshirishdan iborat. Bank imiji, uning jamiyatdagi, mamlakatdagi obro'si, erishilgan muvaffaqiyatlar bilan chambarchas ravishda bog'liqdir. Erishilgan obro'-e'tibor albatta uning faoliyat barqarorligi, mijozlarga ko'rsatilgan xizmat turlarining sifati, tezkorligi va to'laqonlilik bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida bank faoliyatini doimiy ravishda to'liq tahlil etish va undan to'g'ri xulosalar chiqarish bilan bog'liqdir.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish bank faoliyati tahlilining quyidagi vazifalariga bog'liqdir.

1. Butun bank faoliyati va uning ayrim yo'nalishlari bo'yicha faoliyat tahlilining natijalarini to'la-to'kis ravishda yoritish.

2. Bank faoliyati to'g'ri tahlil etilishi natijasida bank faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri natijalarini chuqur o'rganish.

3. Erishilgan natijalarni baholash va ular to'g'risida to'g'ri xulosalar tayyorlab kelgusida optimal qarorlarni qabul qilish uchun bankning boshqaruv organlariga taqdim etish.

Xulosa qilib aytganda, bank faoliyatining samaradorligi asosan uning faoliyatini har tomonlama to‘liq tahlil etilishi, natijalari o‘rganilishi, istiqboldagi rejalar tahlil natijasida qabul qilingan qarorlar, belgilanadigan chora-tadbirlar sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

1.3. Bank faoliyati tahlilining turlari

Bank faoliyati tahlilining turlari asosan belgilangan maqsad va vazifalarga bog‘liqdir. Bundan tashqari, tahlil amalga oshirilayotgan zamon va makon, tahlil obyekti va subyektlari masalalari ham inobatga olinmog‘i zarur.


Bank faoliyatini tahlil etish subyektlari nuqtayi nazaridan ular ikki turga bo‘linadi.

Bular **birinchidan** tashqi va **ikkinchidan** ichki tahlilga bo‘linadi. Banklari tashqi tahlili asosan Markaziy bank, Tashqi auditor tashkiloti va Soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki tahlil odatda bankning ichki audit guruhi, tegishli departament va boshqarmalar hamda har bir bank xodimining funksional vazifalari yuzasidan amalga oshiriladi.

Bank faoliyati tahlili tashqi va ichki subyektlar tomonidan amalga oshirilishini quyidagi chizmada aks ettirish mumkin.

1-chizma



Tashqi moliyaviy tahlil kompleks ravishda amalga oshiriladi, lekin u tahlil etuvchining maqsadiga muvofiq farqlanadi. Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan kompleks tahlildan asosiy maqsad bank barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi, banklar tomonidan Markaziy bankning o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga rioya qilish darajasi o'rganiladi. Buning uchun Markaziy bankning maxsus inspeksiyasi tomonidan banklarning o'z mablag'lari tarkibi, uning monandligi bank aktivlarining likvidiligi va risklilik darajasi, kredit va investitsiyalarning tasniflanishi hamda muammoli kredit va investitsiyalarni qoplash uchun zurrur bo'lgan zaxiralarning haqiqatda tashkil etilganligi o'rganiladi. Haqiqiy holat iqtisodiy normativlar bilan taqqoslanadi va undan chekinishlar mavjud bo'lgan taqdirda harakatdagi qonun-qoidalar doirasida chora-tadbirlar belgilaydi hamda zaruriy jazolarni ko'rish mumkin.

Harakatdagi qoidalarga muvofiq har bir tijorat banki har yili bir marta tashqi auditdan o'tishi va uning tegishli xulosalariga ega bo'lmog'i kerak. Tashqi audit tashkilotini bank aksionerlarining umumiy yig'ilishida tanlanadi. Yirik banklar o'zining imijini oshirish maqsadida xalqaro audit tashkilotlarini tanlashlari mumkin.

Tashqi audit tashkilotlari ham banklar faoliyatini kompleks tarzda tahlilini amalga oshiradi. Audit jarayonida bank faoliyati natijalarining xalqaro andozalarga mos kelish darajasi o'rganiladi. Audit xulosasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiflar hamda xalqaro bank faoliyatiga mos ravishda hisobot yili natijasi baholanadi.

2009-yil natijalari bo'yicha umumiy aktivlari mamlakat bank tizimi aktivining 90 foizidan ortig'ini tashkil qiladigan 14 Banki «Fitch Reyting», «Mudis» va «Standart end Pur» kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi.

Soliq inspeksiyasi tomonidan ham bank faoliyati tahlili kompleks ravishda amalga oshiriladi. Ushbu kompleks tahlildan maqsad albatta bank tomonidan davlat budjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini nazorat qilishdan iboratdir. Buning uchun inspeksiya tomonidan dastlab bank daromadlarining hisobotlarda o'z vaqtida va to'liq aks ettirilishi, soliqqa tortiladigan daromad miqdorining to'g'ri hisoblanganligi, xarajatlar tarkibi va ularning haqiqiyiligiga hamda daromaddan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning haqiqiyiligi, to'liq va o'z vaqtida budjet hisob raqamlariga o'tkazilganligi tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, soliq inspeksiyasi bank tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa soliq turlari, mol-mulk solig'i, yer solig'i, ekologiya to'lovlari kabilarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishiga ham e'tibor qaratadi. Shu

bilan birga, bank tomonidan harakatdagi to'lovlar ketma-ketligiga rioya etish darajasi ham o'rganiladi.


Ichki tahlilning asosiy maqsadi, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunda faoliyatdagi qonun va qoidadan chetlashishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, bankning har operatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanishi lozim. Tahlil natijasida Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga zarur informatsiyalar taqdim etish, hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr mulohazalar bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bank faoliyatini yoki ayrim hududlar doirasida kompleks ravishda tahlil qilish bank ichki audit xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim faoliyat turlari bo'yicha tahlil asosan ushbu faoliyatni tashkil etish uchun tashkil etilgan departament yoki boshqarmalar xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bankning har bir operatsiyasi yuzasidan asosiy tahlil esa joriy ravishda ushbu operatsiyani amalga oshirish uchun mas'ul hisoblangan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bu uning funksional vazifalari sirasiga kiradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, tashqi tahlil ma'lumotlaridan foydalanuvchilar, kreditorlar, investorlar, omonatchilar, auditorlar va boshqa bank faoliyati bilan qiziquvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ichki tahlil natijalaridan foydalanuvchilar esa faqat bank bo'linmalari hisoblanadi. Bu ma'lumotlaridan bank rahbariyati, ya'ni Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashi tomonidan operativ qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari Bank faoliyati tahlili uning mazmuni jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi.

2-chizma




Tahlilning mazmuniga ko'ra amalga oshiriladigan tahlillar uning mazmuni va ko'zlangan maqsadiga ko'ra yuqorida ko'rib o'tilgan tahlil subyektlarining barchasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Lekin, lokal va tematik tahlil asosan ichki tahlil sirasiga kiradi.

Kompleks tahlil asosan bankning ma'lum bir hisobot davridagi faoliyatini o'rganishga qaratilmog'i lozim. Lokal tahlilda bankning ma'lum bir filiali faoliyati yoki ma'lum bir faoliyat turi, masalan, kredit operatsiyalari tahlil qilinadi. Tematik tahlilda faoliyatning ayrim turlari, ularni yanada samaraliroq tashkil etish maqsadida o'rganiladi.

Tahlil qilinayotgan davrga ko'ra bank faoliyati tahlili quyidagicha tasniflanadi.

3-chizma



Operativ, joriy va istiqbolli tahlillar bankning ichki tahlili hisoblanadi. Ular asosan amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarini baholash, unga ta'sir etayotgan omillarni aniqlash, kelgusida faoliyat samaradorligini oshirish uchun istiqbolli chora-tadbirlar belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Operativ tahlil odatda har bir operatsiyani amalga oshirishi uchun mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Joriy va istiqbolli tahlillar bankning ichki apparati tomonidan amalga oshiriladi. Qaror qabul qilish uchun bank boshqaruviga taqdim etiladi. Bank boshqaruvini tahlil natijalarini umumlashtirgan holda faoliyat samaradorligini yaxshilash yuzasidan Qarorlar qabul qiladi.

Bundan tashqari iqtisodiy adabiyotlarda tahlil boshqaruv obyektiga qarab moliyaviy va boshqaruv tahliliga ajratilishi ham ta'kidlab o'tilgan.

Moliyaviy tahlilda pul mablag'larining harakati, daromadlar tarkibi va miqdori, xarajatlar tarkibi, moliyaviy natijalari, moliyaviy resurslar, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va faoliyat rentabelligi kabilar hisob tizimi va moliyaviy hisobotlar ma'lumotlaridan foydalangan holda o'rganiladi. Boshqaruv tahlilida asosan bankka chetdan jalb etilgan va o'z mablag'larini samarali boshqarish, passiv va aktiv operatsiyalarini muvofiqlashtirish, kredit portfelini boshqarish, mehnatning tashkil etilishi, asosiy vositalar va yordamchi materiallardan samarali foydalanish, daromad va xarajatlarni boshqarish kabilar nazarda tutiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank faoliyati tahlilining turlari har xil bo'lishiga qaramasdan, ulardan tahlil jarayonida o'rganilayotgan ko'rsatkichning mazmun-mohiyatiga qarab turli usullarni qo'llab, taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar va bu farqlarni keltirib chiqargan omillar aniqlanadi.

Bank faoliyati tahlili jarayonida ma'lum bir bankning faoliyatini boshqa bir bankning faoliyati bilan taqqoslab o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Bir bankning hududlardagi filiallari faoliyatining turli jabhalarini taqqoslash orqali, Bank boshqaruvi ilg'or amaliyot tajribasini ommalashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi banklari assotsiatsiyasi qoshida tashkil etilgan «Axbor Reyting» kompaniyasi tomonidan mavjud barcha tijorat banklarining har choraklik va yillik faoliyatlari natijalari xalqaro andozalarga asoslangan holda tahlil qilinadi.

Uning natijalariga asosan bank faoliyati baholanadi. Bu o'z navbatida, banklar tomonidan raqobat muhitida uning raqobatbardoshligini oshirish uchun faoliyatining qaysi jihatlarini samarali boshqarish haqida chora-tadbirlar belgilashiga yordam beradi.

Bank faoliyatini har tomonlama chuqur tahlil qilishda statistikada qo'laniladigan guruhlash, iqtisodiy indekslash, zanjirli almashtirish, balans, korelyatsiya, regreysiya, matritsa kabi uslublardan har tomonlama foydalaniladi. Hozirgi zamon bank texnologiyalari, matematik dasturlardan oqilona foydalanish faoliyat tahlilining tezkorligi va samaradorligini oshiradi.

2-BOB.

BANKNING AKTIV OPERATSIYALARI TAHLILI

2.1. Bank aktivlari holati va dinamikasi tahlili

2.2. Bank aktivlarining daromadliligi tahlili

2.3. Bank aktivlari risklilik darajasi tahlili

2.4. Bank aktivlari likvidliligi tahlili

2.5. Bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlili

2.1. Bank aktivlari holati va dinamikasi tahlili

Ma'lumki, bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar, aktiv operatsiyalar deyiladi, boshqacha qilib aytganda bankning aktiv operatsiyalari bu bank tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali yo'naltirishdir.

Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda bankning aktiv operatsiyalari deganda, eng avvalo, resurlarni daromad olish maqsadida yo'naltirilgan aktivlar, ya'ni qimmatbaho qog'ozlarga qilingan investitsiyalar, kreditlar, lizing va faktoring operatsiyalari nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bank aktiv operatsiyalari daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash bo'lib, hisoblanadi. Bundan tashqari, bank aktivlariga uning faoliyatini xavfsiz va samarali tashkil etish uchun zurrur bo'lgan kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari va majburiy zaxira fondidagi mablag'lar, boshqa banklar bilan vakillik hisobraqamlari qoldiqlari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kambaholi tez eskiruvchi buyumlar kabi aktivlarga ega bo'lmog'i lozim.

Bankning aktiv operatsiyalarini to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- kredit operatsiyalari, buning natijasida bankning kredit portfelini shakllantiradi;
- investitsiya operatsiyalari, investitsiya portfelini shakllantirish uchun asos bo'ladi;
- kassa va hisob-kitob operatsiyalari, bank o'z mijozlariga ko'rsatadigan asosiy xizmat turlari;
- boshqa aktiv operatsiyalar, ya'ni barcha bank operatsiyalarini samarali amalga oshirishga tegishli infrastruktura yaratish bilan bog'liq operatsiyalar.

Bank aktivlarining tarkibi deyilganda balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushuniladi.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog‘i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidligi, daromadlilik va risklilik darajasi tahlili faoliyat muvoffaqiyatining garovi hisoblandi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta‘minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o‘rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo‘lib qoladi.

Har qanday bank ham o‘zining aktivlarining tarkibini samarali shakllantirishda ma‘lum bir muammolarga uchraydilar. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishiga, likvidligi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog‘i va aktivlarning o‘zgaruvchanlik sifatlariga bog‘liq.

Bank aktivlarini tahlil qilganda quyidagilarni aniqlash lozim:

– Bank aktivlarining umumiy qoldig‘i hisobot davrida qancha o‘zgaraganligini;

– Aktivlarning tarkibini – mablag‘lari asosan qaysi aktivlarga sarflanganini;

– Bank aktivlari tarkibining hisobot davrida (tahlil qilinayotgan davrda) qanchalik o‘zgarganligini va ularning o‘zgarish sabablarini;

– Bank aktivlarining likvidligini;

– Bank aktivlarining samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini hamda ularning hisobot va o‘tgan davrdagi tafovutlarini;

– Bank aktivlaridan samarali foydalanishga ta‘sir etuvchi omillarni (ijobiy va salbiy) hamda foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini.

Bu ko‘rsatkichlarni aniqlab tahlil qilib, bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilash lozim bo‘ladi.

Bank aktivlarining holati uning faoliyati davomida o‘zgarib turadi. Bank aktivlarining holati ijobiy yoki salbiy tamonga o‘zgarishi mumkin. Bank aktivlarining qanday o‘zgarishi aktivlarni boshqarishga va to‘g‘ri yo‘naltirishga bog‘liq. Shuning uchun ham bank aktivlarining holatini muntazam ravishda o‘rganib, ularning o‘zgarishini tahlil qilib borish lozim.

Tahlilda birinchi navbatda bank aktivlarining umumiy summasi hisobot davrida qanchalik o‘zgarganligini (ko‘paygan yoki kamayganligini) aniqlash, undan keyin esa o‘zgarish sabablarini aniqlash lozim.

Asosiy e‘tibor aktivlar tarkibining o‘zgarishiga qaratilmog‘i lozim. Bunda daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlar, likvid yoki nolikvid aktivlar holati to‘liq talqin qilinmog‘i lozim. Bundan tashqari, bank aktivlari tarkibida bank faoliyati uchun umuman keraksiz aktivlar mavjudligi va ularni «ishchan» aktivlarga aylantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi lozim. Kredit garoviga olingan mol-mulklar, ombordagi keraksiz

asbob-uskunalar va vaqtincha foydalanilmayotgan bino-inshootlar shular jumlasiga kiradi.

2.1-jadval

«A» Bankning aktivlari holati va dinamikasi

(yil boshiga)

	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil		Joriy yil		Farqi		O'zgarishi %
		qoldig'i mln. so'm	ulushi %	qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	%	
1.	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari (10100)	1728	3,89	1560	3,46	-168	-0,43	-9,7
2.	Bankning O'zRMB hisobvaraqlari (10300)	2037	4,59	2150	4,77	113	0,18	5,5
3.	Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (10500)	593	1,33	593	1,31	0	-0,02	0
4.	Davlat obligatsiyalari (10700)	55	0,12	55	0,12	0	-0,01	0
5.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar (10800)	342	0,77	320	0,71	-22	-0,06	-6,2
6.	Sotib olingan debitorlik qarzlari –faktoring (11100)	18	0,04	0	0	-18	-0,04	0
7.	Kreditlar (12100; 12500; 12600; 12700; 13100; 14500; 14900; 15000; 15100; 15200; 15300; 15400; 15500.	28895	65,05	28240	62,62	-655	-2,43	-2,3
8.	Lizing (15600)	2021	4,55	2860	6,34	839	1,79	41,5
9.	Asosiy vositalar (16500)	5059	11,39	5280	11,71	221	0,32	4,4
10.	Nomoddiy aktivlar (16600)	162	0,36	162	0,36	0	-0,01	0
11.	Boshqa aktivlar (19900)	3510	7,901	3880	8,603	370	0,70	10,5
	JAMI:	44420	100	45100	100	680	0	1,5

Bankning aktivlari holatini tahlil qiladigan bo'lsak, eng likvid sanalgan kassadagi naqd pullar yil davomida 1,7 mlrd so'mdan 1,6 mlrd so'mgacha kamaygan, ya'ni yil davomida kassadagi naqd pul qoldig'i 168 mln so'mga kamaygan. Markaziy bankdagi mablag'larda esa aksincha o'sish sur'ati kuzatilgan, natijada yil davomida 2,03 mlrd so'mdan 2.15 mlrd so'm (yoki 105.55%) ga oshgan, bu bankning likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bankning boshqa banklardagi pul mablag'lari o'zgarishsiz qolgan ammo uning aktivlardagi tutgan ulushi biroz kamaygan xolos, bundan banklardan pul mablag'larini oldi-sottisi yil davomida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini ko'rish mumkin.

Daromad keltiruvchi aktivlarning faqat lizingdan tashqari barchasi kamayish tendensiyasini qayd qilgan. Jumladan, davlat obligatsiyalari bilan savdo hajmi yil davomida o'zgarishsiz qolgan, demak, yil davomida davlatning budjet mablag'lari profitsit bilan chiqqan hamda bank keyinchalik ham foyda olish maqsadida bu aktivlarni sotmagan. Faktoring operatsiyalarini tahlilni ko'radigan bo'lsak, bank yil boshida 18 mln so'm miqdorida debitorlik qarzlarni sotib olgan, yil davomida bu miqdor o'smagan, fikrimizcha bank xodimlari sotib olingan debitorlik qarzini yil davomida uzishga qiynalgan, shuning uchun yil oxiriga kelib bu aktivdan zo'rg'a qutilgan va yil oxiriga hech qanday vositachilik mablag'larisiz yopgan. Kredit operatsiyalari bo'yicha ham shu holat, ya'ni yil davomida kredit hajmi 28.9 mlrd so'mdan 28.6 mlrd so'mga kamaygan, kredit operatsiyalarning kamayishi bankning to'lovga qodirligi hamda likvidlik masalalariga ehtiyotkorlik bilan yondoshganligidan bilish mumkin. Lizing operatsiyalari esa, aksincha yil davomida o'sish sur'atlarini tashkil qilgan. Yil boshida 2 mlrd so'm miqdorda lizing operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 2.8 mlrd so'mni tashkil qildi, ya'ni o'sish sur'atlari deyarli 1.5 marta yoki 839 mln so'm bo'lgan. Demak, korxonalar yil davomida daromad keltiruvchi aktivlardan lizing operatsiyalarini risksizroq va ko'proq daromad olish manbasi sifatida ko'rgan.

Daromad keltirmaydigan hamda likvidlikni ta'minlaydigan aktivlar miqdori ham o'sgan yil boshida asosiy vositalar 5 mlrd so'm bo'lib, yil oxiriga kelib bu 5.2 mlrd so'mni tashkil qilgan, o'sish sur'atlari 105 % yoki 221 mln so'm, bu holni bank yil davomida o'zining texnologik holatini yaxshilashga qaratilgan siyosati natijasi sifatida qarash mumkin.

Umuman olganda bank aktivlari yil boshida 44.4 mlrd so'm bo'lib, yil oxiriga borib bu 45.1 mlrd so'mni tashkil qilgani holda 101.5 % ga o'sgan. Bunga salmoqli ta'sir qilgan lizing operatsiyalari (839 mln so'm), boshqa aktivlar (370 mln so'm), asosiy vositalar (221 mln so'm) va Markaziy bankdan olish kerak bo'lgan pul mablag'lari o'sishini (113 mln so'm) keltirish mumkin. Kassadagi naqd pullar (168 mln so'm) hamda kredit operatsiyalari

(655 mln so'm)ga kamayishi jami aktivlar miqdorining o'sishiga salbiy ta'sir o'tkazgan. Eng asosiysi, bank mutloq likvid mablag'lar hamda eng ko'p daromad keltiruvchi aktivlarning keskin kamayishi bankni daromadligini pasaytirgan, ammo likvidligini saqlab qolishiga harakat qilgan demak, yil davomida bank qandaydir yo'qotish yoki zararlarni qoplash bilan shug'ullangan, ikkinchi holda esa bank noto'g'ri strategiya tanlovi asosida harakat qilgan.

Bank aktivlari miqdorining tarkibi va dinamikasini o'rgangan holda, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlar belgilanmog'i lozim.

Buning uchun aktivlar daromadlilik nuqtayi nazaridan ham tahlil etilmog'i lozim.

2.2. Bank aktivlarining daromadlilik tahlili

Bank faoliyatining asosiy pirovard maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan olganda, bank aktivlarining daromadlilikini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank aktivlari faoliyat natijasida daromad keltirishiga qarab; daromad keltiradigan aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi.

Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustahkamligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidlilikiga bog'liq.

Bankning daromad keltiradigan aktivlarga:

- barcha turdagi turli xil kreditlar berishga sarflangan mablag'lar;
- DQMO va boshqa qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar, lizing va faktoring operatsiyalri va boshqalar kiradi.

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit obyeksi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki bankda daromad keltiruvchi aktivlar katorida kreditlardan tashqari, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasiga jalb qilingan mablag'lar ham mavjud. Albatta ushbu aktivlarning ham tarkibini o'rganib chiqish muhimdir.

Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich bu daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bankning daromad keltiruvchi asosiy aktivlari bu mijozlarga berilgan kreditlardir. Bankning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi bu davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga jalb qilingan aktivlardir. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Bankning aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir. Foizli daromad manbai kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas, balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish kerak. Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirishi kerak.

Bankning daromad keltirmaydigan aktivlariga quyidagilar kiradi;

- kassadagi naqd pullar va boshqa pul mablag'lari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar;
- kapital va boshqa joriy xarajatlar;
- Markaziy bankdagi vakillik va zaxira fondi hisobraqamlar qoldig'i.

Bank aktivlari xajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ini yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanilganini ifodalaydi.

Bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalari iqtisodiy sharoitga bog'liq holda ular tarkibini o'zgartirib turish kerakligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon bermoqda. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyatsiz aktivlarning ko'pgina qismi faoliyat qilayotgan aktivlarning elementlariga aylanadi, ko'pincha bu valyuta va harakatsiz aktivlarga tegishlidir. Bank o'zlarining balanslari strukturasi doimiy ravishda uning daromadlilik nuqtayi nazaridan tahlil qilib borishlari kerak.

2.2-jadval

«A» bankning daromad keltiruvchi aktivlari tarkibi va dinamikasi

(yil boshiga)

	Daromad keltiruvchi aktivlar	O'tgan yil		Joriy yil		Farqi	
		Qoldig'i mln. so'm	ulushi %	Qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	ulushi %
1.	Davlat obligatsiyalari	55	0,2	55	0,2	0	0
2.	Qimmatbaho qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	342	1,1	320	1,0	-22	-6,4

3.	Sotib olingan debitorlik qarzlari-faktoring	18	0,06			-18	-100,0
4.	Kreditlar– jami:	28895		28240		-655	-2,3
	shu jumladan: daromad hisoblanishi to‘xtatilgan muommoli kreditlar;	102		110		8	7,8
	Daromad keltiruvchi kreditlar	28793	92,2	28130	89,7	-663	-2,3
5.	Lizing	2021	6,5	2860	9,1	839	41,5
	Jami:Daromad keltiruvchi aktivlar.	31229	100	31365	100	136	0,4

«A» bankning o‘tgan yil holatiga daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi;

$$\frac{\text{Daromad keltiruvchi aktivlar}}{\text{Jami aktivlar}} \times 100\% = \frac{31229}{44420} \times 100\% = 70,3\%.$$

$$\text{Joriy yil holatiga} = \frac{31365}{45100} \times 100\% = 69,5\%.$$

Daromad keltiruvchi aktivlarning bank aktivlaridagi ulushi yil davomida 0,8 foizga kamaygan.

Bankning daromad keltiruvchi aktivlaridan past daromad keltiruvchi lekin nisbatan past riskka ega bo‘lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yil davomida o‘zgarmagan. Yil boshida 55 mln so‘m qoldig‘i bo‘lib, yil oxiriga kelib bu qiymat o‘zgarmagan. Biroq aktivlarning ulushidagi qiymati 0.05 % ga kamaygan.

Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar hajmi esa yil boshidagi 342 mln. so‘mdan yil oxiriga borib 22 mln. so‘mga kamayib 320 mln. so‘mni tashkil qilgan, buni ikki holat bilan izohlasa bo‘ladi, birinchidan, bank yil davomida yo‘naltirilgan investitsiyalarni miqdorini qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni kamaytirish hisobiga kamaytirgan yoki ikkinchidan, qimmatli qog‘ozlarga yo‘lantirish kerak bo‘lgan mablag‘larni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yoki likvidligini ta‘minlash maqsadida vaqtincha saqlab turgan bo‘lishi hisobiga kamaygan bo‘lishi mumkin.

Bank tomonidan yil boshida berilgan kreditlar qoldig'i 28,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, o'sha holatga nisbatan 102 mln so'm (berilgan kreditlarning 0,4 %) ni muammoli kreditlar bo'lgan, yil oxiriga kelib berilgan kreditlar miqdori 8 mlrd so'mga kamaygani holda 20,8 mlrd so'mni tashkil qilgan, ammo bankning muammoli kreditlari miqdori 510 mln so'm (yil oxiridagi berilgan kreditlarning 2,4 %) bo'lgan yoki 5 marta oshgan. Yil boshida daromad keltirayotgan kreditlar jami daromad keltirayotgan aktivlarning 91.6 % ini tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib bu ko'satkich 43.9 %ga kamaygani holda 49,5 ni tashkil qildi, demak, bankning yil boshida daromad keltirayotgan kreditlari yil davomida o'tkazilgan kredit monitoringi natijasida kreditlarning sifat ko'rsatkichlari pasaytirilgan, bu yil boshida daromad keltirayotgan kreditlarning keyinchalik daromad keltirmasligi, foiz to'lovlari to'lanmayotgandan muammoli kreditlar ko'paygan bo'lishi mumkin. Bu salbiy holatdir, bank yil davomida muammoli kreditlari ko'payotganligi sababli kredit berishni kamaytirgan bo'lishi mumkin.

Bankning o'tgan yil davomida olingan aktivlardan daromadlari eng salmoqlisi lizing operatsiyalaridan olingan daromad bo'lgan. Yil boshida lizing operatsiyalari 2 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil davomida 10 marta (yoki 18,9 mlrd so'mga) ko'payib 20,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki lizing operatsiyalaridan olingan daromad barqaror bo'lganligi sababli bank lizing operatsiyalarini eng asosiy daromad keltiruvchi aktivlar sifatiga qaragan.

Bank yil boshida daromad keltiruvchi aktivlarining 91.6 % ini kredit operatsiyalari tashkil qilgan. Ammo yil davomida bank daromad keltiruvchi aktivlarini diversifikatsiya qilgani holda kredit operatsiyalarining ulushini 91,6 % dan 47,7 % ga kamaygan bo'lsa, buning hisobiga lizing operatsiyalari yil boshida 6,43 % dan 48,99 % ga oshgan.

2.3-jadval

«A» bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlari tahlili

(yil boshiga)

	Daromad keltiruvchi aktivlar	O'tgan yil			Joriy yil			Farqi		
		o'rtacha qoldig'i (mln.so'm)	daromad darjasi (%)	daromad miqdori (mln.so'm)	o'rtacha qoldig'i (mln.so'm)	daromad darjasi (%)	daromad miqdori (mln.so'm)	o'rtacha qoldig'i (mln.so'm)	daromad darjasi (%)	daromad miqdori (mln.so'm)
1.	Davlat obligatsiyalari	55	10	5,5	55	10	5,5	0	0	0

2.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan obligatsiyalar	345	6	20,7	331	8	26,5	-14	2	5,78
3.	Sotib olingan debitorlik qarzlari-Factoring	18	20	3,6	9	20	1,8	-9	0	-1,8
4.	Daromad keltiruvchi kreditlar	26860	20	5372	28461	18	5123,0	1601	-2	-249,0
5.	Lizing	1830	16	292,8	2440	16	390,4	610	0	97,6
	JAMI:	29108	X	5694,6	31296	X	5547,16	2188	X	-147,44

O'rganilayotgan davrda bankning Davlat obligatsiyalariga kiritgan mablag'laridan o'rtacha 5,5 mln so'm miqdorda daromad olgan, yil oxirida ham bu qiymat o'zgarmay qolgan. Yil boshida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lardan 21,12 mln so'm miqdorida daromad olgan bo'lsa, bank yil oxiriga borib, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning yil boshidagi qoldig'i yil oxiridagi qoldig'iga nisbatan kamaygan bo'lsa hamki, daromadlilik darajasi 2 foizga oshganligi samarasida 25,6 mln so'm daromad oldi. Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha esa daromad yil oxiriga borib olinmagan, bunda faktoring operatsiyalarini yil davomida qilinmaganligi sabab. Daromad keltiruvchi kreditlarning yil boshiga daromadlilik darajasi 20 % bo'lib 5758,6 mln so'm daromad olib kelgan, biroq yil oxiriga borib daromadlilik darajasining 2% ga kamaygani hamda berilgan kreditlar miqdorining keskin tushishi natijasida ham kreditdan olingan daromadlilik 663 mln so'mga kamayib 457,6 mln so'mni tashkil qilgan. Lizing operatsiyalari esa, aksincha yil boshida qilingan lizing operatsiyalari natijasida 323,4 mln so'm daromadlilik bo'lsa, yil oxiriga borib bu qiymat 457,6 mln so'mni tashkil qilgan, bu holatda lizingni yil boshidagi daromadlilik darajasi 16 % yil oxiriga borib ham o'zgarmagan, lekin lizingning miqdori 839 mln so'mni tashkil qilgan.

Bankning yil davomida daromad keltiruvchi aktivlarining daromadlilik darajasini tahlili jarayonida yil boshida eng ko'p daromad keltirgan bu faktoring hamda kredit operatsiyalari bo'lgan. Yil oxiriga borib esa kredit operatsiyalarining daromadlilik darajasi kamaygan, bu berilgan kreditlar tarkibida shubhali kreditlarning salmog'i ko'payib ketganidan bo'lishi mumkin. Lizing operatsiyalarining daromadlilik darajasi o'zgarmagan bo'lsa ham lekin, yil oxiriga qoldig'ining ko'pligi sababli daromad keltirgan mablag'lar qiymati ortgan.

Hisobot yilida bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlarining miqdori, asosan lizing operatsiyalarining rivojlanishi hisobiga to'g'ri keladi. Bank kelgusi davrda asosiy e'tiborni kredit operatsiyalari sifatini oshirishga va investitsion operatsiyalarni rivojlantirishga qaratishi lozim.

2.3. Bank aktivlari risklilik darajasi tahlili

Aktiv operatsiyalar uchun risk darajasi muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki ko'pgina banklar katta foyda izidan quvib, likvidlilikni esdan chiqaradi. Bu yo'nalishda ularga o'z mijozlarining moliyaviy holatini chuqur o'rganish va to'lovga qobiliyatlilik darajasini tahlil qilishni tavsiya qilish mumkin.

Bank risklari aktivlarning qiymatini oshishi yoki pasayishiga sabab bo'ladi. Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan aktivlarni riskka tortish tizimi Xalqaro standartlar sifatida qabul qilingan. Aktivlarning shkalaasi bo'yicha riskka tortishda ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Risksiz, ya'ni risk darajasi nolga teng bo'lgan aktivlar. Bunday aktivlarga kassadagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob varag'idagi mablag'lar, hukumatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari, Markaziy bankka qayta hisobga olinadigan trattalar kiradi.

2. Risk darajasi 10 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlarga hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalar kiradi.

Ushbu qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lov summasi kafolatlangan. Lekin uzoq muddat davr mobaynida qimmatli qog'ozlar bozorida kurs oshishi mumkin. Bunday sharoitda hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarining daromadlilik darajasi pasayadi.

3. Risk darajasi 20 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga bankning boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobvarag'ining qoldig'i, inkassatsiya jarayoniga qo'yilgan pul mablag'lari kiradi.

4. Risk darajasi 50 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunga ipoteka bilan ta'minlangan ssudalar, boshqa bankning qimmatli qog'ozlari kiradi. Bularga 50 % risk darajasini berilishiga sabab, banklar boshqa tijorat strukturalariga nisbatan yuqori likvidlik va to'lovga qobillikka ega bo'lgan muassasalar hisoblanadi. Shu sababli ularga korxonalar va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlariga qaraganda past risk beriladi.

5. Risk darajasi 100 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga korxonalar va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari, mijozlarga berilgan ssudalar, bankning asosiy vositalari kabi aktivlar kiradi.

Aktivlarning risklilik darajasi inobatga olingan miqdoridan bank bank kapitalining yetarililik darajasini aniqlashda foydalaniladi.

Mijozlarga berilgan ssudalarga 2 xil risk uchraydi: a) kreditni qaytmaslik riski; b) foiz riski.

Bank aktivlarining barchasi riskga moildir. Ushbu risklarni aniqlash va mavjud bank to'g'risidagi qonunchiligidan hamda har bir bankning o'zining olib borayotgan siyosatidan kelib chiqib ushbu risklarni me'yorida saqlashni ta'minlash kerak. Bank aktivlarining tarkibini o'rganib olinadigan natijaga qarab turli xil risklarni tahlil qilish mumkin. Foiz riskini aktivlarning tuzilishiga qarab, daromadlilikiga qarab aniqlash mumkin. Ammo bank ishida asosiy risk bu aniq operatsiyalar bo'yicha mablag'larni yo'qotishdir. Shuning uchun ham ushbu risklarni kamaytirish uchun aktivlarning tuzilishini chuqur o'rganishga to'g'ri keladi.

Bank aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog'liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risklarni chegaralashga yo'naltirilgan. Shuning uchun aktivlarni boshqarishning moliyaviy jihatdan asosiy maqsadi:

- uning daromadini oshirish;
- faoliyatidagi risklarni pasaytirish;

Shuningdek, u uzoq muddatli strategik rejalashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bank aktivlarini tahlil qilish uchun muammoli kreditlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur. Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko'rish hollariga mo'ljallangan zaxiralar yetarililigini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar, naqd pullar va vakillik hisobvaraqlari, ssuda va boshqa aktivlar holatiga e'tibor qaratiladi.

Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risk darajasi, likvidlilik nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi kerak. Bank taraqqiyoti manbalaridan ma'lumki, bank aktivlari daromadlilik va likvidlilik bir-biriga qarama-qarshidir. Likvidlilik va uning daromadlilik o'rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu mezonning ustunligini hisobga olish natijasi ko'rsatilgan qarama-qarshilikni muvofiqlashtirishga va bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishga erishishga olib keladi.

Bankning faoliyatida aktivlarning tutgan rolini yana ham mukammalroq o'rganish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash muhimdir:

- tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va banklarga berilgan kreditlar bo'yicha umumiy kredit qoldig'ini hisoblash;

- berilgan kreditlarni ularning muddatlari, tarmoqlarga berilishi va ularning umumiy qarzdagi salmog‘i bo‘yicha hisoblash;
- ssudalarning o‘rtacha foiz stavkalarini hisoblash;
- umumiy ssudalarning ichida muddati o‘tgan qarzlarning salmog‘i bo‘yicha hisoblash.
- bank tamonidan berilgan eng katta kreditlarning hajmini hisoblash;
- berilgan turli darajadagi kreditlarning Markaziy bank yo‘riqnomalariga javob berishini hisoblash;
- aktivlardan foydalanish samaradorligi;

DKAO‘S/JAO‘S Bu koeffitsiyent aktivlarning qancha bo‘lagi foyda kelirishini ko‘rsatadi.

Bu yerda:

DKAO‘S – daromad keltiruvchi aktivlarning o‘rtacha summasi

JAO‘S – jami aktivlarning o‘rtacha summasi.

Ushbu ko‘rsatkichlar bankning kredit siyosatning mohiyatini ko‘rsatib, bankning aktivlarining maqsadga muvofiq tuzilishini ko‘rsatadi, ularning risklilik darajasini va bankning likvidligiga, daromadlilikiga, rentabelligiga ta‘sirini ko‘rsatadi.

Aktivlarni risklilik darajasini inobatga olgan holda amalga oshirilgan tahlil, aktivlar tarkibini boshqarish imkoniyatini beradi, bu esa o‘z navbatida bank likvidligi va to‘lovga qobiliyatini ta‘minlashning asosi hisoblanadi.

2.4. Bank aktivlari likvidligi tahlili

Bank likvidligini saqlash g‘oyat muhim hisoblanadi. Bu narsa ikki maqsadga erishish uchun zarurdir: birinchidan, omonatlar olib qo‘yilganda bankning o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ta‘minlash uchun, ikkinchidan, kreditlarga bo‘lgan talabni qondirish uchun.

Likvidlilik deganda – bankning o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘z vaqtida javob bera olish qobiliyati tushuniladi. Likvidlilik bankning kundalik faoliyatida pul mablag‘lari mavjudligi yoki o‘z aktivlarini likvid mablag‘larga aylantira olish qobiliyati bilan ta‘minlanadi.

Bankni boshqarishning asosiy vazifalaridan biri, bu bank likvidligi bilan uning daromadlilikiga o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlashdir.

Har bir bank o‘zining majburiyatlarini bajarish uchun, likvidlik talablariga javob berishi uchun bankning barcha aktivlarini qaytarilish muddatiga ko‘ra likvidlik darajasi bo‘yicha guruhlariga bo‘lib chiqadi. Bular yuqori likvidli aktivlar; uzoq muddatli likvidli aktivlardir.

Yuqori likvidli aktivlarga quyidagilar kiradi: kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag‘lar; Markaziy bankning majburiy rezervlar fon-

diga o'tkazilgan mablag'lar; davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalardir. Bu mablag'lar yuqori likvidli bo'lib zarur bo'lganda bank bu mablag'larni zudlik bilan o'z majburiyatlarini to'lovga ishlatishi mumkin.

Likvidli aktivlar qatoriga: qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan barcha kreditlar (bularga 30 kundan oshgan va qaytarish muddati ko'pi bilan bir marotaba uzaytirilgan kreditlar kirmaydi) kiradi va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan barcha debitorlar, majburiy rezervlarga o'tkazilgan ortiqcha to'lovlar kiradi.

Uzoq muddatli likvidli aktivlar qatoriga bank tomonidan so'mdagi yoki chet el valyutasida berilgan va qaytarish muddati bir oydan ko'p bo'lgan kreditlar va qaytarish muddati bir yildan oshgan hamda kami bilan 50% kafolat yoki kafillik berilgan kreditlar, qaytarish muddati o'tgan ammo davlat kafolati berilgan kreditlar, qimmatli qog'ozlarni va nodir metallarni garovga olib berilgan kreditlar ham kiradi.

Bank faoliyati jarayonida o'zining aktivlarini maqsadga muvofiq joylashtirib bank likvidlilik talablarini bajarishi kerak hamda o'zining majburiyatlari summasidan, ko'rinishidan kelib chiqib lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlilik me'yorlarini bajarishi kerak.

Bank doimiy o'zining likvidliligini ma'lum bir darajada saqlashi kerak, ya'ni o'zining to'lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Likvidlilikka bo'lgan talab aktivlardan keladigan daromadni oshirish faoliyatiga ma'lum darajada qarshi turadi. Ya'ni likvidlilik foydasiga bank daromadliliigi suiste'mol qilinmasligi lozim. Bankning portfelidagi saqlanadigan aktivlari qanchalik darajada likvid bo'lsa, shunchalik ular bilan bog'liq, risk kichik bo'ladi, ammo shunga javoban ularga to'lanadigan foiz ham shunchalik kam bo'ladi.

Belgilangan to'lovga qobillik doirasidan chiqmagan holda aktivlarga joylashtirilgan kapitaldan daromadni oshirish, bankda boshqarish san'atini belgilaydi.

Kassadagi naqd pullar – bu bankning kassasida saqlanayotgan va bankning kunlik hisobraqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va tangalardir. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirish uchun beriladigan qog'oz pullarga va tangalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi, jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi. Odatda jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo'limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zaxiralalar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar qo'shiladi. Sababi bu

mablag'lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu mablag'larni bankka «birinchi mudofaa chizig'i» deb atashadi, sababi mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

Bank aktivlari strukturasi kelganda, bu yerda haqli ravishda ta'kidlash kerakki, qancha birinchi darajali likvidli aktivlar hissasi ko'p bo'lsa, shuncha bank likvidligi yuqoridir. Lekin esda tutish kerakki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi, shuning uchun bunday strukturali aktivlarni har qanday holda maqsadga muvofiq deb hisoblab bo'lmaydi.

Ma'lumki bankning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida jalb qilingan mablag'lar ham mavjud. Albatta ushbu aktivlarning ham tarkibiy, tuzilishini o'rganib chiqish muhimdir.

Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i qancha ko'p bo'lsa, bu bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida, investitsion institut sifatida ishtirok etishadi. Bu fond bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida broker va diller sifatida ishtirok etishadi. Birinchi funksiyani brokerlik kontoralari orqali amalga oshirsa, ikkinchisini fond birjalari orqali amalga oshiriladi.

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar ham bo'ladilar. Rivojlangan bozor iqtisodiyatli mamlakatlarida kompaniya aktivlarining 40-80 % bank kapitali hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bank o'z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo'shimcha daromad olish va balansining likvidligini ta'minlash maqsadida DQMO dan keng foydalanadi.

Bo'sh turgan resurslarni joylashtirib daromad topishning eng qulay usuli, bu DQMOdir. Bundan tashqari DQMO dan olingan daromadga soliq to'lanmaydi. DQMolar banklarning aktivlari ichida eng ishonchlisidir, sababi unda davlat kafolati mavjud. DQMolar ham daromadi fiksirlangan qimmatli qog'ozlar qatoriga kiradi. Ushbu tur qimmatli qog'ozlar dividend to'laydigan qimmatli qog'ozlarga nisbatan likvidli hisoblanadi.

Banklar uchun quyidagi likvidlik koeffitsiyentlari belgilangan:

lahzali likvidlik koeffitsiyenti likvid shaklidagi balans aktivlari, ya'ni ekstremal vaziyatlarda tez sotiladiganlari bilan bankning muddatsiz depozit hisobvaraqlari bo'yicha majburiyatlar summasi orasidagi nisbatni bildiradi,

$$N3 = \frac{LA}{(OV)}$$

Bunda: **LA** – bankning pul shaklidagi aktivlari,

OV – bankning muddatsiz depozit hisobvaraqlariga doir majburiyatlari.

N3 – me'yorining yo'l qo'yiladigan eng kam alomati 0,25 qilib belgilangan. Mazkur me'yor Markaziy bank tomonidan kunlik balans asosida tezkor (operativ) tarzda nazorat qilib boriladi.

Lahzali likvidlik ko'rsatkichi – iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ushbu normativ bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarini shu lahzada bajara olish qobilayatini anglatadi.

«**Joriy likvidlik ko'rsatkichi**» likvid shakldagi bank aktivlarini 30 kungacha bo'lgan muddatda yo'qlab olingungacha turadigan hisobvaraqlari bo'yicha majburiyatlari summasi orasidagi nisbatni bildiradi.

$$N4 = \frac{LA(1)}{OV(1)}$$

Bunda: **LA** – qaytarish muddati 30 kungacha muddatda berilgan bankning likvid aktivlari va kreditlari.

OV – qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan yo'qlab olingungacha turadigan majburiyatlari.

N4 – me'yorining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 0,3 ga teng.

Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim banklar o'rtasida yuqori daromadni ko'zlagan holda talab qilib olgunga qadar va qisqa muddatga qo'yilgan omonatlar hisobidan kredit berish va boshqa aktiv operatsiyalarga uzoq muddatli tartibda joylashtiradilar. Jalb etilgan mablag'larning muddati kelgan paytda esa bank omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini muddatida bajarish imkoniga ega bo'lmaydi. Buning natijasida bank o'z to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Bunday holat bankning o'z faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, balki omonatchilarning moliyaviy ahvoriga qolaversa, bank tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida bank amaliyotida aktiv va passiv mablag'larning miqdori va muddatlarini balanslash talablari o'rnatildi. Bu to'g'rida jahon bank tajribasining «bankning oltin qoidasi» deb nomlanuvchi qoidasi amal qiladi. Unga binoan bankning moliyaviy talablari miqdori va muddati uning majburiyatlari miqdori va muddatlariga muvofiq kelishi shart.

N4 – normativining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, qay darajada jami balans aktivlarining likvid qismi talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlarni bir vaqtning o'zida qaytarishi mumkinligidir. Madomiki,

bunday muddatli omonatchilar har qanday vaqtda bankdan o'z omonatlarini talab qilishlari mumkin.

Yuqoridagi shartlardan kelib chiqqan holda, mazkur normativ bank tomonidan omonatchilardan jalb qilingan mablag'lar muddati bilan ularning aktiv operatsiyalarga joylashtirish muddatlariga qat'iy muvofiq kelishini talab etadi.

Shuning bilan bir qatorda mazkur me'yorning buzilishi xalq xo'jaligida bo'ladigan hisob-kitoblarni sekinlashtirishga olib kelishi mumkin.

Quyida biz «A» bank joriy likvidligini aniqlash maqsadida uning likvid aktivlarini o'rganamiz.

2.4-jadval

«A» bankning joriy likvid aktivlari tarkibi

(yil boshiga)

№	Joriy likvid aktivlar	O'tgan yil		Joriy yil		Farqi	
		qoldig'i mln. so'm	ulushi %	qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	ulushi %
1.	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlar	1728	24,7	1560	21,2	-168	-9,7
2.	Bankning O'zRMB hisobvaraqlari (10300)	2037	29,1	2150	29,2	113	5,5
3.	Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (10500)	593	8,5	593	8,0	0	0,0
4.	Davlat obligatsiyalari	55	0,8	55	0,7	0	0,0
5.	30 kun ichida qaytariladigan kreditlar;	2580	36,9	2980	40,4	400	15,5
6.	30 kun ichida qaytariladigan lizing;	0	0,0	30	0,4	30	0,0
	JAMI:	6993	100	7368	100	375	5,4

Bankning yil davomida likvid aktivlaridan mutlaq likvid bo'lgan kassadagi naqd pullar yil boshida 1,7 mlrd so'mdan yil oxiriga borib 168 mln so'mga kamaygan, Markaziy bankdagi pul mablag'lari esa yil boshida 2 mlrd so'mdan yil oxiriga borib 113 mln so'm (yoki 5,5 %)ga o'sib 2,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bankning boshqa banklarda hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari

yil boshidagi 593 mln so‘mdan yil oxiriga borib umuman o‘zgarmagan, demak bu ikki holatda bo‘lishi mumkin, birinchidan, bankka yil davomida boshqa banklar likvidligi va to‘lovga qodirligi pastligi sababli mablag‘larni qaytara olmagan, yoki ikkinchidan, bank boshqa banklar bilan operatsiyalari natijasida pul mablag‘lari teng holatda bo‘lib qolgan.

Davlat obligatsiyalari ham yil boshidan yil oxiriga qadar o‘zgarmagan. 30 kunda qaytarilish kerak bo‘lgan kreditlar yil boshida 2.5 mlrd so‘m bo‘lib yil oxirida 2.9 mlrd bo‘lgan, bunda o‘shish 400 mln so‘m yoki 15.5 %ni tashkil qilgan. Demak, bank bir oy muddat ichida daromadi oshishini kutmoqda. 30 kun ichida qaytarilishi kerak bo‘lgan lizinglar yil boshida yo‘q bo‘lgan, yil oxiriga kelib esa 30 mln so‘mni tashkil qilgan, bu ikki holatda bo‘lishi mumkin, bankning lizing muddatlari yil oxiriga kelib tugashi kerak yoki bank aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish jarayonida lizing operatsiyalarini ko‘paytirgan, buning natijasida yil oxiriga kelib ham lizing operatsiyalari oshgan, ham to‘lov muddati kelgan.

Umumiy holda tahlil qiladigan bo‘lsak, bankning yil boshidagi likvid mablag‘lari tarkibining 36.9 %ini 30 kunda qaytariladigan kreditlar tashkil qilgan, keyingi o‘rinlarda esa kassadagi naqd pullar va vakillik hisobvarag‘idagi pullar egallagan. Ammo yil oxiriga kelib o‘zgargan salbiy o‘zgarish bu kasali aktivlar (asosan naqd pul) ning salmog‘i kamayganidir. Lekin umumiy holda bankning likvid mablag‘lari yil boshidagi 6,9 mlrd so‘mdan yil oxiriga kelib 375 mln so‘m (5,36 %)ga oshib 7,3 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bunga ta‘sir qilgan asosiy omillar Markaziy bankdagi pul mablag‘lari va muddatini 30 kun qolgan kreditlar tashkil qilgan.

Bankning joriy likvidligini to‘laqonli ravishda baholash uchun uning joriy majburiyatlariga e‘tibor qaratmog‘imiz lozim.

2.5-jadval

«A» bankning joriy majburiyatlari

(yil boshiga)

№	Joriy likvid aktivlar	O‘tgan yil		Joriy yil		O‘zgrishi	
		qoldig‘i mln. so‘m	Salmog‘i %	Qoldig‘i mln. so‘m	Salmog‘i %	mln. so‘m	Salmoqda %
1.	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	5300	29,4	5900	30,4	600	11,3
2.	Muddatli depozitlar	3400	18,9	3500	18,0	100	2,9

3.	Boshqa banklarning hisobraqamlari	1200	6,7	1400	7,2	200	16,7
4.	olingan qisqa muddatli kreditlar	3600	20,0	3900	20,1	300	8,3
5.	olingan uzoq muddatli kreditlar;	3700	20,6	3800	19,6	100	2,7
6.	Mijozlarning boshqa depozitlari	800	4,4	900	4,6	100	12,5
	JAMI:	18000	100	19400	100	1400	7,8

Bankning joriy majburiyatlari o'tgan yil davomida 1,4 mlrd so'mga yoki 7,8 foizga o'sgan. Yuqorida keltirilgan 11 va 12 jadvallar ma'lumotlaridan foydalanilgan holda bankning joriy likvidligini aniqlaymiz.

O'tgan yil holatiga bankning joriy likvidligi (699 mln. so'm/18000 mln. so'm x100=38,85%), joriy yil holatiga (7368 mln. so'm/19400 mln. so'm x100=38,0%).

Bankning joriy likvidligi tahlil etilayotgan davrlarda Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talab darajasida bo'lgan (talab – 30% dan kam bo'lmasligi lozim).

«**Qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichi**» bankning qaytarish muddati 30 kundan to 1 yilgacha bo'lgan depozitlar, olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlariga nisbati bilan xarakterlanadi.

$$N5 = \frac{A}{D + K}$$

Bunda: **A** – 30 kundan 1 yilgacha muddatga berilgan kreditlar.

D – 30 kundan 1 yilgacha muddatga jalb qilingan mablag'lar va depozitlar.

K – Bank sarmoyasi.

Mazkur me'yorning eng yuqori o'rnatilgan miqdori 1 ga teng.

Barcha banklar joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Bank likvidligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar (K I):

Koeffitsiyentlar	Ko'rsatkichlar	Hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon	Izoh
K 11 (to'la likvidlilik)	Likvid aktivlar/jami aktivlar	La/A	Min-0,20	Koeffitsiyent jami aktivlarda likvid aktivlar salmog'ini va jami passivlarni qancha foizini likvid aktivlar qoplay olishligini ko'rsatadi.
K 12 (Joriy likvidlilik)	Yuqori likvid aktivlar/talab qilinguncha va muddatli majburiyatlar	La/M	Min-0,30	Joriy likvidlik koeffitsiyenti uchun MB tomonidan o'rnatilgan majburiy me'yori ham 0,3 qilib belgilangan va u likvid aktivlar orqali majburiyatlarni qoplanishini ko'rsatadi
K 13 (lahzalik likvidlilik)	Kassadagi naqd pul mablag'lari/talab qilib olinguncha majburiyatlar	Npm/Tkom	Min-0,20	Kassadagi naqd pul mablag'lari orqali talab qilib olguncha majburiyatlarni zudlik bilan qoplanishini ko'rsatadi

Bank likvidligini tahlil qiluvchi davr (oylik, choraklik, yillik) mobaynida o'zgarishlar tendensiyasiga ahamiyat berishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini o'tgan davrlarga nisbatan baholashi, resurslar jalb qilishning o'tgan va joriy strategiyalarini baholashi, shuningdek, imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan taqqoslanishi lozim.

Likvidlik koeffitsiyentlari o'z-o'zidan likvidlikning yetariligi bo'yicha aniq ma'lumot bermaydi, ularga umumiy bahoning bir qismi sifatida qarash kerak. Quyida likvidlik koeffitsiyentlari bo'yicha misollar keltirilgan;

Likvid aktivlar (zaxiraning ortiqcha qismi, erkin ayirboshlanadigan valyuta, DQO lari, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari) / jami aktivlar;

Doimiy bo'lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar ma'lum manbalardan olingan qarzarlar) / jami aktivlar.

Likvid aktivlar / Doimiy bo'lmagan majburiyatlar.

Barcha yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotni aks ettiradi – ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslarning barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfeldagi yuqori likvidliktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

Kreditlar/Depozitlar – depozitlar, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbaidir. Ko'rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va yoki o'sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzarlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi.

Bank rahbariyati joriy likvidlikdan tashqari o'zining likvidlik ko'rsatkichlari to'plamini ishlab chiqishi va undan foydalanishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar mazmunli bo'lishi va har doim bankning moliyaviy holatini baholovchi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Bankning to'lov qobiliyatini doimiy ravishda ta'minlashda uning kundalik likvidligini tahlil etib borish talab etiladi.

2.5. Bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlili

Banklar mavjud aktivlaridan samarali foydalanishlari lozim. Bank aktivlari turli tuman bo'lib, ular har xil faoliyatda ishtirok etadilar. Lekin barcha aktivlarning foydalanishini umumiy ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin. Tahlildan barcha aktivlarning foydalanishidan tashqari, banklar faoliyatida bir xil foydalanishda bo'lgan aktivlar guruhini alohida o'rganish lozim.

Bank barcha aktivlarining samarali foydalanishini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlarga: aktivlarning natijaviyligi (A_n), aktivlarning daromadlili-gi (A_d), aktivlarning tejamkorligi (A_t) va aktivlarning foydaliligi (A_f) ko'rsatkichlarini kiritish mumkin.

Bank aktivlarining natijaviyligi (A_n) deganda, bank faoliyatining asosiy bo'lgan kredit aylanmasini aktivlarining o'rtacha summasiga nisbati tushuniladi. Bu ko'rsatkich bank mavjud aktivlaridan foydalanib, hisobot davrida (oy, kvartal, yil) ularning har bir so'miga necha so'mlik kredit aylanmasiga erishdi degan savolga javob beradi.

$$A_n = \frac{\text{Kredit aylanmasi}}{\text{aktivlar o'rtacha summasi}} ;$$

Bank kredit aylanmasi deganda tahlil qilinayotgan davrda (chorak, 6 oy, 9 oy, bir yil va hokazo) mijozlarga kredit berib, qaytarib olingan summa tushuniladi.

Masalan, bank hisobot yilida 126,0 mlrd so‘m kredit berib, qaytarib olgan, aktivlarining o‘rtacha summasi esa 41,0 mlrd so‘m. Bank barcha aktivlarining natijaviyligi

$$An = \frac{126.0}{41.0} = 3,07 \text{ bo‘lgan.}$$

Bank aktivlarining daromadliligi bank kredit va boshqa operatsiyalaridan olingan barcha daromad summalarini, ya’ni hisobot davrida olingan barcha daromad summalarini aktivlarining o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi.

$$Ad = \frac{\textit{barcha daromadlar summasi}}{\textit{aktivlar o‘rtacha summasi}};$$

Bank aktivlari tejamkorligi (A_t) deganda, bank mavjud aktivlardan foydalanish uchun, ularning har bir so‘miga qancha xarajat qilayotgan degan savolga javob beradi. Bu ko‘rsatkich A_t bankning tahlil qilinayotgan davridagi xarajatlarni aktivlar o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi.

$$A_t = \frac{\textit{xarajatlarni summasi}}{\textit{aktivlar o‘rtacha summasi}} ;$$

Aktivlarning foydaliligi (A_f) ko‘rsatkichi bank foydasini aktivlarning o‘rtacha summasiga bo‘lib topiladi va bank aktivlaridan foydalanib ularning har bir so‘miga qancha foyda olayпти degan savolga javob beradi.

$$A_f = \frac{\textit{sof foyda summasi}}{\textit{aktivlar o‘rtacha summasi}} ;$$

Aynan yuqorida qayd etilgan tartibda bizni qiziqtiradigan alohida olingan aktiv turlari bo‘yicha ham ularning samaradorligini aniqlashimiz mumkin.

3-BOB.

BANK KAPITITALINING (MABLAG‘LARI) TAHLILI

3.1. Tijorat banklari kapitilining (mablag‘lari) tahlili

3.2. Bankning o‘z mablag‘lari (kapitali) tahlili

3.1. Tijorat banklari kapitilining (mablag‘lari) tahlili

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliligini ta‘minlamasdan turib, banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun eng asosiy zarurlardan biridir.

Aytish joizki, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlangan, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan jahon moliyaviy inqirozi natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik va to‘lov qobiliyati zaiflashib borayotgan bir paytda, banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlashda bank kapitali va uning yetarlilik darajasi birlamchi zaruriy omil bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta‘minlashda tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uning muvofiqligini ta‘minlashga erishish muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro bank amaliyotida bank kapitali va uning yetarliligini ta‘minlash masalasiga to‘xtalishdan oldin bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz.

Bank kapitali murakkab kategoriya sifatida «bank ishi»da muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u bank faoliyatining boshlang‘ich moliyaviy asosi va keyinchalik uning rivojlanishi, barqarorligi hamda xavfsizligini ta‘minlovchi manba bo‘lib hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, tijorat banki kapitali – bu bank faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbasi bo‘lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o‘ziga xos himoya vositasidir.

Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni yanada to‘liqroq u bajaradigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi.

Bank kapitalining quyidagi ikkita funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Himoya funksiyasi. Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funksiyasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga shakllantiriladi.

Himoya funksiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, agarda bank tugatilganda omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyatiga keng yo'l ochib beradi.

Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bank operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Bank kapitalining mavjudligi uning ishonchligi va likvidligining birinchi shartidir.

2. Bank kapitali tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Bank kapitalini tartibga soluvchi funksiyasi bankning ssuda va investitsion operatsiyalarini chegaralashni nazarda tutadi.

Bank kapitali yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishi uchun quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

1. U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy).

Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aksiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunida «Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar», deya qayd etilgan.

Demak, tijorat banklari nizom kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatish huquqiga ega.

2. Bank kapitali majburiy to'lovlarga tobe bo'lmasligi kerak.

Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Bank kapitali omonatchilar va kreditorlarning huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur.

Tijorat banklari kapitali tarkibini oqilona shakllantirishi bank kapitalining mustahkamligiga va uning yetarliligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro Bazel qo'mitasining standartlariga asosan bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratiladi. Ushbu standartlar birinchi marta 1988-yilda ishlab chiqilib, amaliyotga 1993-yildan boshlab joriy etilgan.

Bazel standartlariga ko'ra asosiy kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati);
2. Muddatsiz imtiyozli aksiyalar;
3. Emission daromad;
4. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari;
5. Sof foyda.
6. O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi.

Shunisi e'tiborga molikki, xorijiy bank amaliyotida banklarda audit tekshiruvi o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Xalqaro Bazel standartlari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiritiladi:

1. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiraning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;

2. Qayta baholash zaxirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda yerning qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zaxira miqdori tushuniladi;

3. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari.

4. Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarini tashkil etish maqsadida yo'naltirilgan qo'yilmalar.

Bazel andozalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalari deganda bank qoshida tashkil etilgan, mustaqil balansga ega bo'lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trast, forfeyting kompaniyalari) ko'zda tutiladi.

Respublikamiz tijorat banklarining kapital tarkibi Markaziy bankning 1998-yil 2-noyabrda tasdiqlangan 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarililigiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomida quyidagicha keltirilgan:

I darajali kapital quyidagilardan iborat:

- a) to'liq to'langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar,
- b) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar:
 - muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
 - egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;
 - bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin;
 - ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan (nokumulyativ) dividendlar to'lanmaydi;
- c) qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) — oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;
- d) taqsimlanmagan foyda:
 - kapital zaxiralar;
 - avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi;
 - joriy yil zararlari.
- e) ozchilik aksiya egalarining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida umumlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.
- f) bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo'lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi.

II darajali kapital tarkibi esa quyidagilardan iborat:

- a) joriy yildagi sof foyda;
- b) riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zaxira;
- c) hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:
 - to'liq to'langan bo'lishi kerak;
 - garov bilan ta'minlanmagan;

– bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so‘ng qondirilishi;

– aksiya egasining tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziy bank ruxsatisiz to‘lanishi mumkin emas;

– bankning har qanday zararlarini qoplashi va bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb e‘lon qilish huquqini bermasligi;

– agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo‘lsa, emitent xohishiga ko‘ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlarni to‘lash muddati kechiktirilishi mumkinligi;

a) Subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to‘lash muddati yetib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– garov ta‘minotiga ega bo‘lmaslik;

– bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo‘yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so‘ng amalga oshirilishi;

– boshlang‘ich to‘lov muddati 5 yildan ortiq bo‘lishi lozim.

Bank kapitalining bosh maqsadi – riskni kamaytirish, «himoya devori» sifatida zararlarini qoplab, bank to‘lovga qobilligini saqlash imkonini berishdir. Shu bilan birga kapital bankni likvidlik muommasidan himoya qiladi va moliyaviy resurslar bozoriga kirish imkonini ta‘minlaydi.

Zero, yirik kapital bankka barqaror obro‘, omonatchilar ishonchini beradi. Bank kapitali mijozlarning bankka ishonchini mustahkamlaydi va kreditorlarni uning moliyaviy kuchiga ishontiradi. Bank kapitali bankning har qanday holatda mijozlarning kreditga bo‘lgan talabini qondira olishiga ishontirish uchun yetarlicha katta bo‘lishi kerak.

Tijorat banklari kapital miqdori (Markaziy bank talabidan oshgan qismi) ularning o‘zi tomonidan mustaqil belgilansada, u ko‘p omillarga bog‘liq:

Birinchidan, bank uchun zarur bo‘lgan kapital miqdori uning mijozlari xususiyatlariga bog‘liq. Ya‘ni mijozlar ichida yirik kreditga muhtoj korxonalar ko‘p bo‘lishi bank kapitali miqdorining ko‘p bo‘lishini talab qiladi.

Ikkinchidan, tijorat banki kapitali miqdori uning aktiv operatsiyalariga bog‘liq. Bank operatsiyalari ko‘proq yuqori tavakkalchilik operatsiyalariga bog‘liq bo‘lsa, u holda bankning kapitali ham ko‘p bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, bank kapitali miqdori Markaziy bank yuritayotgan pul-kredit siyosati va kredit resurslari bozori rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bank kapitali bankning uzoq vaqt samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishining asosiy omili hisoblanadi. Chunki:

Birinchidan, bank kapitali «Qora kun» uchun asosiy resurs hisoblanadi, bank joriy yo'qotishlarni kapital hisobidan qoplash yo'li bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, bankni bankrotlikdan saqlab qolishi mumkin.

Ikkinchidan, bank kapital bank o'z faoliyatini keng qamrovli olib borib mablag'larni jalb qilish, resurs bazasini tashkil qilguncha uning faoliyatini asosiy manbasi hisoblanadi.

Uchinchidan, bank kapitali bank faoliyatining muhim ko'rsatkichi bo'lib, bankning obro'sini oshirib, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, kapital bankning tashkiliy jihatdan o'sishiga, yangi xizmatlar ko'rsatishga imkon beruvchi manba shaklida namoyon bo'ladi.

Bank kapitali bankning uzoq muddatdagi kelajagini, hayotiyligini va o'sishini bir maromga keltirib turuvchi regulyator hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali – bu bank tijorat faoliyatining asosi bo'lib, uning mustaqilligini ta'minlaydi va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi hamda bank risklarining salbiy oqibatlarini yengillashtiradi.

Bank kapitali bank balansining passivida joylashgan bo'lib, bank bankrot holatiga tushganda da'volarni qoplashning muhim qoplash (zaxira) fondi hamda bank operatsiyalarini rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbasi bo'lib hisoblanadi.

Bank barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarli qo'yilmalarni sug'urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bank kapitali muhim asos hisoblanadi.

Bank kapitali likvidlikning kafolatlangan manbasi bo'lib, u maksimal jalb qilish mumkin bo'lgan resurslarni aniqlaydi va kredit operatsiyalarini bajarishda maksimum qo'yish mumkin bo'lgan xatarni belgilaydi.

3.2. Bankning o'z mablag'lari (kapitali) tahlili

Banklarining o'z mablag'lari bank balansining uchinchi bo'limida aks ettiriladi. Odatda ularni bank kapitali deb ham atashadi.

Bank kapitali tarkibi quyidagilardan iboratdir:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan kapital;
- Zaxira kapitali;
- Joriy yilning sof foydasi;
- Taqsimlanmagan foyda;

Yuqoridagilarning har biri uning manbalari hisobga olingan holda bir necha elementlardan tashkil topadi 3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasining uchinchi bo‘limga qarang).

Bankning ustav kapitali asosan uning oddiy va imtiyozli aksiyalarini sotishdan kelib tushgan mablag‘lardan tashkil topadi. Qo‘shilgan kapital bank aksiyalarining real va nominal qiymatlari o‘rtasidagi farqlardan tashkil topadi.

Zaxira kapitali bank daromadi hisobidan turli riskli aktivlarni qoplash uchun tashkil etilgan jamg‘armalar, kichik korxonalarni imtiyozli kreditlash jamg‘armasi, asosiy vositalar bahosi, boshlang‘ich qiymatidan o‘sgan qismi kabilardan tashkil topadi.

Taqsimlanmagan foyda o‘tgan yilgi olingan foydaning taqsimlanmagan qismi yoki ko‘rilgan zararlar hamda joriy yilning foyda yoki zarari hisobidan tashkil topadi.

Bank tizimining barqarorligini ta‘minlash, bank kreditlari va omonatchilari manfaatlarini himoyalash, banklarning likvidiligi va to‘lov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan, dastavval bank faoliyatini boshlash uchun Markaziy bank tomonidan bank kapitalining minimal miqdoriga talablar o‘rnatilgan.

3.1-jadval

Bank ustav kapitalining minimal miqdoriga qo‘yilgan talablar

Yillar	Tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1- yanvar 1998	1,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	1,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	0,3 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1- yanvar 1999	2,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	2,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	0,3 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1- yanvar 2000	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	0,3 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1- yanvar 2002	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	1,25 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1- yanvar 2005	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1- yanvar 2008	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda
1 yanvar 2009	10,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	10,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so‘mda

1 yanvar 2010	10 ,0 mln. Yevro ekv. soʻmda	10,0 mln. Yevro ekv. soʻmda	5,0 mln. Yevro ekv. soʻmda
1 yanvar 2011	10 ,0 mln. Yevro ekv. soʻmda	10,0 mln. Yevro ekv. soʻmda	5,0 mln. Yevro ekv. soʻmda

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda Banklari va chet el kapitali ishtirokida tashkil etiladigan banklar ish boshlashlari uchun 10,0 mln. yevro ekvivalentidagi so'm mablag'lariga xususiy banklar esa 5,0 mln. yevro ekvivalentidagi so'm o'z mablag'lariga ega bo'lmog'i lozim.

Banklari kapitali ularning o'ziga «himoya yostiqchasi» vazifasini bajarilish bilan birga, bugungi kunda ular tomonidan uzoq muddatli investitsiyalar amalga oshirish va uzoq muddatli kreditlar ajratishning manbai bo'lib qoladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Respublikamiz Banklari kapitali miqdorini oshirib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2009-yil davomida Hukumat dasturi doirasida 6 ta yirik banklarning ustav kapitaliga jami 460,5 mlrd so'mlik mablag'lar yo'naltirildi.

Shu jumladan;

- 1.O'zsanoatqurilishbankka – 64,5 mlrd so'm;
- 2.Mikrokreditbankka – 72,0 mlrd so'm;
- 3.Xalq bankiga – 50,0 mlrd so'm;
- 4.Agrobankka – 50,0 mlrd so'm;
- 5.Asaka bankka – 147,1 mlrd so'm;
- 6.Qishloq qurilish bankka – 76,0 mlrd.so'm.

Banklar kapitali tahlilida asosiy e'tibor kapitalning tarkibi va dinamikasi, uning barqarorligi, yetariligi va samaradorligi masalalariga qaratilmog'i zarur.

3.2-jadval

«B» Bankining kapitali tarkibi va dinamikasi¹

(yil boshiga)

	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi	
		qoldig'i mln. so'm	Sal- mog'i %	qoldig'i mln. so'm	Sal- mog'i %	mln. so'm	Sal- moqda %
1.	Chiqarilgan imtiyozli aksiyalar (30315)	130	1,8	130	1,6	0	0

¹ «B» banki shartli ravishda olingan (hisob-raqamlar aks ettirilgan).

2.	Chiqarilgan oddiy aksiyalar (30318)	3800	51,9	4100	50,9	300	7,9
3.	Zaxira fondi (30903)	1000	13,7	1200	14,9	200	20,0
4.	Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash fondi (30904)	750	10,2	810	10,1	60	8,0
5.	Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan qismi (30908)	798	10,9	798	9,9	0	0,0
6.	Taqsimlanmagan foyda (31203)	607	8,3	705	8,7	98	16,1
7.	Sof foyda (31206)	234	3,2	315	3,9	81	34,6
	JAMI 30000	7319	100	8058	100	739	10,1

Tahlil qilinayotgan davrda «B» bankning kapitali 739,0 mln.so‘m, ya’ni 10,1 foizga o‘sgan. O‘shish asosan muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar-ni sotishdan tushgan mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan. Ular tahlil yili davomida 300,0 mln. so‘mga (7,9%) oshgan. Yil davomida kapitalning o‘sgan qismining 40,6 foizini aynan chiqarilgan oddiy aksiyalar tashkil etgan. Bank daromadlari hisobidan tashkil topadigan kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash fondining mablag‘lari tahlil davrida 750,0 mln. so‘mdan 810,0 mln. so‘mga, ya’ni 8,0 foizga oshgan. Bundan tashqari yana asosan bank daromadlari hisobidan tashkil etiladigan zaxira fondi mablag‘lari esa 200,0 mln so‘mga o‘sgan zaxira mablag‘larining o‘shishi bank faoliyatida muam-moli kreditlar, risk darajasi yuqori bo‘lgan boshqa aktivlar va valyuta deval-vatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning mavjudligini bildiradi.

Tahlil natijalari yana shu narsani yaqqol ko‘rsatmoqdagi bankda o‘tgan yillardan taqsimlanmasdan qolgan foyda miqdori joriy yilning sof foydasidan 2,5 barobardan ortiq summani tashkil etadi.

Chiqarilgan imtiyozli aksiyalar va boshlang‘ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan qismi tahlil davrida o‘zgarimasdan qolgan. Bu o‘z navbatida bank aksionerlarining umumiy yig‘ilishida 2010-yilda muomalaga imtiyozli aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror chiqarilmaganligi-dan va o‘tgan yilda asosiy vositalar qayta baholanmaganligini bildiradi.

Bank kapitalining barqarorlik darajasi tahlil qilinganda, uning tarkibida uzoq muddatga foydalanish imkoniyati bo‘lgan mablag‘lar salmog‘iga asosiy e’tibor qaratiladi. Chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan kelib tushgan mablag‘lar barqaror bo‘lgan bankning o‘z mablag‘larini tashkil eta-di. Tahlil qilinayotgan bankda joriy yil boshida barqaror o‘z mablag‘lari bank

kapitali tarkibida 52,5 foizni tashkil etgan. (130x4100/8058x100). Ushbu ko'rsatkich o'tgan yil boshiga 53,7 foizni (130x3800/7313x100) tashkil etgan. Demak, bank kapitalining barqarorlik darajasi biroz pasaygan. Bunga esa asosiy sabab bank kapitali tarkibida zaxira fondlari mablag'larining ortib borishi hisoblanadi. O'tgan yil boshiga zarixa fondi bank kapitalining 13,7 foizini (1000/7319x100) tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yil boshiga kelib qariyb 20,0 foizni (1200/8058x100) tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgani kabi bank kapitali tarkibida zaxira kapitali salmog'ining ortib borishi, bank faoliyatida yo'qotilishi mumkin bo'lgan aktivlar salmog'ining ham ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Bank kapitali tarkibida hisobot yili sof foydasi ulushining o'tgan davrlarda olingan sof foydaning taqsimlanmagan qismidan kam bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham hisobot yilida olingan daromaddan maxsus zaxiralari tashkil etish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdorining oshib borishi bilan ham izohlanadi.

Bank kapitali tahlil etishda asosiy e'tiborlardan biri uning yetarlilik darajasini kuzatishga qaratiladi. Markaziy bank tomonidan Banklari barqarorligini ta'minlash maqsadida uning kapitalining yetarlilikini belgilovchi normativ o'rnatilgan. Kapitalning yetarliliigi, umumiy kapitalning yetarliliigi (K_1), I darajali kapitalning umumiy yetarliliigi (K_3) ko'rsatkichlar orqali hisoblanadi. Umumiy kapitalning yetarliliigi quyidagicha aniqlanadi.

$$K_1 = \text{kapital} / \text{A.R.}$$

Bu yerda, A.R. – aktivlarning riskliliigi bo'yicha hisobga olinishi. $K_1=0,1$, ya'ni 10 foizdan kam bo'lmazligi lozim.

I darajali kapitalning yetarliliigi quyidagicha aniqlanadi.

$$K_2 = I \text{ darajali kapital} / \text{A.R.}, 0,05 \text{ dan kam bo'lmazligi lozim (5\%)}$$

Riskka tortilgan aktivlar miqdorining hisoblanishi va ular tahlili ushbu darslikning keyingi boblarida batafsil ko'rib o'tiladi.

I darajali kapitalning umumiy yetarliliigi quyidagicha aniqlanadi.

$K_2 = I \text{ darajali kapitalning} / \text{aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} \times 0,06$ yoki 6 foizdan kam bo'lmazligi lozim.

Umumiy kapitaldan chegirmalar quyidagilardan iborat:

- birlashmagan nobank sho'ba moliya korxonalar kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil qiluvchi ularning har qanday aksiyalari va qarz majburiyatlarini;

- birlashmagan nobank nomoliyaviy korxonalar kapitaliga investitsiyalar, jumladan, bunday korxonalar kapitalini tashkil etuvchi har qanday qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlarini;

- birlashmagan banklar kapitalining har qanday vositalariga investitsiyalar.

Kapitalning yetarliligi tahlili asosan kunlik, o'n kunlik, oylik, choraklik va yillik hisobotlar asosida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham biz «B» bank kapitali yetarliligini choraklik hisobotlar asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

3.3-jadval

«B» bank kapitalining yetarliligi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	01.01. O'tgan yil	01.04. O'tgan yil	01.07. O'tgan yil	01.10. O'tgan yil	01.01. Joriy yil
1.	Bank kapitali qoldig'i (mln.so'm)	7319	7365	7570	7810	8058
2.	I darajali kapital (mln.so'm)	5287	5325	5480	5865	5898
3.	II darajali kapital (mln.so'm)	2032	2040	2090	2145	2160
4.	Aktivlar qoldig'i (mln. so'm)	62012	63128	63212	63220	63190
5.	Aktivlarning risklilik darajasi hisobga olingan qoldig'i (mln. so'm)	17084	19870	20510	21480	22390
6.	Nomoddiy aktivlar (mln.so'm)	162	185	185	190	195
7.	Umumiy kapitalning yetarliligi (K1-koeffitsiyenti, 0,1)	0,42	0,37	0,36	0,36	0,35
8.	I-darajali kapitalning yetarliligi (K2-koeffitsiyenti,0,05)	0,31	0,26	0,26	0,26	0,26
9.	I darajali kapitalning umumiy yetarliligi (K3-koeffitsiyenti, 0,06)	0,11	0,11	0,11	0,12	0,12

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «B» Bankning umumiy kapitalining yetarliligi joriy yil boshida 0,35 da o'tgan yil boshida 0,42 koeffitsiyentlar oralig'ida tebrangan o'tgan yil davomida umumiy kapitalning yetarlilik darajasi Markaziy bank talabidan 3,5-4,2 barobargacha ko'p bo'lgan. I darajali kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari ham yil davomida 0,26 dan 0,31 gachani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ham yil davomida qo'yilgan talabdan 5-6 barobar ko'p bo'lgan. Birinchi darajali kapitalning umumiy yetarlilik koeffitsiyenti ham yil davomida talab darjasidan 2 barobar ortiq miqdorda ekanligi ko'rilmoqda.

Demak «B» Bank o'tgan yil davomida talab etilganidan ko'p miqdorda o'z kapitalining tashkil etilishini ta'minlangan.

Bank kapitali tahlili jarayonida yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi bank o'z mablag'laridan foydalanishi ko'rsatkichlariga e'tibor qaratmog'imiz

zarur. Kapitalning samaradorligi (N) ko'rsatkichi ma'lum bir sanada olingan sof foydani, ushbu sanadagi kapital qoldig'iga nisbatati bilan o'lchanadi. $N = \text{sof foyda} / \text{kapital hosil bo'lgan samaradorlik ko'rsatkichi}$ bir so'mlik kapitalga to'g'ri keladigan sof foyda miqdorini bildiradi.

3.4-jadval

«B» bank kapitalining samaradorlik ko'rsatkichlari

(yil boshiga)

	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Joriy yil	Farqi (+;-)
1.	Bank kapitali qoldig'i (mln.so'm)	7319	8058	739
2.	I darajali kapital (mln.so'm)	5287	5898	611
3.	II darajali kapital (mln.so'm)	2032	2160	128
4.	Sof foyda (mln. so'm)	234	315	81
5.	Kapitalning samaradorligi (N)	3,2	3,9	0,7
6.	I darajali kapital samaradorligi (N1)	4,4	5,9	1,5
7.	II darajali kapital samaradorligi (N2)	11,5	14,5	3

Tahlil natijalari bank kapitali samaradorligi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 0,7 punktga oshganligini e'tirof etmoqda. O'tgan yil olingan sof foydani bank kapitaliga nisbati 3,2 ni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil etgan.

O'tgan yilda har bir so'mlik kapitalga 3,2 tiyinlik sof foyda to'g'ri kelgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 3,9 tiyinni tashkil etgan. Kapital samaradorligi ko'rsatkichining o'sishiga asosiy sabab olingan sof foydani o'sishi darajasi, kapitalning o'sishi darajasidan yuqori sur'atlarni tashkil etgan. Joriy yilda bank kapitali o'tgan yilga nisbatan 10,1 foizga o'sgan bo'lsa, ushbu davrlarda olingan sof foydani o'sish sur'ati 34,7 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, tahlil etilayotgan davrda birinchi va ikkinchi darajali kapitalning samaradorlik darajasi ma'lum miqdorda oshganligi kuzatiladi.

Shunday qilib, bankning passiv operatsiyalari tahlili asosiy e'tibor ularning tarkibiy o'zgarishlari, o'sish dinamikasi va barqarorlik darajasi bilan bir qatorda, resurslar samaradorligi masalasiga ham qaratilmog'i zarurdir.

4-BOB.

TIJORAT BANKLARI MAJBURIYATLARI TAHLILI

4.1. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili

4.2. Tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi tahlili

4.3. Bank majburiyatlari tahlili

4.1. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tijorat banklari resurslari va ularning manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasi, makroiqtisodiy omil sifatida ularning likvidligini ta'minlashga va to'lov qobiliyatini mustahkamlashga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazdan turib rejalashtirish tizimida mijozlarning banklarga biriktirib qo'yilishi, banklarning esa hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirishda monopol huquqqa egaligi, ularning xarajat va daromadlari miqdorining yuqoridan belgilab berilganligi tufayli banklar moliyaviy resurslarni jalb qilish, bank xizmatlari hajmini kengaytirish va ularni takomillashtirib borishdan manfaatdor emas edi.

O'zbekistonda bozor mexanizmlarining tobora keng joriy etilishi sababli bank resurslarini jalb qilishni markazdan rejalashtirish sharoitida qo'llanilgan reljali usullar amalda o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Natijada, tijorat banklarida moliyaviy jihatdan barqaror va arzon resurs bazasini yaratish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital esa bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi.

Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil etib, ular 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

Tijorat banklarining ikkinchi yirik mablag‘lari manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Bank kapitalini boshqarishda asosiy e‘tibor ularning barqaror moliyaviy mablag‘lar hisobidan shakllanishiga va yetarliligiga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalarning to‘rtta shaklidan keng foydalaniladi:

a) banklarning foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko‘paytirishga ajratmalar;

b) depozit operatsiyalar;

v) yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar;

g) qimmatli qog‘ozlar, pul biletlar va tangalarni muomalaga chiqarish (emissiya).

Tijorat banklarning foydasidan ustav kapitaliga, zaxira fondiga, imtiyozli kreditlash fondiga, moddiy rag‘batlantirish fondi va boshqa fondlarga ajratmalar amalga oshiriladi. Banklarning ushbu fondlariga ajratmalarining miqdori va muddati bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining qaroriga asosan belgilanadi.

Bankning fondlari ichida asosiy o‘rinni ustav kapitali egallaydi. Tijorat banklarining ustav kapitali bank asosiy kapitali tarkibidagi maxsus zaxiralar, taqsimlanmagan foyda va emission daromadlarga qaraganda muddati va manbai jihatidan barqaror hisoblanadi. Tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori bankning dastlabki faoliyatini boshlagan davridayoq shakllantiriladi.

Tijorat banklari kapitalining minimal miqdori bank aktiv operatsiyalari hajmining ortishi va iqtisodiyotda yuz berayotgan inflyatsiyaning salbiy ta‘siri tufayli oshib boradi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitalining yetarliligini hisoblashda har xil metodikalaridan foydalanadi. Bank kapitali yetarliligining u yoki bu metodika bilan hisoblanishi uning yetarliligiga qo‘yilgan talablarning bajarilishi jihatidan har xil natijalarni beradi.

Depozit operatsiyalar – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir¹.

Yaqin kunlarga, banklar tomonidan depozit operatsiyalariga yetarli ravishda e‘tibor qaratilmas edi. Buning asosiy sabablari:

– birinchidan, bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojning taklifdan birmuncha yuqoriligi;

¹O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to‘plami –T.: «O‘zbekiston» 2003. 86-bet

- ikkinchidan, inflyatsiya darajasining nisbatan balandligi;
- uchinchidan, arzon moliyaviy resurslarning mavjudligidir.

Ushbu holat tijorat banklarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ortiqcha qiyinchiliklarsiz qondirish bilan birga, ularga yetarli miqdorda o‘z foydasini shakllantirish imkoniyatini ham berdi. Ammo aholining banklarga omonatlar qo‘yish istagining pasayib ketganligi, pul mablag‘larini kredit muassasalari tizimidan tashqarida aylanishini kamaytirish lozimligi, keyingi yillarda inflyatsiya darajasining pasayishi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkalarining muntazam ravishda kamayib borishi tijorat banklaridan depozit operatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirishni talab etmoqda.

Tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma‘lum vaqtgacha saqlanadigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Bank amaliyotida qo‘llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘lari tushuniladi¹.

Rossiyalik iqtisodchi olim L.S.Padalkinaning fikricha depozit tarkibiga faqat muddatsiz depozitlar kirad.

E.M.Rode depozitlar o‘z ichiga, jamg‘arma sertifikatlardan tashqari – barcha muddatli va muddatsiz omonatlarni oladi, deb ta‘kidlaydi.

Depozit mijozlarning bankka vaqtincha foydalanish uchun bergan mablag‘lari bo‘yicha bank va mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni aks ettiradi.

Depozitlarning guruhlanishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim manbalarda ular asosan, uchta guruhga ajratilsa, ba‘zi adabiyotlarda to‘rtta guruhga ajralishi ta‘kidlanadi, Markaziy bankning depozitlar to‘g‘risidagi nizomida esa beshta guruhga bo‘lingan.

Bizning nazarimizda, banklarning depozit operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va muddatiga qarab to‘rtta guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Ushbu guruhga talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlar, muddatli depozitlar, jamg‘arma depozit (sertifikat)lar va boshqa depozitlar kiradi.

Depozit mablag‘larni moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror va nobarqaror mablag‘larga hamda to‘langanligi jihatidan nisbatan qimmat va nisbatan arzon depozit mablag‘larga ajratish maqsadga muvofiq.

¹M . A. «

Moliyaviy jihatdan barqaror mablag‘lar tijorat banklarining asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda vujudga keladigan zararlardan himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Ushbu mablag‘larga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, banklarning ustav kapitalini, joriy yil va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini, joriy yilning sof foydasi hamda muddatli va jamg‘arma (sertifikat) depozitlarini kiritishimiz mumkin. Muddatli va jamg‘arma (sertifikat) depozitlar banklar uchun muddati jihatidan ham barqaror moliyaviy manba hisoblanadi. Zero banklar, ushbu mablag‘larni likvidsizlikka tushib qolish muammosini o‘ylamasdan ma’lum muddatga kredit resurslari sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Moliyaviy jihatdan nobarqaror mablag‘lar turkumiga tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibidagi devalvatsiya zaxirasini kiritishimiz lozim. Chunki ushbu mablag‘lar milliy valyutaning kursi xorijiy valyutaga nisbatan o‘zgarishi natijasida vujudga kelib, bankning real mablag‘larini ko‘paytirmaydi. Shuningdek, tijorat banklari mazkur zaxiradan resurs sifatida foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Tijorat banklari resurslarining muddati jihatidan nobarqaror mablag‘lari qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqaqidagi mablag‘larni kiritishimiz mumkin. Banklar mazkur turkumga kiruvchi mablag‘lardan kredit resursi sifatida foydalanganda ularning likvidsizlik holatiga tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Chunki mijoz ushbu hisobvaraqaqidagi mablag‘larni bank kutmagan paytda qisman yoki to‘lig‘icha ko‘chirish haqida bankka topshiriq berishi yoki naqd pul shaklda berishni talab qilish huquqiga ega. Shu jihatdan, ushbu hisobvaraqlarda saqlanadigan mablag‘lar muddat jihatidan nisbatan nobarqaror resurslar turkumiga kiritiladi. Bank tomonidan mazkur mablag‘lar kredit resurslari sifatida ishlatilishi uni kutilmagan paytda likvidsizlik holatiga olib kelishiga sabab bo‘ladi.

Mablag‘larni tashkil topish manbalari jihatidan qimmatli yoki arzon mablag‘lar guruhiga ajratish mumkin. Bu yerda asosiy e‘tibor depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag‘larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag‘lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon resurs mablag‘lari turkumiga esa o‘z-o‘zidan aniqki nisbatan nobarqaror mablag‘lar kiradi.

Tijorat banklarining talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqaqidagi depozitlarga korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqaqidagi saqlanadigan pul mablag‘lari kiradi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqaqidagi depozitlarga bank nisbatan kichik miqdorda, ayrim hollarda esa umuman foiz to‘lovlarini to‘lamaydi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu depozit transaksion va chekli (chekoviy) depozit deb ham yuritiladi.

Muddatli depozitlarga qo'yiladigan mablag'larni qaytarib olish muddati oldindan kelishiladi. Ushbu depozit turining nomidan ham ma'lumki, depozit mablag'lar nisbatan uzoqroq muddatga qo'yilib ularning muddati kamida bir oyni tashkil etishi lozim. O'z navbatida banklar, ushbu depozit turi bo'yicha nisbatan yuqori foiz to'lovlarini to'laydi. Bank mazkur depozitga muddati tugaguncha saqlash uchun va oldindan ogohlantirish yo'li bilan muddati tugamasdan qaytarib berish haqida omonatchi bilan depozit shartnomasini tuzishi mumkin. Birinchi holatdagi depozit turida, bank depozit shartnomasida kelishilgan muddat tugaguncha omonatchining mablag'idan erkin foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Muddati tugagandan keyin omonatchi tomonidan ushbu mablag' talab qilib olinmasa, kelgusida ushbu hisobvaraqa talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqa tarzida ishlaydi. Odatda, ushbu depozitlar bo'yicha muddatlar har xil bo'lib, mablag'lar qancha ko'p saqlansa, ularning foiz to'lovlari shunchalik yuqori bo'ladi. Albatta, bu yerda pul bozoridagi resurslarning taklifi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish hisob stavkasi miqdori asosiy rol o'ynaydi. Shunga asosan, tijorat banklari depozit siyosatini o'rnatadi.

Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablag'ini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz to'lovlarini to'lamaslik huquqiga ega bo'ladi.

Jismoniy shaxslar o'rtasida omonatlarining eng rivojlangan turi bu jamg'arma depozitlar hisoblanadi. Jamg'armaning ushbu turida bank omonatchiga uning mablag'ining harakati, qoldig'i va unga hisoblangan foizlar haqidagi ma'lumotni aks etiruvchi jamg'arma daftarchasini beradi. Jamg'arma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan depozit sertifikatlarini ko'rsatish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklari amaliyotida ham depozit sertifikatlari joriy etilib bank resurslarining manbalarini shakllantirishda foydalanilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2006-yil 1-yanvar holatiga jami 21,3 mlrd so'm yoki jami aktivlar tarkibida 0,3 foizni tashkil etgan. Depozit sertifikatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular bankning haqiqatda ham ma'lum miqdordagi mablag'ni bankka qo'yanligi haqida mijozga bergan yozma tasdiqnomasini anglatadi. Eng asosiysi depozit sertifikatlari garov sifatida banklar tomonidan qabul qilinadi. Depozit sertifikatlari bo'yicha foizlar miqdori depozit summasining hajmi, muddati, shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasiga bog'liq.

Boshqa depozitlar guruhiga banklarning yuqorida qayd etilgan depozitlaridan tashqari mijozlarning akkreditiv bo'yicha talab qilib olinguncha

bo'lgan davrdan foizsiz depozitlar, shuningdek, amaldagi qoidalarga muvofiq turli ishonchli mablag'lar va shunga o'xshash boshqa moliyaviy operatsiyalar va majburiyatlar bo'yicha depozit hisobvaraqlarini ochishi mumkin.

Yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar. Tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyoji depozit operatsiyalari natijasida to'liq qondirilmaydi ular mamlakat yoki xalqaro moliya bozoriga, Markaziy bankka va banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida moliya bozori va banklararo pul resurslari bozorlari orqali banklarning katta miqdorda moliyaviy resurslarni jalb etishi amaliyotda o'zining ijobiy natijasini topgan. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining resurslari tarkibida qimmatli qog'ozlarning ulushi 20-25 foizni tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarida ushbu ko'rsatkich 2003–2004-yillarda 10–12 foizni tashkil etgan, O'zbekiston tijorat banklarida shu davrda 0,3-1,0 foizdan iborat bo'lgan.

Tijorat banklarining qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini Markaziy bankning krediti orqali qondirishida qayta moliyalash stavkasining miqdori bevosita ta'sir etadi. Chunki Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi uning pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy usullaridan biri bo'lib, uning darajasining past yoki yuqori bo'lishi muomaladagi tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq. Agar muomalada pul massasining miqdori tovar massasiga nisbatan mo'ljaldagidan oshadigan bo'lsa, unday holda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini oshirish orqali tijorat banklarining markazlashgan kredit resurslarini olishga bo'lgan manfaatini cheklab qo'yadi va aksincha.

Demak, tijorat banklari doimo ham Markaziy bankning kreditlarini olishdan iqtisodiy manfaat ko'rmaydi. Chunki Markaziy bank hisob stavkasini banklararo pul resurslari bozorining ishtirokchilari kabi resurslarni foyda olish yoki vaqtinchalik bo'sh bo'lgani uchun tijorat banklariga taklif etmaydi.

Uning tijorat banklariga kredit resurslarni taklif qilish yoki qayta moliyalash stavkasining past yoki yuqori darajada o'rnatishidan asosiy maqsad milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Lekin, shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati milliy valyutaning barqarorligini oshirishdagi ahamiyati juda ham zaif bo'lib qolmoqda.

Banklararo pul resurslari bozori moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblanib, tijorat banklariga vaqtincha bo'sh mablag'laridan samarali foydalanish va qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan qondirishga imkoniyat yaratadi. Banklararo pul resurslari bozorida qisqa muddatli kredit resurslar sifatida ishtirok etayotgan mablag'lar butun bank tizimidagi mavjud bo'sh mablag'lar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki ti-

jorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar birinchisidan ikkinchisiga o‘tish orqali ularning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘ining umumiy hajmi o‘zgarishsiz qoladi.

4.2. Tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi tahlili

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit siyosatining sifat darajasini tahlil qilish uning tarkibi va dinamikasini baholashni taqozo qiladi.

4.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi

(foizda)

	Depozitlarning turlari	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o‘zgarishi, punkt
1	Transaksiyon depozitlar	55,4	50,0	47,6	-7,8
2	Muddatli depozitlar	41,4	47,4	51,5	10,1
3	Jamg‘arma depozitlari	3,2	2,6	0,9	-2,3
Depozitlar-jami		100,0	100,0	100,0	X

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, transaksiyon depozitlarning bank depozitlari umumiy hajmidagi salmog‘ining pasayish tendensiyasi mavjud. Tahlil qilingan davr mobaynida ularning salmog‘ini 7,8 punktga pasayishi yuz berdi. Bu pasayish muddatli depozitlar salmog‘ining oshishi hisobiga yuz berdi. Bu holatni ijobiy baholash lozim, chunki u bankning xorijiy valyutadagi resurs bazasini mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Endi biz aholining muddatli omonatlarini jalb qilish amaliyotini tahlil qilamiz.

4.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit bazasi tarkibida jamg‘arma depozitlari salmog‘ining o‘zgarishi

(foizda)

Ko‘rsatkichlar	2009 y	2010 y.	2011 y	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o‘zgarishi
Depozitlar jami	100,0	100,0	100,0	X
Shu jumladan: -jamg‘arma depozitlari	5,6	5,6	5,8	+0,2

Jamg'arma depozitlarining asosiy qismi, odatda, aholining muddatli omonatlaridan iborat bo'ladi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarining depozit bazasi tarkibida jamg'arma depozitlarning salmog'i juda kichik va u tahlil qilingan davr mobaynida sezilarsiz darajada o'zgargan. Holbuki, aholining muddatli omonatlari tijorat banklari uchun muhim resurs manbai hisoblanadi. Fikrimizning isboti tariqasida bir tarixiy voqeaga murojaat qilishimiz mumkin: 80-yillarning boshida bir guruh AQSh tijorat banklarining rahbarlari FZTga aholining muddatli omonatlari bo'yicha majburiy zaxira stavkalarini pasaytirishni so'rab murojaat qildilar. Chunki, ular Yaponiya banklarining xalqaro bozorlardagi yuqori darajadagi raqobatbardoshligining asosiy sababi yapon banklari resurslari tarkibida aholi omonatlarining yuqori salmoqqa ega ekanligi, deb hisoblardilar. FZT bu murojaatni to'g'ri qabul qildi va aholining muddatli omonatlariga nisbatan eng past stavka belgiladi (3%).

Endi biz mamlakatimizning ikki yirik tijorat banki misolida depozitlarning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz.

4.3-jadval

«A» Bank depozitlarining tarkibi va dinamikasi

(foizda)

Depozitlarning turi	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o'zgarishi, punkt
1. Transaksion depozitlar	93,9	80,2	77,2	-16,7
2. Muddatli depozitlar	5,3	15,9	15,6	+10,3
3. Jamg'arma depozitlari	0,8	3,9	7,2	+6,4
Depozitlar-jami	100,0	100,0	100,0	X

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, «A» bankda tahlil qilingan davr mobaynida transaksion depozitlarning depozit bazasi umumiy hajmidagi salmog'ining sezilarli darajada pasayishi yuz berdi. Bu esa ijobiy holat hisoblanadi. Chunki transaksion depozitlar salmog'ining pasayishi muddatli va jamg'arma depozitlarining salmog'ining sezilarli darajada o'sishi hisobiga yuz bergan. Mazkur holatlar, pirovard natijada, bankning resurslar bazasini mustahkamlanayotganligidan, bank depozit siyosatining samaradorligini oshirish yuzasidan sezilarli tadbirlarni amalga oshirilayotganligidan dalolat

beradi. Ayniqsa, tahlil qilingan davr mobaynida jamg'arma depozitlarining depozitlar umumiy hajmidagi salmog'ini 7,2 foizga yetganligi va tahlil qilingan davr mobaynida 6,4 punktga o'sganligi ijobiy holat hisoblanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, jamg'arma depozitlarining asosiy qismini tashkil etuvchi aholining muddatli omonatlari arzon va barqaror resurs manbai hisoblanadi; ikkinchidan, respublikamizda aholining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari inflyatsion jarayonlar uchun jiddiy manba hisoblanadi. Rivojlangan industrial mamlakatlar, xususan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Avstriya mamlakatlarida aholi to'lovlarining asosiy qismi naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mazkur mamlakatlar amaliyotida naqd pullar inflyatsion jarayonlar uchun manba bo'lib hisoblanmaydi.

Respublikamizning boshqa yirik banklarida ham jamg'arma depozitlariga xos bo'lgan, yuqorida qayd qilingan holatni kuzatish mumkin.

Tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini tavsiflovchi muhim omillardan biri depozitlarning bank passivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida depozitlar tijorat banklari balansining passivida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Ikkinchi o'rinda depozitsiz resurs manbalari turadi, uchinchi o'rinni esa, bank kapitali egallaydi. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida esa, yirik tijorat banklari balansining passivida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni depozitsiz resurs manbalari, ikkinchi o'rinni bank kapitali, uchinchi o'rinni esa depozitlar egallaydi.

Biz quyida «A» bank depozitlarining passivlar hajmidagi salmog'ini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, «A» bankda, tahlil qilingan davr mobaynida depozitlarning passivlar umumiy hajmidagi salmog'i yuqori darajada pasaygan. Bu esa, albatta, salbiy holat hisoblanadi. Chunki, birinchidan, depozitsiz resurs manbalari depozitlarga nisbatan bahosi sezilarli darajada yuqori bo'lgan resurs manbalari hisoblanadi; ikkinchidan, bank kapitali moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi.

2009–2011-yillar mobaynida «A» bankda depozitlar salmog'i ko'rsatkichining keskin pasayib ketishida banklararo kreditlar va kapital salmog'ining yuqori sur'atlarda o'sishi asosiy rolni o'ynadi. Masalan, 2009–2011-yillar mobaynida banklararo kreditlarning passivlarning umumiy hajmidagi salmog'ining o'sishi 960,9 foizni tashkil qildi. Bunday darajada yuqori o'sish bankning xorijiy banklarning va xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining kredit liniyalarini o'zlashtirishdagi faolligi bilan izohlanadi.

«A» Bank depozitlarining passivlar hajmidagi salmog‘i

(foizda)

Depozitlarning turi	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o‘zgarishi, punkt
Passivlar-jami	100,0	100,0	100,0	X
Shu jumladan: – depozitlar	43,2	14,8	12,2	-31,0

Kapitalning o‘shishi esa, tahlil qilingan davr mobaynida 418,3 foizni tashkil qildi. Tijorat banklarining kapital bazasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatayaptiki, respublikamizdagi yirik tijorat banklarining kapitali, asosan, zaxira kapitalining o‘shishi hisobiga ta‘minlanmoqda. Zaxira kapitalining yuqori sur‘atlarda o‘shishi esa, o‘z navbatida, devalvatsiya zaxirasining o‘shishi hisobiga ta‘minlanmoqda.

Rivojlangan industrial davlatlar bank amaliyotida kapitalning bank passivlari umumiy hajmidagi salmog‘ining o‘rtacha darajasi 5-6 foizni tashkil etadi. Chunki kapital tijorat banki faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi. Banklararo kreditlarning foiz stavkasi depozitlarning foiz stavkasiga nisbatan yuqori bo‘lganligi sababli, ular ham tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur mamlakatlarning bank amaliyotida muddatli depozitlar va aholining muddatli omonatlarini keng ko‘lamda jalb qilish amaliyotiga katta e‘tibor beriladi. Bu borada, ayniqsa, Yaponiya tijorat banklarining tajribasi katta amaliy ahamiyatga egadir. Buning boisi shundaki, Yaponiya tijorat banklari balansining passivida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni aholining muddatli omonatlari egallaydi.

«B» misolida depozitlarning sifat ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, ularning passivlar umumiy hajmidagi salmog‘ini tahlil qilamiz.

«B» bankda 2009–2011-yillar mobaynida transaksion depozitlarning umumiy hajmidagi salmog‘ini sezilarli darajada pasayishi yuz berdi. Ushbu pasayish, asosan, muddatli depozitlarning umumiy hajmidagi salmog‘ini yuqori sur‘atlarda o‘shishi hisobiga yuz berdi.

4.5-jadval

«B» Bank depozitlarining tarkibi va dinamikasi

(foizda)

Depozitlarning turi	2009 y.	2009 y.	2011 y.	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o'zgarishi punkti
1. Transaksion Depozitlar	86,0	83,4	72,5	-13,5
2. Muddatli depozitlar	6,0	16,4	25,9	+19,9
3. Jamg'arma depozitlari	8,0	0,2	1,6	-6,4
Depozitlar-jami	100,0	100,0	100,0	X

Yuqorida qayd etilgan holatlar mazkur bankning resurs bazasini mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Ushbu bankning mijozlari tarkibida yirik sanoat korxonalarining mavjudligi unga korporativ muddatli depozitlarni keng ko'lamda jalb qilish imkonini beradi. Rivojlangan xorijiy banklarning bank amaliyotida ham mazkur holatlarni ko'plab uchratish mumkin. Bunday holat, ayniqsa, ulgurji banklar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tahlil natijalaridan shu narsa ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida bankning depozit bazasi tarkibida jamg'arma depozitlarining salmog'i sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, bankning aholining muddatli omonatlarini jalb qilish bilan bog'liq faoliyatida sezilarli kamchiliklarning mavjudligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizdagi yirik tijorat banklarining mijozlarini sezilarli qismini to'lovga qobillik darajasining pastligi, asosan, ularning pul oqimining zaifligi bilan izohlanadi. Pul oqimining zaifligi mijozning mutlaq likvidlilik koefitsiyenti orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Mijozning pul oqimini zaifligi, o'z navbatida, unda ortiqcha pul mablag'larini yuzaga kelmasligidan dalolat beradi. Bu esa, tijorat banklari tomonidan depozit siyosatini amaliyotga tadbir qo'yishda hisobga olinadi.

Endi biz «B» bank depozitlarining bank passivlari umumiy hajmidagi salmog'ini o'zgarishini baholaymiz.

4.6-jadval

«B» Bank depozitlarining pasivlar hajmidagi salmog'i

(foizda)

Depozitlarning turi	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2011-yilda 2009-yilga nisbatan o'zgarishi, punkt
Passivlar-jami	100,0	100,0	100,0	X
Shu jumladan: – depozitlar	15,8	21,5	18,4	+2,6

Mazkur bankda, tahlil qilingan davr mobaynida, depozitlarning passivlarning umumiy hajmidagi salmog'ini 2,6 punktga oshganligi ijobiy holat hisoblanadi. Chunki depozitli manbalar boshqa resurs manbalariga nisbatan arzon va barqaror bo'lgan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ushbu o'sish, asosan, muddatli depozitlar summasining yuqori sur'atlarda o'sishi hisobiga ta'minlangan. Chunonchi, 2011-yilda muddatli depozitlarning o'sishi 2009-yilga nisbatan 11,1 martani tashkil qildi.

Bankning depozitlarga muqobil bo'lgan resurs manbalarining tahlil qilingan davr mobaynida o'zgarishi quyidagicha bo'ldi: 2011-yilda banklararo kreditlar summasining 2009-yilga nisbatan o'sishi 34,8 foizni tashkil qildi. Bu esa, sezilarli darajadagi o'sish hisoblanadi.

«B» bank hukumatimizning iqtisodiy siyosatini hayotga tadbiq etishda muhim rol o'ynayotgan yirik tijorat banklaridan biri hisoblanadi. Bankning bu mavqei uning depozit-ssuda operatsiyalarining mohiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur ta'sir bankning kreditlari hajmida hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlarning salmog'ini yuqori ekanligida va resurslarning umumiy hajmida markazlashgan resurslarning salmog'ini yuqori ekanligida namoyon bo'ladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tijorat banklarining resurs bazasi hajmida markazlashgan resurslarning salmog'i juda kichik. Chunki rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida Markaziy bankning kreditlaridan tijorat banklarining faoliyatida doimiy moliyalashtirish manbai sifatida foydalanilmaydi. Markaziy bankning kreditlaridan, odatda, tijorat banklarining faoliyatida yuzaga keladigan qisqa muddatli pul mablag'larining yetishmasligini qoplash maqsadida foydalaniladi. Shuning uchun ham markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlarning asosiy qismi overdraft kreditlaridan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida esa, iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini kreditlash uchun zarur bo'lgan resurslar tijorat banklarida mavjud emas. Shuning uchun ham iqtisodiyotning ustivor tarmoqlariga xizmat ko'rsatayotgan mamlakatimizning yirik tijorat banklarining balansida markazlashgan kreditlarning salmog'i yuqori hisoblanadi.

Biz yuqorida yirik tijorat banklarining depozit siyosatining holatini tahlil qildik. Endi kichik xususiy tijorat banklarining depozit siyosatiga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Respublikamizning kichik xususiy banklarining asosiy qismida transaktsion depozitlarning depozit bazasi hajmidagi salmog'i yuqoridir. Masalan, 2009-yilning 1-yanvar holatiga, bu ko'rsatkich «O'ktambank»da 56,8 foizni, «Turkistonbank»da 92,8 foizni tashkil qildi.

Shunisi xarakterliki, kichik xususiy tijorat banklarida muddatli depozitlarning depozitlar umumiy hajmidagi salmog'i juda kichikligicha qolmoq-

da. Masalan, bu ko'rsatkichning 2009-yilning 1-yanvar holatidagi darajasi «O'ktambank»da 3,5 foizni tashkil qildi.

Kichik xususiy banklarning ayrimlarida aholining muddatli omonatlarini jalb qilish borasida sezilarli ishlar olib borilmoqda. Masalan, «Kapitalbank»da aholining muddatli omonatlarining depozitlarning umumiy hajmidagi salmog'i, 2009-yilning 1-yanvar holatiga, 63,2 foizni tashkil qildi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizning yirik tijorat banklarida depozit siyosatini amalga oshirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda, ularning depozit siyosatini sezilarli kamchiliklardan xoli emasligi tahlil natijalaridan ko'rinib turibdi.

4.3. Bank majburiyatlari tahlili

Avvalambor, shuni yana bir bor eslatib o'tishni lozim topdikki, bank resurslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari – passiv operatsiyalar deyiladi.

Passiv operatsiyalar bank aylanmasiga chetdan mablag'lar jalb etish va o'z mablag'larini tashkil etish bilan bog'liq operatsiyalardan iboratdir. Bank resurslari uning majburiyatlari va o'zining kapitalidan tashkil topadi.

Bank faoliyatining yana bir asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning resurslari asosan chetdan jalb etilgan majburiyatlaridan tashkil topadi.

4.7-jadval

«A» Bankning chetdan jalb etilgan va o'z mablag'larini tarkibi¹

(yil boshiga)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi	
		Summa mln so'm	Salmog'i %	Summa mln so'm	Salmog'i %	Summada mln so'm	Salmog'ida %
1.	O'z mablag'larini	3910	8,8	4100	9,1	190	4,9
2.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar	40510	91,2	41000	90,9	490	1,5
3.	JAMI:	44420	100	45100	100,0	680	

¹ «A» tijorat banki shartli ravishda olingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «A» bank passivining asosiy qismi, 1-yanvar o'tgan yil holatiga 40510 mln so'm, ya'ni 91,2 foizi joriy yil yanvar holatiga 41000 mln so'm yoki 90,9 foizi chetdan jalb etilgan mablag'lar qolgan qismi esa (8,9% va 9,1%) o'z mablag'lari hisobiga tashkil etilgan. Tahlil etilayotgan davrda o'z mablag'lari 1900 mln so'm, ya'ni 4,9 foizga, chetdan jalb qilingan mablag'lar esa 490,0 mln. so'm, ya'ni 1,2 foizga o'sgan.

Bank majburiyatlari ularning o'ziga xos-xususiyatlari, manbalari va mudatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar;
- jamg'arma depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- boshqa banklarning hisobraqamlari;
- olingan qisqa muddatli kreditlar;
- olingan uzoq muddatli kreditlar;
- mijozlarning boshqa depozitlari.

Ushbu guruhlariga hisobvaraqlar, ularning manbalari nuqtayi nazaridan yana bir necha hisobraqamlardan tashkil topadi (3– ilovaga qarang).

Shuning uchun ham har bir hisobvara qoldiqlari alohida tahlil etilishi lozim bo'lgan taqdirda ularning tarkibi ushbu hisobvara q tarkibiga kiruvchi hisobraqamlar qoldiqlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bank majburiyatlarini tahlil etishda asosiy e'tibor ularning tarkibi, dinamikasi va barqarorlik darajasiga qaratiladi.

4.8-jadval

«A» Bankning chetdan jalb etilgan mablag'lari tarkibi va dinamikasi

(yil boshiga)

№	Balans hisobvarag'i	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi	
			Qoldig'i mln. so'm.	Salmog'i %	Qoldig'i mln.so'm.	Salmog'i %	Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan	
							Miqdori (+,-)	Salmog'da %
1.	20200	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	6100	15,1	6100	14,9	-	-

2.	20400	Jamg'arma depozitlar	1140	2,8	1000	2,4	-140	-12,3
3.	20600	Muddatli depozitlar	7900	19,5	7700	18,8	200	-2,5
4.	21000	Boshqa banklarning hisobraqamlari	4400	10,5	4100	10,0	-300	-6,8
5.	21600	Olingan qisqa muddatli kreditlar	3600	8,9	3900	9,5	300	8,3
6.	22000	Olingan uzoq muddatli kreditlar	15100	37,3	14600	35,6	-500	-3,3
7.	22600-29800	Mijozlarning boshqa depozitlari	2270	5,5	3600	8,8	1330	58,6
		JAMI:	40510	100,0	41000	100,0	490	1,2

Yuqoridagi ma'lumotlarga qaraganda bankning talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlari miqdori tahlil qilinayotgan davrda o'zgarishsiz qolgan. Lekin jamg'arma depozitlari miqdori 140 mln.so'm, ya'ni 12,3 foizga, muddatli depozitlar esa 200 mln so'm, ya'ni 2,5 foizga kamayib ketgan. Shu bilan birga, boshqa banklarning hisobraqamlaridagi mablag'lar 300 mln so'm 6,8 foizga va olingan uzoq muddatli kreditlar ham 500 mln so'm 3,3 foizga kamayganligi kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda mijozlarning boshqa depozitlari miqdori 1330 mln so'm, ya'ni 58,6 foizga o'sgan.

Bankning jamg'arma va muddatli depozitlarining kamayib ketishi, uning depozit siyosatida kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Jamg'arma va muddatli depozitlar bank uchun eng barqaror resurslardan hisoblanadi. Ularning barcha depozitlar hajmida salmog'ining qisqarishi bank depozit bazasining barqarorlik darajasining pasayib borishidan dalolat beradi. Bank tomonidan jamg'arma va muddatli depozitlarni jalb etish borasida muhim chora va tadbirlar belgilanishni talab etiladi. Boshqa banklar hisobraqamlarida pul mablag'larining kamayishi, ushbu bankning boshqa banklar bilan tegishli munosabatlarining qisqarib borishini bildiradi.

Olingan uzoq muddatli kreditlar salmog'ining kamayishi ularning o'z muddatlarida qaytarilganligini bildiradi. Lekin bank uning likvidligini ta'minlash, oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda Markaziy bank va boshqa Banklarning uzoq muddatli kreditlariga doimo ehtiyoj sezadi.

Talab qilib olinadigan depozit mablag'larining o'zgarishsizligi ko'p hollarda uning mijozlari tarkibi va ular faoliyatida sezilarli darjada rivojlanish

bo'lmaganligini bildiradi. Bank o'zining mijozlari tarkibini son va sifat jihatidan yaxshilab borishiga e'tibor qaratmog'i lozim bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan davrda bankning mijozlar boshqa depozitlari miqdorining 58,6 foizga oshganligi kuzatilgan. Uning sabablarini aniqlash uchun bank balansida 22600 – mijozlarning boshqa depozitlari, 22800 – forvard, opsiya, fyuchers, svop operatsiyalarida realizatsiya qilinmagan zararlar, 23200-kliring transaksionalari, 23400– hukumat hisobraqamlari daromad va boshqa tushumlari, 23600-bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar, 29800-boshqa majburiyatlar tarkibi o'rganilmog'i lozim bo'ladi.

Biz tahlil qilayotgan bankda mijozlarning boshqa depozitlari mablag'alarining o'sishi asosan 22618 – jismoniy shaxslar plastik kartochkalar bo'yicha majburiyat, 22600 – korporativ plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar, 23218 – Moliya Vazirligi Fondidan ajratilgan maqsadli mablag'lar, 23220 – Moliya Vazirligi maxsus Fondidan olingan mablag'alar, 23222 – Moliya Vazirligining maqsadli mablag'lari hisobiga tashkil topgan. Bu holat hisobot davrida plastik kartochkalar muammosi yo'lga qo'yilganligi va bank mijozlari orasida Moliya Vazirligi qoshida tashkil etilgan qishloq xo'jaligini moliyalashtirishi fondi mablag'laridan foydalanuvchi paxta va g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining ko'payganligini bildiradi.

Bank majburiyatlari tarkibida olingan qisqa muddatli kreditlarning o'sishi, asosan bankning joriy likvidligi holatini yaxshilashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, bank keyingi yil uchun o'zining depozit siyosatini ishlab chiqishda mijozlari tarkibini barqarorlashtirishga, jamg'arma va muddatli depozitlar jozibadorligini oshirishga hamda uzoq muddat foydalanishi mumkin bo'lgan muomalaga chiqariladigan obligatsiya va depozit sertifikatlarining jozibadorligini oshirishga e'tibor qaratilmog'i lozim.

Bank majburiyatlarini tahlil qilishda ularning tarkibi, dinamikasi va barqarorlik darajasini o'rganish bilan birga, majburiyatlar samaradorligi tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda majburiyatlar samaradorligi faoliyat natijasida olingan sof foydaning majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkich ko'p hollarda majburiyatlar rentabelligi deb ham ataladi. Bank majburiyatlaridan daromad olish maqsadida daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladi. Shuning uchun ham biz majburiyatlar samaradorligini olingan foizli sof foyda (foizli daromadlar-foizli xarajatlar)ning majburiyatlar summasiga nisbatini olishni maqsadga muvofiq deb topdik. Shunday ekan, majburiyatlar samaradorligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$Sm = \text{foizli sof foyda} / \text{chetdan jalb etilgan mablag'lar} \times 100\%$$

4.9-jadval

«A» Bankning chetdan jalb etilgan mablag'lari samaradorligi

(yil boshiga)

	Ko'rsatkichlari	O'tgan yil	Joriy yil	Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	
				summa (mln. so'm)	Foizda %
1.	Foizli daromadlar (mln. so'm)	6880	7200	320	4,7
2.	Foizli xarajatlar (mln.so'm)	5630	5840	210	3,7
3.	Foizli sof foyda (mln.so'm)	1250	1360	110	8,8
4.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar (mln.so'm)	40510	41000	490	1,2
5.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar samaradorligi(%)	3,1	3,3	0,2	6,5

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan «A» Bank majburiyatlari samaradorligi ko'rsatkichi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 0,2 punktga, ya'ni 6,5 foizga o'sgan. Ushbu o'sish foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sishi (o'sish mos ravishda 4,7 va 3,7 foizni tashkil etgan) evaziga va majburiyatlarning o'sish darajasi ham sof foizli daromadlar (1,2 va 8,8 foiz) o'sishdan ancha kam ekanligi evaziga erishilgan.

Bank majburiyatlari tahlili oldiga qo'yilgan aniq maqsadlarga muvofiq kundalik, o'n kunlik, oylik, choraklik bank balansiga va hattoki bankning kun davomidagi majburiyatlari ular hisobi olib boriladigan hisobraqamlar aylanmasi ma'lumotlariga asoslangan ravishda amalga oshirilishi mumkin.

5-BOB.

TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARI VA KREDIT PORTFELI TAHLILI

- 5. 1. Kreditning mohiyati, ahamiyati va turlari**
- 5. 2. Mijozlarning kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash usullari**
- 5. 3. Tijorat banklari kreditlarining umumiy tahlili**
- 5. 4. Bank kreditlarining ta'minlanganligi tahlili**
- 5. 5. Kredit hajmi va uning aylanishi tahlili**

5.1. Kreditning mohiyati, ahamiyati va turlari

Kredit – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kreditning mavjudligi takror ishlab chiqarish jaryonida pul mablag'larining (kapitalning) aylanishi bilan bog'liq. Takror ishlab chiqarish jaryonining biror joyida vaqtincha bo'shab qolgan mablag'lar, takror ishlab chiqarishning boshqa biror joyida kerak bo'lib turganda, bo'sh mablag'lar kredit manbai sifatida paydo bo'ladi. Bozor munosabatlarining boshlang'ich davrlarida mablag'larga talab ko'payadi. Shuning uchun ham hozir kredit xalq xo'jaligi tarmoq korxonalarini rivojlantirishda, umuman pul aylanmasini tashkil etishda ahamiyati katta.

Kredit resurslarining asosiy manbalari:

- korxonalar, tashkilotlarning bankdagi amartizatsiya ajratmalari;
- takror aylanish jarayonida korxonalarining bo'sh turgan pul mablag'lari;
- korxonalarining fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish va boshqa fondlar mablag'lari;
- aholining bankdagi omonatda saqalanayotgan mablag'lari;
- budjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa nodavlat tashkilotlarining banklardagi pul mablag'lari.

Kreditni tijorat banklari, korxonalar va tashkilotlar, kredit uyushmalari, investitsiya jamg'armalari, davlat, firmalar, sug'urta kompaniyalari berishi mumkin.

Statistikada kreditlar bir necha belgilari bo'yicha guruhlanishi mumkin: Kreditning maqsadi bo'yicha: iste'mol krediti, sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi, kommunal kredit va boshqalar.

Kredit miqdori bo'yicha kreditlar: mayda, o'rta va yirik (katta) hajmdagi kreditlarga bo'linadi. Katta hajmdagi kreditlar ko'pincha asosiy vositalarni modernizatsiya qilishga, kapital qo'yilmalarga beriladi. Ta'minot darajasi bo'yicha kreditlar: ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar aniq bir moddiy yoki nomoddiy boyliklar bilan garovga qo'yilib yoki sug'urta qilinib qaytarilishi kafolatlangan bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi subyektlar raqobatda yengilmaslik uchun, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashlari lozim. Buning uchun zamonaviy asbob-uskunalar, taxnikaga, yetarli darajada xomashyo, materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak bo'ladi.

Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subyektlar asosiy vositalarini yangilashga aylanma mablag'larini to'ldirishga, hamda turli to'lov summalarini (soliq to'lovlari, olingan xomashyo, ko'rsatilgan xizmatlar uchun) amalga oshirish uchun kredit olishga majbur bo'ladilar.

Kreditning ahamiyati quyidagilardan kelib chiqadi:

- kredit yordamida bo'sh turgan pul mablag'lari jamg'ariladi va harakatdagi pulga (kapital) aylantiriladi. Natijada pul muomalasining baraqarorlashuviga olib keladi;

- kredit vositasida pul mablag'lari tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, maorif, sog'liqni-saqlash va boshqalar), korxonalar va aholi o'rtasida qayta taqsimlanadi. Natijada pul mablag'lari ular o'rtasida erkin ko'chib yuradi;

- kredit yordamida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishi ishlab chiqarish va boshqa sohalarning uzluksizligi ta'minlanadi;

- kredit vositasida ishlab chiqarishning rivojlanishi, hamda mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sish imkoniyati yaratiladi.

Bank kreditlari ma'lum muddatga, foizi bilan qaytarib berish va kreditning ta'minlanganlik tamoyillari asosida beriladi.

Kreditning qaytarib berishligi, uni moliyadan farqlaydi. Kredit ma'lum muddatga berilib, muddat o'tgandan so'ng to'liq qaytarib berilishi lozim.

Kredit ma'lum muddatga (bir oyga, uch oy, olti oy, bir yil va undan uzoq muddatlarga) beriladi. Kredit muddati bank va mijoz tomonidan kelishib, kredit shartnomasida qayd qilinadi.

Mijoz kreditdan foydalanganlik uchun bankga haq to'laydi. Bu summa kredit foizi (ssuda foizi) sifatida hisoblab chiqiladi. Bank bergan kredit summasi ta'minlangan bo'lishi lozim. Demak mijoz olayotgan bank kreditining qaytarilishi kafolatlangan bo'lishi lozim. Bank kreditining ta'minlanishi:

kredit olgan mijozning mol-mulkini garovga quyish yo‘li bilan, uchinchi shaxs kafolati (kafilligi) yoki sug‘urta kompaniyalari kreditni sug‘urtalash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Kredit ma‘lum maqsad uchun beriladi. Kreditning nima uchun berilganligi kredit shartnomasida ko‘rsatiladi. Berilgan kreditni mijoz ana shu maqsad uchun ishlatishi lozim. Kreditning maqsad bo‘yicha ishlatishini bank nazorat qilib boradi. Agarda mijozning berilgan kreditni boshqa maqsadlar uchun ishlatilganligi aniqlansa, kredit berish to‘xtatiladi va berilgan kreditni muddatidan oldin qaytarib olish choralari ko‘riladi.

Mijoz olingan kreditdan samarali foydalanishi lozim. Kreditdan samarali foydalanib, mijoz nafaqat olgan kreditini foizi bilan (ma‘lum haq bilan) qaytarishi, balki mijozning o‘zi ham faoliyatini rivojlantirishi natijasida daromad (foyda) olishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham kredit berishdan oldin, bankning kredit bo‘limi mutaxassislari, mijoz taqdim qilgan ma‘lumotlar asosida, mijozning kreditni qaytarish (to‘lov) qobiliyatini hisoblaydi hamda biznes-rejasini o‘rganadi.

Tijorat bank kreditlarini turli belgilari bo‘yicha tasniflash (guruhlariga ajratish) mumkin.

Kredit nima maqsadda berilganiga qarab:

– kapital qo‘yilmalarga: binolarni va boshqa obyektlarni qurish, asbob-uskunalarni sotib olish, asosiy vositalarni qayta qurish yoki qayta jihozlash, kapital ta‘mirlashga sarflash uchun;

– aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun. Bunda xomashyo, materiallar, yoqilg‘i va boshqa joriy aktivlar sotib olish uchun sarflanadi;

– muomala fondlarini to‘ldirish uchun. Bunday kreditlar tovarlarni sotib olish, saqlash va sotish jarayonlarini amalga oshirish uchun sarflanadi.

Kreditning berilishi va qaytarilish muddatlariga qarab:

Qisqa va uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi. Qisqa muddatli kreditlar bir yil muddatgacha beriladi. Qisqa muddatli kreditlar tovar-moddiy boyliklarni sotib olish va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladi. Bunday kreditlarni aylanma mablag‘lari yetishmayotgan subyektlar oladi.

Uzoq muddatli kreditlar asosan kapital qo‘yilmalar uchun olinib, asosiy vositalarni qurish, sotib olish, modernizatsiyalash uchun sarflanadi. Bunday kreditlar uch yildan ko‘proq muddatga beriladi.

5.2. Mijozlarning kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblash usullari

Tijorat banklari mijozlarga (korxonalar, tashkilot, firma, AJlarga) kredit berishga qaror qilishdan oldin, mijozlarning moliyaviy holatini o‘rganib chiqadi. Buning uchun mijoz bankning kredit bo‘limiga kredit olish to‘g‘risidagi

ariza, biznes reja va kredit ta'minoti (masalan, notarius tomonidan tasdiqlangan garov shrtnomasi) bilan bir qatorda oxirgi «Buxgalteriya balansi» (shakl 1); «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (shakl 2) va boshqa kerakli buxgalterik hisobotlarini va ma'lumotlarini olib kelib beradi. Tijorat bank kredit bo'lim xodimlari ushbu ma'lumotlar asosida mijozning moliyaviy holatini va kreditni qaytarish imkoniyatini o'rganib, kredit berish yoki bermaslik to'g'risida xulosa chiqaradi.

Korxonona, tashkilot, firmalarning moliyaviy holati (ahvoli) murakkab ko'rsatkich bo'lib, u korxonaning ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish faoliyati ko'rsatkichlari, boshqa faoliyat (misol, qimmatli qog'ozlar operatsiyalari) natijalari, hamda barcha faoliyat moliyaviy natijalariga bog'liq.

Xo'jalik yurituvchi subyektning bank kreditini to'lov qobiliyatini bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlar belgilaydi. Bu ko'rsatkichlarning asosiylariga quyidagilar kiradi:

Korxonona balansining qoplash va likvidlik hamda o'z mablag'i bilan ta'minlanganligi (koeffitsiyentlari).

Balansning qoplanish koeffitsiyenti – subyektning tez sotuvchi mablag'larini qisqa muddatli majburiyatlarini qoplashidir va u tez likvidli mablag'larning (LM) qisqa muddatli majburiyatlariga (QKM) nisbati bilan aniqlanadi.

Tez likvidli mablag'larga pul mablag'lari (5000-5200, 5500-5710 schetlar, balansning – 330,340,350,360 qatorlari), Ta'minotchilarga bo'nak (avans) to'lovlari (4300-schet, balansning – 260 qatori), 3 oy muddat ichida qaytariladigan qisqa muddatli qo'yilmalar 5810-schet, balansning – 3700 qatori); Tovarlar, ishlar xizmatlar bo'yicha debitor qarzlari (4000,4100, 76 schetlar, balansning – 220 qatori); Sho'ba korxonalar bilan hisoblashishdagi 3-oy muddatdagi to'lovlar (4120-schet, balansning – 240 qatori); Budget bilan hisob-kitoblar (68-schet, balansning 270-qatori); Xodimlar bilan boshqa operatsiyalar bo'yicha hisoblashishlar. Demak, umuman olganda aktiv qismining II bo'lim «Joriy aktivlar» umumiy summasini, biroz korrek-tirovka bilan qabul qilinsa bo'ladi.

Qisqa muddatli majburiyatlarga balans passivining II «Majburiyatlar» bo'limi summasi, uzoq muddatli kreditlar va qarzlarning faqat 3-oy muddat ichida to'lanadigan qismini olib hisoblanish bilan topiladi.

Bunda balansning qoplanish koeffitsiyentining minimumi 1 ga teng bo'lishi, korxonaning moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lsa, 1 dan yuqori bo'lishi kerak. Lekin bu ko'rsatkichga ishlab chiqarish texnologiyasi (xomashyo za-xiralari, tayyor mahsulot), aktivlarning tarkibi katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham likvidlik koeffitsiyenti topiladi.

Likvidlik koeffitsiyenti (LK) pul mablag'lari tovar-moddiy boyliklar hisob-kitoblari bo'yicha debitorlarda bo'lgan qarz mablag'larining (3-oy mud-

datda undiriladigan qismi qushiladi) yig'indisi qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lib topiladi.

Bunda likvidlik koeffitsiyenti 1 dan yuqori bo'lsa, korxonaning to'lov qobiliyati yuqori hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi, o'z mablag'lari manbai summalarini balansning umumiy summasiga bo'lib topiladi. O'z mablag'lar manbaiga ustav kapitali, rezerv va maxsus fondlar, maqsadli tushumlar va foyda kiradi va balans passivining I bo'limi «O'z mablag'lari manbalari»da ko'rsatiladi. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi koeffitsiyentida > 1 yoki 1 ga teng, foizlarda esa 100 gacha boradi. Kredit berishda o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik 30 % kam bo'lmasligi zarur. Bu ko'rsatkichlardan tashqari o'z aylanma mablag'larining mavjudligi va aylanma oborot mablag'lari aylanishi kabi ko'rsatkichlar ham aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar asosida bank kredit bo'limi xodimi subyektga kredit berish yoki kredit berish mumkin emasligi to'g'risida takliflar kiradi. Takliflar asosida bank xulosasi yozilib, uni bank boshqaruvchisi (shunday huquq berilgan shaxs) va kredit qumita raisi tasdiqlaydi.

AQShda mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kreditni qaytarish qobiliyatini aniqlashda minimal 5 «S» nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi.

customer character –mijozning obro'si;

capacity to pay – to'lovga layoqatliligi;

capital – kapital;

collateral – ssudaning ta'minlanishi;

current business conditions and goodwill – iqtisodiy holati va uning kelajagi.

Bu usul bo'yicha mijozning qarzni to'lashga bo'lgan ma'suliyati va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi; qarzlarni to'lashda kamchiliklar bo'lganligi; kreditlanuvchi subyektning iqtisodda, bozorda qanday mavqega va obro'ga ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi.

Bank asosiy e'tiborini boshqa omillarga ham, jumladan, firmalarning aksiyador kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga hamda qarzning ta'minlanishiga, uning yetarlik darajasiga, sifatiga va qarzni to'lamaslik holida, garovni sotish darajasiga qaratadi.

Angliya banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashda savollar varag'i mavjud. Savollarga javoblar bankka kredit berish qarorini qabul qilishga imkon beradi. Quyida shunday savol-varaqning namunasini keltiramiz.

Avvalombor qarz oluvchi (borrower) ga ta'rif beriladi.

Uning oilasi, obro'-e'tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari.

Boshqaruv tarkibi malakasi – ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha staji, boshqara olish qobiliyati;

To'lovga qobilik – to'lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning mosligiga e'tibor beriladi. Keyin esa quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tekshiriladi:

1. Purpose (kredit maqsadi). Qonuniyligi, bank kredit siyosatiga to'g'ri keladimi? va boshqalar;

2. Amount (kredit summasi) kredit summasini hisoblashda aniqlik, tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi? So'ralgan summa yetarli, kam yoki ko'pligi.

3. Repayment (qaytarish) kredit qachon qaytariladi? Qaytarilish grafigi mavjudligi? Qaytarilish manbasi – kelajak daromadlari, qisqa muddatli kreditlar, aktivlarni sotish? Qarz oluvchi pul oqimlarini bashorat qilish;

4. Viability (kreditlanayotgan loyihaning realligi). Mazkur kredit qanchalik zarur? Texnik – iqtisodiy asoslar bajarilganmi? Mazkur kompaniya hisobvaraqlari tahlil qilinganmi? Qarz oluvchi balansi baholanganmi?

5. Risks (risklar). Bank va kompaniya uchun risklar manbalarini mujassamlanganligi riskning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkinmi?

6. Security (ta'minlanganlik). Ta'minot taqdim etilmoqda. U mavjudmi? Garovlarni sug'urta polislarini tekshirish. Garov qiymati qanday? Garovni qayta baholash bo'lib o'tadimi, qachon?

7. Profitability (foydalilik) kredit shartnomasida daromad va xarajatlar aniq ta'riflanishi lozim. Foiz darjasi bank tortilgan riskka mos keladimi? Foiz darajasi, xarajatlarni qoplaydimi?

Yuqoridagilarni o'zida ifoda qiluvchi «Parts» nomli qarz oluvchi qobiliyatini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo'lib, unda:

Purpose – kreditning maqsadi;

Amount – ssudaning hajmi;

Repayment – qarzni to'lash;

Mert – muddati;

Security – ssudaning ta'minlanganligi kabilar tahlil qilinadi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini tekshirishning boshqa usullari ham mavjud. Mijozning kreditga layoqatliligini asosida mijozning faoliyatini xarak-

terlaydigan zarur axborotlarni yig'ish yotadi. AQSh va boshqa G'arb mamlakatlarida mijozning kreditga layoqatligini tahlil qilishda banklar uchun maxsus huquqiy norma va qonunlar mavjud.

Xorijiy davlatlar amaliyotida mijozning pul oqimi chuqur tahlil qilinadi.

Pul oqimi mijozning o'z xarajatlarini qoplash va qarzlarni o'z resurslari hisobidan to'lash qobiliyatining o'lchamidir.

Bunday tahlil turlicha olib boriladi, jumladan, bu maqsadda qarz oluvchining pul mablag'larining harakat hisobotidan foydalanishi mumkin.

Buning uchun mijoz pul mablag'larining harakati haqidagi hisoboti tuziladi va u quyidagi savollarga javob berishga imkoniyat beradi.

1. Mijoz kelajakda moliyaviy aktivlarning o'sishi uchun o'zini pul mablag'lari bilan ta'minlay oladimi?

2. Qarz oluvchi faoliyatining o'sish sur'ati tashqi manbalardan moliyalashtirish zarur bo'lgan darajada tezligi.

3. Qarz oluvchi keyingi investitsiyalashdan paydo bo'lgan qarzni qoplash uchun ortiqcha pul mablag'lariga egami?

5.3. Tijorat banklari kreditlarining umumiy tahlili

Tijorat banklari kredit operatsiyalarini tahlil qilganda kredit resurslarining manbalari, kreditlarning (umumiy kredit portfelining) tarmoqlar, hududlar bo'yicha yo'naltirilganini, hamda mijozlarning mulk shakllari bo'yicha tahlil qilish mumkin. Tijorat banklari kredit portfeli manbai bo'lib, o'z mablag'lari (xususiy kapitali) va chetdan jalb qilingan mablag'lar bo'lishi mumkin. Banklarning o'z mablag'lari manbai barcha mablag'laridagi hissasi qanchalik katta bo'lsa, bank shunchalik moliyaviy mustahkam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2005-yil 15-apereldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ham tijorat banklari xususiy kapitali miqdorini oshirib, ularning moliyaviy mustahkamligini yaxshilashga qaratilgan.

Tijorat banklari barcha tarmoq korxonalariga kreditlar beradi. Lekin kreditlarning tarmoqlar bo'yicha berilishini tahlil qilganda, Respublikadagi aksiyador tijorat banklarining ko'pi tarmoq xususiyatlari bo'yicha tashkil etilganligini va o'sha tarmoq (Sanoatqurilish bank uchun sanoat korxonalari, Savdogarbank uchun asosan savdo tashkilotlari va hakazo) ustuvor ekanligini hisobga olish zarur bo'ladi. Masalan, Agrobank 2009-yilda barcha kreditlarning 35,0 % ni sanoat tarmoq korxonalariga, 41,0 % ni qishloq xo'jaligi subyektlariga, 22,0 % ini savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga, 2,0 % i esa xizmat ko'rsatish sohasiga berilgan Respublika aksiyadorlik «Ipak yo'li»

tijorat bankida esa 2009– yilda kredit portfelining 49,1 % i sanoat korxonalariga, 30,9 % i savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga, 3,6 % igina qishloq xo‘jaligiga 2,6 % qurilish sohasiga, 3,3 % i uy-joy va kommunal xizmatlari sohasiga tegishli bo‘lgan. Ko‘rib turganimizdek, kreditlarning katta qismi xalq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i-sanoat korxonalariga to‘g‘ri kelayapti.

Tijorat bank kreditlarini qarzidorlar (mijozlar) bo‘yicha ham guruhlash mumkin. Bunda davlat korxonalar, qo‘shma korxonalar, xususiy korxonalar va jismoniy shaxslar (fuqarolar)ga berilgan kredit mablag‘lari bo‘yicha tahlil qilish mumkin.

5.1-jadval

Tijorat banklarining umumiy kredit portfeli tahlili

№		Kredit miqdori, foizlarda		
		31.12.09.	31.12.10.	31.12.11
1	Tijorat banklari	0,48	0,27	1,30
2	Jismoniy shaxslar	2,37	3,00	10,60
3	Davlat korxonalar	60,73	53,60	27,30
4	Qo‘shma korxonalar	22,24	23,57	23,15
5	Xususiy korxonalar	14,18	19,56	37,65
	Jami	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, keyingi yillarda davlat korxonalariga ajratiladigan kreditlar ulushi kamayib bormoqda. Bu albatta birinchi navbatda xususiylashtirish ta‘sirida bo‘lsa, ikkinchidan, mamlakatimizda xususiy, aksioner, qo‘shma korxonalar sonining ortib borishi bilan ifodalangani.

Demak, kredit munosabatlari tahlilida asosiy e‘tibor beriladigan kredit va foiz to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq qaytishini ta‘minlashga qaratilsa, bunga erishishning muhim omili sifatida mijozning kreditga layoqatliligi darajasi tahliliga qaratiladi.

5.4. Bank kreditlarining ta‘minlanganligi tahlili

Tijorat banklari mijozlarni asosan kredit bilan ta‘minlangan bo‘lsa, kredit beradi. Bank kreditining ta‘minlanganligi kredit berish tamoyillaridan biridir. Mijozlar kreditlarning ta‘minlanganligini mol-mulkini garovga qo‘yish, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kafolati hamda sug‘urta kompani-

ylarining kreditni sug'urtalash yo'li bilan amalga oshiradilar. Kredit ta'minoti sifatida mijozlarning mol-mulkini garovga qo'yish juda ko'p ishlatiladi. Mijozning binolari, inshootlari, asbob-uskunalari (turli xil ko'chmas mulklari), transport vositalari, tovar-moddiy boyliklari garov bo'lishi mumkin. Mulkni garovga qo'yishda, o'zgarib turuvchi bozor narxi sharoitida, mulkni to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Respublika aksioner-tijorat «Ipak yo'li» banki hisobotiga ko'ra 2008-yilda kreditlarining ta'minlanganligi 68,3 foizi mulkni garovga qo'yish bilan, 21,0 % boshqa subyektlarning kafolatlari bilan va 10,7 % esa ta'minlanganlikning boshqa turlari bilan amalga oshirilgan.

Bank kreditlarini mulkni garovga quyishda, bu mulklarni turlarini, ularning sifat holatlarini yaxshi o'rganish lozim. Mijozning garovga qo'yilayotgan mulkini maxsus tayyorgarlikga ega bo'lgan mustaqil baholovchi mutaxassislar baholab, ularning qiymatini aniqlaganliklari ma'qul. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 22-fevralda tasdiqlangan «Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomda garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymat, uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi, aniq yoritilishi zarurligi ko'rsatilgan.

Tijorat banklari kreditlarining ta'minlanganligini tahlil qilganda, garovga qo'yilgan mulkning turlari bo'yicha, ularning o'zgarishi bo'yicha, hamda ta'minlanganlik turlari bo'yicha o'zgarishni o'rganish lozim.

Bundan tashqari, kredit ta'minoti sifatida mol-mulk garovi qabul qilinishida quyidagi tahlil jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmog'i zarur hisoblanadi:

– garovga olinadigan mol-mulkning kredit qaytmagan taqdirda bank tasarrufiga o'tkazilishi uchun huquqiy asoslarning to'liq mavjudligi. Buning uchun garov shartnomasi albatta huquqiy ekspertizadan to'liq o'tkazilishi lozim;

– garovga olinadigan mol-mulkning likvidligi, ya'ni uni zudlik bilan pulga aylantirish imkoniyatlari;

– garovga olinadigan mol-mulkning bahosi, uning haqiqatdan ham bozor bahosiga mosligi. Bu yerda e'tibor garovning hozirgi davrdagi va kredit qaytishi lozim bo'lganidan keyingi muddatdagi baholariga e'tibor qaratilishi lozim.

Kafolat yoki uchinchi bir shaxsning kafilligi kredit ta'minoti olinishi lozim bo'lgan taqdirda bank, avvalambor, kafolatchi yoki kafilning kimligini bilishi va uning kreditga layoqatliligi yoki kredit qaytmagan taqdirida uni kafolatchi yoki kafildan to'liq undirish imkoniyatlari o'rganilmog'i va ularning moliyaviy holati hamda to'lov qobiliyatiga to'liq ishonch hosil qilmog'i lozim.

Hozirgi paytda sug'urta tizimining rivojlanganligini e'tiborga olib, kreditlarni sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalash yo'li bilan ta'minlanganlikni amalda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunda bank albatta sug'urtalovchi kompaniyaning reytingi, to'lov qobiliyati va sug'urta shartnomasining qonuniy asoslarini tahlil qilib ko'rishi lozim.

5.5. Kredit hajmi va uning aylanishi tahlili

Tijorat banklari mijozlarga juda ko'p turli muddatlarga kreditlar beradi. Har bir mijozlarga berilgan kreditlarning hajmi (xoh u milliy sumda yoki chet el valyutasida bo'lsin) aniq va uning qaytarilishi nazorat qilib boriladi. Tijorat banklari bo'limlari bo'yicha kredit hajmlari va ularning ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) o'zgarish harakatlarni o'rganish lozim. Buning uchun hisobot davri boshidagi kredit qoldiqlari (boshlang'ich qoldiq summasi) (BKS) hisobot davrida yangidan berilgan kredit summolari (YaKS) hajmi, hisobot davrida qaytarilgan kredit summolari (QKS) va hisobot davri oxirida qolgan kredit summolari (OKS) hajmi ko'rsatilgan jadval tuzish kerak bo'ladi. Bu jadvalda kreditning qaysi manabalardan berilganligi alohida ko'rsatilishi mumkin. Demak bunda balans usulini qo'llab, kreditning hajmiga va uning qaytarilishiga umumiy omillar ta'sirini aniqlash mumkin bo'ladi.

$$\text{BKS} + \text{YaKS} = \text{QKS} + \text{OKS};$$

Bu ma'lumotlar asosida, yangidan berilgan kreditlar summasi kredit qoldig'ining necha foizini tashkil etilishini, shuningdek, qaytarilgan kreditlar summasi kredit qoldiqlarining qancha foizini tashkil qilishni hisoblash mumkin. Albatta bu ko'rsatkichlar banklarda turlicha bo'lishi, u asosan kredit muddatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin bu ko'rsatkichlarni bir bank bo'limida bir necha davrini dinamikada o'rganish kredit hajmi va uning qaytarilishi bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi.

Bu borada bank bo'yicha kreditning o'rtacha hajmini va uning aylanuvchanligini o'rganish ham qiziqdir. Kredit statistikasida kredit hajmi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Kredit hajmi ma'lum davrga berilgan kredit summalaridan (barcha mijozlarga berilgan) qaytirilgan kredit summalarini ayirib tashlanganligiga teng. Kredit qo'yilmalari hajmi banklar va mijozlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatga berilgan kredit hajmi va hissalarini aniqlanib o'rganiladi. Kreditning o'rtacha hajmi vaznli arifmetik o'rtacha bilan aniqlanishi mumkin. Bunda kredit summolari (P_i) kredit muddatlariga (t_i) ko'paytirilib kredit muddatlari yig'indisiga bo'linadi.

$$\bar{D} = \frac{\sum D_i t_i}{\sum t_i}; \text{ bu yerda } \bar{D} = \text{kreditning o'rtacha hajmi}$$

Kreditning aylanuvchanligi hisobot davridagi kredit aylanmasi (kredit aylanma summasi – mijozlardan qaytarib olingan kreditlar summasining yig'indisi tushiniladi) summasini kredit resurslarining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi.

$$\text{Kaym} = \frac{\text{Kay}}{\text{KR}};$$

Bu yerda: Kaym – kredit aylanuvchanligi martalar;

Kay – kredit aylanmasi summasi;

KR – kredit resursi o'rtacha summasiga.

Misol. Tijorat banki 40,0 mln. so'mlik o'rtacha kredit resursiga ega. Tahlil qilinayotgan davrda turli mijozlarga 160,0 mln. so'mlik kredit berilgan. Shundan 152,0 mln. so'm mijozlardan muddati tugaganligi sababli qaytarib olingan. Tahlil qilinayotgan davr oxiriga muddati tugamaganligi sababli 8,0 mln. so'mlik kredit qaytarilmagan. Demak kredit aylanuvchanligi (Kaym) quyidagicha topiladi:

$$\text{Kaym} = \frac{\text{Kay}}{\text{Kr}} = \frac{152,0}{40,0} = 3,8 \text{ marta}$$

Demak, bankning mavjud 40,0 mln. so'mlik kredit resursi, ushbu davrda 3,8 marta aylangan. Boshqacha qilib aytganda 1 so'm kredit resursi 3,8 so'm bo'lib kredit berishda ishlatilgan. Kredit aylanuvchanlik martalarda aniq bo'lganda, kreditning o'rtacha necha kunda aylanganligini (Kayk) topish mumkin. Buning uchun davrdagi kalendar kunlar sonini (D) kredit aylanuvchanligi martalariga bo'lamiz.

$$\text{Kayk} = \frac{D}{\text{Kaym}};$$

Agarda yuqoridagi misolda, tahlil qilinayotgan davr bir yil bo'lsa, kalendar kunlar soni – 365 kun bo'lib, kreditning o'rtacha aylanish kunlari:

$$\text{Kayk} = \frac{365}{3,8} = 96 \text{ kun bo'ladi.}$$

Tijorat banklari kredit resurslarining foydalanish samaradorligini ularning daromadlilik va rentabilik (foydalilik) darajalari ko'rsatkichlari ham ifodalaydi. Kredit resurslarining daromadlilik darajasi (Krd) kredit berishdan olingan foiz daromadlari (FD) summasini kredit resurslarining (KR) o'rtacha qoldig'iga bo'lib topiladi.

$$\text{Krd} = \frac{\text{FD} \times 100}{\text{K R}};$$

Kredit resurslarining rentabellik darajasi (Krr) tijorat banki sof foydasini (SF) kredit reurslari o'rtacha qoldig'iga bo'lib topiladi.

$$Krr = \frac{SF}{K \bar{R}}$$

Tahlilda bu ko'rsatkichlarning dinamik miqdorlari taqqoslanib ularning ijobiy yoki salbiy o'zgarishlari aniqlanadi. Omillar ta'siri o'rganilib, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilanadi.

6-BOB.

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR OPERATSIYALARI TAHLILI

6.1. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarining turlari

6.2. Tijorat banki qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarining holati va tarkibining tahlili

6.1. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarining turlari

Makroiqtisodiy rivojlanishga erishishda qimmatli qog‘ozlar bozorining ahamiyati katta. Hukumatning qo‘llab-quvvatlashi va o‘z vaqtida qonuniy bazaning yaratilishi fond bozorining O‘zbekiston iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashiga imkon berdi. Hozirgi kunda qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasi barqaror faoliyat yuritmoqda. Respublikada yuqori texnologik jihozlar bilan ta‘minlangan Fond birjasi va uning viloyatlardagi filiallari mavjud. Qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanishida 1995-yil O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi bo‘yicha komissiyaning tuzilishi, 1996-yil «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida» hamda «Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati mexanizmi to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda qimmatli qog‘ozlar bozorida turli qimmatli qog‘ozlar bilan savdo muomalasi amalga oshirilmoqda. Bozorda eng ko‘p muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlardan: aksiyalar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, tijorat banklarining depozit sertifikatlari va depozit obligatsiyalaridir. Tijorat banklari O‘zbekistonda 1994-yilda paychilik jamiyatlaridan aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. turli tashkilotlar, korxonalar tijorat banklari aksiyadorlari bo‘lishdi. Hozirgacha tijorat banklari boshlang‘ich emissiya aksiyalarini joylashtirib, ikkinchi marta, ayrimlari esa bir necha marta aksiyalarini chiqarmoqda. O‘zbekistondagi tijorat banklarining asosan ko‘pchiligi tarmoq xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, aksiyalarining nazorat paketi u yoki bu tarmoq yuqori tashkiloti qo‘lidadir. Masalan, «Turonbank» tijorat banki aksiyalarining katta qismi – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi

vazirligida, Agrobankniki esa «Paxtasanoat sotish» kompaniyasida. Tijorat banklari aksiyalarini jismoniy shaxslar ham sotib olishgan.

Umuman aksiyalar oddiy va imtiyozli bo'lib, O'zbekistonda aksiyalarning ko'pchilik qismini oddiy aksiyalar tashkil etadi. Respublika aksiyadorlik tijorat banki «Agrobank» 2003-yilda o'zining sakkizinchi emissiya aksiyalarini 1,5 mlrd. so'mga chiqargan va shu yil davomida ularni to'liq joylashtirgan. Aksiyalar Fond birjasining «A», «V», «S», «D» toifadagi listing maydonchalariga joylashtiriladi. «A» toifadagi listing maydonchasida respublikamizning ko'zga ko'ringan kompaniyalari, tijorat banklari aksiyalari sotuvga qo'yiladi. «V» listing maydonchasiga ishonchli banklar va yirik korxonalar aksiyalari sotiladi. «S» toifadagi listing maydonchasida xususiylashtirilgan korxonalar va «D» toifadagi listing maydonchasida korxonalarining korporativ obligatsiyalari sotuvga qo'yiladi.

Obligatsiya emitantning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'ozdir. Tijorat banklari qarz mablag'larni jalb etish uchun obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqaradi.

Demak, tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

- qimmatbaho qog'ozlarni (aksiya, obligatsiya, bank sertifikatlari) muomalaga chiqarish;
- qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, saqlash kabi operatsiyalar;
- mijozlar topshirig'iga asosan qimmatbaho qog'ozlarni boshqarish;
- fond bozori, qatnashchilariga qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha maslahatlar berish;

qimmatli qog'ozlarni baholash va qimmatli qog'ozlar bozorini tadqiq qilish;

- qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish.

6.2. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar operatsiyalar holati va tarkibining tahlili

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar holatini tahlil qilganda, ularni tahlil qilinayotgan davr boshiga va oxiriga qanchalik o'zgariganligini aniqlash lozim. Tahlilda ularning mutloq va nisbiy o'zgarishlarini aniqlab, qanchalik va nima sababdan o'zgarish bo'lganligini bilish lozim bo'ladi. Tijorat banklari hisobotlarini ko'rib chiqqanda, ko'pgina tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlarga sarflagan mablag'lari yildan-yilga ko'payib, borayotganligi aniqlandi.

**Tijorat banklarining qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan
mablag'lari**

(mln. so'm)

№	Qimmatbaho qog'oz operatsiya turlari	2011- yil	2010- yil	Farqi	%
«Aloqabank»					
1	Qimmatli qog'ozlar – savdo – nosavdo	339,6	36,7	+3,2,9	9,2 marta
2	Hosilaga moliyaviy instrumentlar	108,2	-	+108,2	-
«Savdogarbank»					
1	Qimmatli qog'ozlar – savdo –nosavdo	0 58,1	0 60,3	- -2,2	- 96,4
2	Hosila moliyaviy instrumentlar	0	0	-	-
«Kapitalbank»					
1	Qimmatli qog'ozlar – savdo – nosavdo	99,2 0	206,4 0	-107,1 0	48,1 0
2	Hosila moliyaviy instrumentlar	-	-	-	-

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha turlicha faoliyat yuritgan. «Aloqabank» qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalarida (savdoda) 2010-yilda 36,7 mln. so'mlik savdo qilgan bo'lsa, 2011-yilda qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalari savdosini 9,2 baravar ko'paytirib, 339,6 mln. so'mga yetkazgan. «Savdogarbank» qimmatbaho qog'ozlar nosavdo operatsiyalar bo'yicha 2011-yil holatiga 2010-yilga nisbatan 3,6% kamaytirgan. Ayniqsa, «Kapitalbank» bankining qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan mablag'lari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 107,1 mln. so'mga kamaygan.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar portfeli oldi-sotdi operatsiyalarda qatnashish uchun olingan qimmatbaho qog'ozlar, qayta sotish uchun olingan qimmatbaho qog'ozlar va investitsiyalangan qimmatbaho qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Masalan «Ipak yo'li» bankining 2009-yilga qimmatbaho qog'ozlar portfeli tarkibi quyidagicha bo'lgan:

	Qimmatbaho qog'ozlar turlari	Hissasi, % da
1	Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari	57,0
2	Qayta sotish uchun qimmatli qog'ozlar	24,0
3	Investitsiyalangan qimmatli qog'ozlar	19,0
	Jami:	100,0

Ko‘rinib turibdiki, bankning qimmatbaho qog‘ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarining 57 foizi oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlarni tashkil etgan.

Qimmatli qog‘ozlar bilan qilingan operatsiyalar tahlilida, ushbu operatsiyaning daromadlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda asosiy e‘tibor boshqa emitentlardan sotib olingan qimmatli qog‘ozlar uchun olingan dividend yoki foiz to‘lovlari dinamikasi, har bir qimmatli qog‘ozdan olingan daromadlar, qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish jarayonida olingan vositachilik daromadlar ko‘lami tahliliga e‘tibor qaratilmog‘i lozim. Mijozlarning topshirig‘iga asosan qimmatli qog‘ozlarni saqlash, ularni hisobini yuritish va boshqarish natijasida olinadigan daromadlar hamda amalga oshirilgan operatsiyalar ko‘lami tahlili ham bankning investitsion siyosatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bankning o‘z aksiyalarini muomalaga chiqarilishi va ularning sotilishi, uning kapitallashuv darajasini bildiradi va bularning o‘shish dinamikasi bank to‘lov qobiliyati, likvidlilik hamda mijozlar ishonchining oshishiga olib keladi.

7-BOB.

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI VA XARAJATLARI TAHLILI

7.1. Bank daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili.

7.2. Bank xarajatlari tahlili.

7.1. Bank daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda katta ahamiyatga ega bo'lib borayotgan nokredit xarakterdagi mijozlarga bank xizmatini ko'rsatish daromad manbasining muhimligi bo'yicha ikkinchi hisoblanadi. Odatda bu daromadlarni komission daromad deyiladi. Xizmatlarga to'lov, komission mukofot ko'rinishida olinadi. Komission mukofot hamma qilinadigan operatsiya yoki shartnoma summasidan foiz ko'rinishida o'rnatiladi.

Bank xizmatlari juda ham xilma xildir va doimo har xil yangiliklar bilan to'ldirib boriladi. Bankka komission daromad keltiruvchi asosiy xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob kassa xizmatlari, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar, bank kafolatlarini berish, mijozlarning valyuta shartnomalaridagi bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik xizmatlar va boshqalar.

Ko'pgina chet davlatlarida ko'pchilik banklar hisob-kitob, kassa va boshqa xizmatlarini mijozlarga tekinga ko'rsatishardi. Foiz marjasining pasayishi natijasida, ya'ni, resurslarni jalb qilish va joylashtirishning o'rtacha qiymatlari orasidagi farq tufayli banklar bunday amaliyotdan voz kechishlariga to'g'ri keldi. Hozirgi paytda banklar umumiy daromadlari hajmida komission daromadlarning o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu faqatgina foiz marjasi darajasining qisqargani va moliya bozorida daromadlaridan tashqari, komission daromadlarining foizli daromadlarga nisbatan barqarorligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari bank chet el valyutasidagi vositalarni qayta baholash orqali ham daromad olishi mumkin. Agar chet el valyutasi kursining oshishi, shu valyutadagi nominallashtirilgan bank aktivlari oshiradi va aksincha, chet el valyutasi kursining pasayishi, shu valyutada nominallashgan aktivlarning tushishiga olib keladi. Valyuta kursining katta tebranishi va bankning valyuta bozorida yuqori aktivligi sharoitida, bu daromadlar bankning operatsion daromadlari tarkibida muhim hissaga ega bo'lishi mumkin.

Qo‘shimcha faoliyatdan daromadlar bank daromadlari tarkibida unchalik katta ulushga ega emas. Ular o‘z ichiga nobank xarakterdagi xizmatlar ko‘rsatishdan, korxonalar va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishdan, ijaraga berish va binoni realizatsiya qilishdan va boshqalardan daromadlar oladi.

Bank yordamchi bo‘limlarning tijorat faoliyatidan qo‘shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, agar bank shaxsiy reklama xizmatiga ega bo‘lsa, o‘z mijozlariga reklama xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, boshqa xizmatlar ham faqatgina bank faoliyatini ta‘minlashga emas, balki mijozlarga pullik xizmat ko‘rsatishlari ham mumkin. Bular yuridik, xabarlar, telekommunikatsiya, marketing, auditor, transport va boshqa xizmatlar bo‘lishi mumkin.

Bank asosiy va qo‘shimcha faoliyat daromadlaridan tashqari, boshqa daromadlar kategoriyasiga kiruvchi boshqa daromadlar ham oshishi mumkin. Ular:

- jarima, penyalari, mijozlardan olinadigan jarimalar,
- ortiqcha tushumlarning kassaga tushishi;
- zaxira summasini qayta tiklash;
- hisobot yilida tushgan yoki aniqlangan o‘tgan yilgi daromadlar;
- daromadga soliq ortiqcha to‘laganligi uchun budjetdan mablag‘ qaytarish va boshqalar.

Bu daromadlar mohiyatan tasodifiy yoki bankning hisobot davrida «Ishlab topilmagan» daromadlari hisoblanadi. Ular odatda kelasi davrga daromad rejasi tuzilganda hisobga olinmaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan daromad turlarini jadval ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

7.1-jadval

Bank faoliyati turi bo‘yicha daromadlar guruhi

Bank faoliyati turlari	Daromad turlari
1	2
Ssuda operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> • kredit berganlik uchun foiz • veksellar bo‘yicha foizli daromad • o‘tgan yilgi kredit operatsiyalari bo‘yicha daromad
Diskont operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> • faktoring va forfeyting operatsiyalari bo‘yicha diskont daromad
Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiya	<ul style="list-style-type: none"> • uzoq muddatli majburiyatlarga qo‘yilmalardan daromad • qimmatli qog‘ozlarni qayta sotishdan daromad • qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar

Kafillik faoliyati	<ul style="list-style-type: none"> berilgan kafolatlar bo'yicha olingan komissiyalar
Depozit operatsiyalari va mijoz topshirig'i bo'yicha operatsiyalar	<ul style="list-style-type: none"> kassa operatsiyasi; inkassatsiya operatsiyasi; hisob-kitob operatsiyalaridan olinadigan komissiya
Valyuta operatsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> chet el valyutasida bo'lgan operatsiya bo'yicha daromad forward, fyuchers, svop, opsiyon operatsiyalarini o'tkazishdan daromadlar
Bank faoliyatining boshqa yo'nalishi	<ul style="list-style-type: none"> mulkni ijaraga berishdan daromad lizing operatsiyalaridan daromad axborot xizmatlaridan daromad jarima, penyalar va boshqalar

Tijorat banklari daromadlarini tahlil qilishda dastavval ularning tarkibi va dinamikasi o'rganiladi.

Bu o'z navbatida bank daromadlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu holat o'z navbatida yuqori daromad keltiruvchi xizmatlarini yanada kengaytirish lozimligini aniqlash imkoniyatlarini ham beradi.

7.2-jadval

«B» bankning daromadlari tarkibi va dinamikasi¹

(yil boshiga)

	Olingan daromadlar	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi	
		qoldig'i mln. so'm	Sal-mog'i %	qoldig'i mln. so'm	Sal-mog'i %	mln. so'm	ulushi %
1	Kreditlardan olingan daromadlar	5372	45,0	5123	42,5	-249	-4,6
2	O'zRMB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha daromadi	0	0,0	0	0,0	0	0,0
3.	Davlat obligatsiyalaridan olingan daromadlar	5,5	0,05	5,5	0,05	0	0,0
4.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar	20,7	0,2	26,5	0,2	5,8	28,0

¹ «B» bank shartli ravishda olingan.

5.	Sotib olingan debitorlik qarzlari-faktring operatsiyasidan olingan daromadlar	3,6	0,03	1,8	0,01	-1,8	-50,0
6.	Lizingdan olingan daromadlar	293,1	2,5	390,4	3,2	97,3	33,2
	Jami foizli daromadlar:	5694,9	47,7	5547,2	46,1	-147,7	-2,6
7.	Vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar	5680	47,6	5790	48,1	110	1,9
8.	Valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan foyda	543	4,5	680	5,6	137	25,2
9.	Boshqa operatsiyalardan olingan daromadlar	21	0,2	23	0,2	2	9,5
	Jami foizsiz daromadlar	6244	52,3	6493	53,9	249	3,9
	Jami daromadlar:	11938,9	100	12040,2	100,0	101,3	0,8

«B» bank o'tgan yilda 11938,9 mln. so'm daromad olgan. Uning 6244,0 mln. so'mi, ya'ni 52,3 foizini foizsiz daromadlar va 5694,9 mln. so'mini, ya'ni 47,7 foizi foizli daromadlar tashkil etgan.

Joriy 2011-yilda oldingi yilga nisbatan olingan jami daromad 12040,2 mln. so'mga teng bo'lgan. Ushbu yilda bankning daromadlari 101,3 mln. so'm, ya'ni 0,8 foizga o'sgan.

Foizli daromadlarning asosiy qismini berilgan kreditlar uchun olingan foiz daromadlari tashkil etgan bo'lsa foizsiz daromadlar asosan vositachilik va boshqa xizmatlardan kelib tushgan.

Joriy yilda foizli daromadlarning 147,7 mln. so'm (2,6%)ga, kreditlardan olingan daromadlarning 249 mln.so'm (4,6%) ga kamayib ketganligi ushbu bankning kredit siyosatida jiddiy kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Bundan tashqari, ushbu holatga bankning foiz siyosati ham ta'sir etishi mumkin.

Markaziy va boshqa banklardagi, hisobvaraqlar bo'yicha daromadlarning yo'qligi, ushbu bank tomonidan boshqa banklarga daromad olish maqsadida depozit mablag'lari qo'yilmaganligini bildiradi.

Davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatbaho qog'ozlarga qilingan investitsiyalaridan olgan daromadlari juda kam ulushni tashkil etadi. Bu holat,

bank aktivlarida qimmatbaho qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning juda oz miqdorni tashkil etishi bilan izohlanadi. Keyingi davrda bankning lizing operatsiyalari va ulardan olingan daromadlar miqdorining oshib borishi kuzatiladi. Ushbu operatsiyalardan bankning joriy yilda olgan daromatlari, o'tgan yilga nisbatan 33,2 foizga oshgan. Foizsiz daromadlarning asosiy qismi ko'rsatilgan xizmatlardan kelib tushgan bo'lib, uning asosiy qismini esa mijozlarga hisob-kitoblarda vositachilik evaziga hosil bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, bank kelgusi davrda o'zining kredit va foiz siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishi, ko'proq daromad keltiradigan faktoring va lizing operatsiyalarini kengaytirishi va investitsion siyosatiga ham o'zgartirishlar kiritishi lozim bo'ladi.

Shuni alohida qayd etib o'tishimiz lozimki, banklarining faoliyati nihoyatda keng qamrovli va xilma xildir.

So'nggi vaqtlarda bank ishiga kiritilayotgan muhim yangiliklardan biri kredit kartochkalarini qo'llash, ishbilarmonlar firmalarga zamonaviy xalqaro andozalar asosidagi buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatish, faktoring operatsiyalari, ijarani moliyalashtirish, yevro-dollar bozoridagi operatsiyalarda ishtirok etish favqulotda holatlarda pul hujjatlarini inkassatsiyalash uchun abonent yashiklari tizimidan foydalanish va boshqalar.

Dunyo miqyosda tan olinayotgan eng ilg'or va zamonaviy bank texnologiyalarini O'zbekiston bank tizimiga qo'llash, bu o'z-o'zidan bank daromadlarining ko'lamini kengaytirib bormoqda.

Bank daromadining mohiyati va boshqa moliyaviy institutlaridan farqlanib turuvchi xususiyati – bank pul resurslarini tashkil etib va ularni yuqori daromadli bank portfellarini yaratish layoqati bilan xususiyatlanadi.

Bank resurslarini tashkil qilish imkoniyatlari iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular moslashuvchan kredit tizimini amalga oshirmoqda, qaysiki iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

7.2 Bank xarajatlari tahlili

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarini kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xarajat – bu pul vositasini ishlab chiqarish (bank) va noishlab chiqarish (nobank) faoliyatlariga ishlatish (xarajat qilish) tushuniladi.

Odatda, bank xarajatlarini quyidagicha tasniflanadi:

1. Operatsion xarajatlar:

1.1. foizli xarajatlar

- 1.2. komission xarajatlar
- 1.3. moliya bozoridagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlar
- 1.4. boshqa operatsion xarajatlar.

2. Bank faoliyatini funksionallashtirishni ta'minlashi bo'yicha xarajatlar.

3. Boshqa xarajatlar

Bank operatsiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar operatsion xarajatlar deyiladi. Ularni to'g'ri yoki o'zgaruvchan xarajatlar deyish mumkin. Chunki, xarajatning kattaligi bank amalga oshirgan operatsiya hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bankning xarajatlari strukturasi ishlab chiqarish korxonasinikiga nisbatan boshqacha bo'ladi. Bankda xomashyo va materiallarga katta xarajatlar yo'q, ekspluatatsiya va asosiy vositalarning xizmatlariga xarajatlar qiyosan unchalik katta emas, hattoki ish haqiga to'lov ham bank xarajatlarining umumiy summasida katta ulushga ega emas. Bank xarajatlari strukturasi ko'proq savdo-vositachilik korxonalari xarajatlari strukturasi eslatadi. Mablag'larni joylashtirishdan daromad olish uchun, avvalo, bu mablag'larni jalb qilish kerak. Kredit va qo'yilmalarning bir qismi bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, kredit resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil qiladi. Jalb qilingan mablag'larga esa bank foiz to'lashi kerak. Odatda, bank xarajatlarining katta qismini jalb qilingan mablag'lar xarajatlari tashkil qiladi. Bu to'lovlar foiz shaklida amalga oshirilganligi uchun, bu xarajatlar foizli deyiladi.

Kredit faoliyati bilan aktiv ishlaydigan universal bankda foizli xarajatlarining ulushi hamma xarajatlarining deyarli 70%ini tashkil etishi mumkin. Foizli xarajatlarning kattaligi va ularning xarajatlar umumiy hajmidagi ulushi bank passivlari tuzilishiga bog'liq. Aholi omonatlari va banklararo kreditlar bank uchun qimmatli hisoblanadi. Shuningdek, banklar yuridik shaxslar depozitlari va chiqarilgan qarz majburiyatlariga (obligatsiya, foizli veksellar va depozit sertifikatlari) nisbatan katta foizlar to'laydi.

Bank majburiyatlari strukturasi bu mablag'lar ulushi qancha ko'p bo'lsa, foizli xarajatlar shuncha kam bo'ladi va natijada bank foydasi ko'payadi.

Bank foizli xarajatlarini uning umumiy hajmiga nisbatan o'sishi, bankning kredit resurslarini oladigan bozor kon'yukturasining yaxshimasligidan yoki bankning bu bozorlardagi raqobat mavqeini yomonlashganligidan dalolat beradi. Foizli xarajatlarning o'sishi, foizli daromadlarning adekvat o'sishi bilan yonma-yon borsa, bu hol o'rtacha hisoblanadi. Foizli daromadlarning o'sish sur'ati foizli xarajatlarning o'sishidan o'zib ketsa, bu hol bank uchun yetuk hisoblanadi.

Odatda, moliya bozoridaagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlarni alohida guruhga ajratishadi. Bank bu bozorlardan qimmatliklarni realizatsiya qilish bo'yicha daromadlar oladi (qimmatli qog'ozlar, chet el valyutalari, qimmatli metallar va boshqalar) xarajatlarga esa, qimmatliklarni olish uchun ketgan sarflar kiradi. Bank kuponli obligatsiya sotib olayotganida yig'ilgan kuponli daromadlarni to'lashiga to'g'ri keladi. Kuponsiz qimmatli qog'ozlar odatda, diskont bilan sotib olinadi. Moliya bozori kon'yukturasi yomonlashganda, qimmatbaho qog'ozlar, chet el valyutasi va boshqa mulklarni qayta baholash natijasida, bank anchagina xarajatlar ko'rishiga to'g'ri keladi.

Bevosita aniq bank operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar: oborotdan har xil soliqlar (Masalan: chet el valyutasini sotib olishga soliqlar), mijozlar to'lovlari bo'yicha pochta va telegraf xarajatlar va boshqalar. Bu xarajatlari boshqa operatsion xarajatlar deyishadi.

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar. Bankni funktsionallashtirishni ta'minlash bilan bog'liq, ammo aniq operatsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri bormaydigan xarajatlar bu guruhga kiradi. Iqtisodiy nazariyada ularni egri yoki shartli-doimiy xarajatlar deyiladi.

Aktivlari hajmi kichik va o'rta bo'lgan banklarda bu xarajatlar summasi unchalik bilinmaydi. Jalb qilingan va joylashtirilgan resurslari hajmi katta bo'lgan yirik banklarda, bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar umumiy xarajatlarning 10-12% ini tashkil etadi.

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Personalga xarajatlar (ish haqi, premiya, moddiy yordam, xodimlarga har xil imtiyozlar berish, komandirovka xarajatlari, personalni izlash va o'qitish bo'yicha xarajatlar, mehnatni muhofazalash xarajatlari va boshqalar);

2. Bino va inshootlarga xarajatlar (ijara, amortizatsiya, binolar remonti va ekspluatatsiyasi, kommunal to'lovlar, yer solig'i, mol-mulk solig'i, binoni qo'riqlashga xarajatlar va boshqalar);

3. Ish joyini asbob-anjomlar bilan ta'minlashga xarajatlar (sotib olish, remont, bank uskunalarini xizmati va asranganligi: kompyuter, mebel, qo'riq signalizatsiya, seyf, hisob mashinalari, valyuta detektorlari va boshqalar);

4. Reklamaga xarajatlar;

5. Bank faoliyatini informatsion ta'minlashga xarajatlar (vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan nashrlar, maxsus adabiyotlarni sotib olish va yozilish, informatsion mahsulotlar va tashqi agentlar xizmatiga to'lovlar, marketing izlanishlariga xarajatlar);

6. Aloqa va telekommunikatsiyaga xarajatlar (aloqa kanallarini o'tkazish va ijarasi, telefon va Internet xizmatiga to'lovlar va boshqalar);

7. Transport xarajatlari;

8. Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqa xarajatlar (auditorlik tekshiruvlariga xarajatlar, aksionerlar yig'ilishini tashkil etishga, notarial va yuridik xizmatlarga to'lovlar).

Bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlarni har xil mezonlar bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- joriy xarajatlar va kapital xarakterdagi xarajatlar (asosiy vositalarni sotib olish);

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlar;

- chiqimlarga tegishli xarajatlar va sof foydadan amalga oshirilgan xarajatlar;

- me'yoriy va nome'yoriy xarajatlar.

Me'yoriy xarajatlarga komandirovka, reklama, kadrlarni tayyorlash va boshqa ayrim xarajatlar kiradi. Bu yerda qonunda ko'rsatilgan me'yorlar doirasidagi xarajatlar summasi ko'zda tutiladi.

Bank O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug'urta fondiga qonunlarga muvofiq o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan, bank to'lovlarini amalga oshiradilar. Bank nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.


Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish davlat majburiyatlarini bajarishlar uchun sarflangan vaqt evaziga haq to'lash kabi xarajatlar qiladi.

Bundan tashqari bankning foizga dahli yo'q xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari kiradi. Bank oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi. Bunda bank nomoddiy aktiv shakllantiradi va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, bank xarajatlarini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'lib keltirish mumkin:

Bank xarajatlarining tarkibi



Boshqa xarajatlar kategoriyasiga ko'zda tutilmagan hollarda bo'ladigan tasodifiy xarajatlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bank faoliyatidagi risklarni qoplashga ketgan **xarajatlar** deyish mumkin. Bu xarajatlar bank tizimi smetasiga qo'shiladi yoki oldingi davrdagi ko'zda tutilmagan xarajatlar darajasidan kelib chiqqan holda, smetada aniq bir summa nazarda tutiladi.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- shtraflar, penyalar, jarimalar;
- hisobot davrida chiqqan o'tgan yilgi xarajatlar;
- bank mulkini realizatsiyasi bo'yicha xarajatlar;
- debitorlik qarzlarni yopish bo'yicha xarajatlar;
- mijoz noroziligi bo'yicha to'langan to'lovlar;
- boshqa xarajatlar.

Bank xarajatlarini tahlil etishda xarajatlar tarkibi, dinamikasi, daromadlarga mosligi va samaradorligi masalalariga e'tibor qaratiladi.

«B» bank xarajatlari tahlilini quyidagi misolda ko'rib o'tamiz.

7.3-jadval

«B» bankning xarajatlari tarkibi va dinamikasi

(yil boshiga)

	Joriy likvid aktivlar	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi	
		qoldig'i mln. so'm	salmog'i %	qoldig'i mln. so'm	salmog'i %	mln. so'm	salmog'i %
1.	Talab qilib olinadigan depozitlar uchun to'langan foiz xarajatlar	45,2	0,4	46,4	0,4	1,2	2,7
2.	Jamg'arma depozitlar bo'yicha, foiz xarajatlar	148,5	1,4	151,6	1,4	3,1	2,1
3.	Muddatli depozitlar bo'yicha foiz xarajatlar	1260	12,1	1271	12,1	11	0,9
4.	Depozit sertifikatlari bo'yicha foiz xarajatlar	0	0,0		0,0	0	0,0
5.	Banklarga to'langan foiz xarajatlari	520	5,0	515,6	4,9	-4,4	-0,8
6.	Kreditlar bo'yicha ehtimoliy zaxiralar operatsion xarajatlari	730	6,99	740	7,1	10	1,4

7.	Xodimlarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar	4120	39,4	4125	39,4	5	0,1
8.	Ijara xarajatlari	210	2,0	218	2,1	8	3,8
9.	Transport va xizmat safari xarajatlari	51	0,5	55	0,5	4	7,8
10.	Ma'muriy xarajatlar	580	5,6	585	5,6	5	0,9
11.	Asosiy vosita eskirishi–amortizatsiya	510,9	4,9	529,9	5,1	19	3,7
12.	Sug'urta, soliq va boshqa to'lovlar	820,5	7,9	830,8	7,9	10,3	1,3
13.	Boshqa operatsion xarajatlar	218,5	2,1	220,9	2,1	2,4	1,1
14.	Olingan kreditlar uchun to'lovlar	1230	11,8	1180	11,3	-50	-4,1
	JAMI:	10444,6	100	10469,2	100	24,6	0,2

«B» bankning joriy yil xarajatlari o'tgan yilga nisbatan 24,6 mln. so'm yoki 0,2 foizga o'sgan. Xarajatlar tarkibida asosiy o'rinni xodimlarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar tashkil etgan. Ular hisobiga umumiy xarajatlarning 39,4 foizi to'g'ri keladi.

Jamg'arma va muddatli depozitlar uchun to'langan foiz to'lovlarining umumiy xarajatlardagi ulushilari pastligi bank majburiyatlari tarkibida ularning salmog'i kamligi bilan izohlanadi. Foizli daromadlar miqdorini oshirish uchun, bank tomonidan barqaror majburiyatlar jalb etishga va ularni yuqori foizli daromad keltiruvchi kredit, lizing va faktoring operatsiyalariga yo'naltirishni tashkil etmogi lozim.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashda, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari pasivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxalarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

8-BOB.
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGI VA TO'LOVGA
LAYOQATLILIGI TAHLILI

8.1 Tijorat banklari likvidligining mohiyati va ahamiyati

8.2. Tijorat banklari likvidlik ko'rsatkichlari tavsifi

8.3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari

8.1 Tijorat banklari likvidligining mohiyati va ahamiyati

Banklar – muhim moliyaviy institutar hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlab, mablag'larni o'zida yig'adi va kerakli sohaga yo'naltiradi. Banklarning boshqa tashkilotlardan farqi va xususiyati shundan iboratki, u asosan o'zgalarning mablag'lari (jalb qilingan mablag'lar) bilan bank operatsiyalarini amalga oshiradi va shuning uchun mablag'larni saqlash yuzasidan ular zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi.

«Likvidlik» termini lotin tilidagi «liquidus» so'zidan olingan bo'lib, suyuq, oqib yuruvchi ma'nosini anglatadi. So'zning ma'nosi jihatidan yondoshadigan bo'lsak ham moddiy qimmatliklarning pul mablag'lariga oson realizatsiya bo'lishini va tez konvertatsiya qilinishini anglatadi. Lekin likvidlikka bir tomonlama yondoshib bo'lmaydi

Tijorat banklari likvidligi tushunchasi bu uning barcha kontragentlari oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga tushiniladi va bu qobiliyat bankning yetarli o'z kapital mablag'lariga ega bo'lishi, aktivlari tarkibi, muddati jihatidan passivlarning tarkibi va muddatiga mos kelishi bilan aniqlanadi.

Ma'lum davr maboynida naqd pul tushumiga ega bo'lish va bozor talabi noaniq bo'lishi sharoitida mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsion faoliyatini amalga oshirish uchun bank likvidli mablag'larga muhtoj bo'ladi, ya'ni likvidli mablag'lar bu shunday aktivlarki, minimal yuqotish xatari bilan yoki umuman yuqotishlarsiz tez pulga aylana-digan aktivlar.

Demak, bank likvidligi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini shakllantiruvchi ularning to'lovga layoqatligini tavsiflovchi asosiy omildir.

Agar tijorat banki o'zining qarz va moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqti-

da va to'liq bajarish uchun yetarli darajada naqd pul mablag'lariga, boshqa likvidli aktivlarga va shuningdek, boshqa manbalardagi mablag'larini tez realizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lsa u holda bank likvidli hisoblanadi. Bundan tashqari, likvidlik zaxirasini shakllantirish ko'zda tutilmagan ixtiyoriy moliyaviy ehtiyojlar uchun zarurdir. Jumladan, kreditlarga bo'lgan talabning mavsumiy va ko'zda tutilmagan tebranishlarini kompensatsiyalash, omonat qoldig'i to'satdan kamayganda mablag'lar o'rnini to'ldirish va hokazo.

Jahon bank nazariyasida va amaliyotida likvidlik tushunchasiga «zaxira» va «oqim» sifatida qaraladi. Bunda likvidlikka «zaxira» sifatida qaralganda, aniq vaqt ichida ishlatilmagan zaxiralar hisobiga yuqori likvidli aktivlar foydasiga aktivlar tarkibini o'zgartirish yo'li bilan mijoz oldidagi majburiyatlarni bajara olish imkoniyatining hajmini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Likvidlik «oqim» sifatida dinamika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi va bunda ma'lum davr ichida likvidlikning yuz bergan noxush darajasini o'zgartirish, aktiv va passivlarning mutanosib bandlarini samarali boshqa'rish evaziga likvidlikning obyektiv zaruriy darajasiga erishish (uni ushlab turish), qo'uhimcha qarz mablag'larini jalb qilish, daromadlarni ko'paytirish evaziga bankning moliyaviy holatini mustahkamlash ko'zda tutiladi.

Bank likvidligining funksional mohiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1. Bank likvidligi o'zlarining hisob va joriy raqamlaridan to'lovlarni amalga oshiruvchi va kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarning, shuningdek, depozitlardan o'z mablag'larini tasarruf qilayotgan omonatchilarning pulga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan.

2. Bank likvidligi bankning obro'si bilan o'zaro bog'liq bo'ladi, ya'ni bankda likvidlik bo'yicha muammolar bo'lmasa u holda, kredit tashkilotining moliyaviy nobarqarorlik xataridan uzoqda yuruvchi mijoz uchun shu bank jozibali hisoblanadi.

3. Bank likvidligi zararli va foydasiz bo'lgan operatsiyalarni bajarilishini oldini olish maqsadida aktivlarni noo'rin sotmaslik imkoniyatini beradi.

Amaliyotda va nazariyada bank likvidligi uning daromadlilik bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Aktivlarni boshqarish jarayonida banklar doimiy ravishda «daromadlilik-likvidlik» ko'rinishdagi qarama-qarshilikka duch keladi. Bu yerda gap bitimlarni tuzish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, daromad va risk o'rtasidagi mutanosiblikni tanlash jarayonida har bir iqtisodiy agent (xususan banklar) hal qilishi kerak bo'lgan asosiy muammo to'g'risida bormoqda.

Likvidlik holati ikki pozitsiya tomonidan xarakterlanadi:

- Defitsit;
- Ortiqcha.

Likvidlik krizisi haqida gapirilganda aynan unga bo'lgan defitsit nazarda tutiladi. Ammo, haddan tashqari bank likvidligining mavjud bo'lishi ham bank uchun yaxshi holat hisoblanmaydi, chunki bunda o'tkazilayotgan operatsiyalar samarasizligi yoki faoliyat amalga oshirilmaslik holati yuz beradi.

Rossiyalik olim professor, i.f.d O.I. Lavrushinning o'quv qo'llanmasida likvidlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Likvidlilik – bu bank faoliyatining umumlashtirilgan jihatlaridan biri bo'lib, uning ishonchligini anglatadi. Bank likvidligi – bankning omonatchilari va kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga tushiniladi».¹ Mazkur o'quv qo'llanmaning mualliflari tijorat banklari likvidli ekanligini bildiruvchi ikki belgilarning (ya'ni majburiyatlarni uz vaqtida va yo'qotishsiz bajarish) mavjud bo'lishi bank faoliyati sifatini aniqlab beruvchi ko'pgina ichki va tashqi tartibdagi omillar bilan asoslanadi deb hisoblaydilar.

Ichki tartibdagi omillar tarkibiga quydagilar kiradi:

- bankning mustahkam kapital bazasi, aktivlarning sifati;
- depozitlar sifati, me'yoriy darajada tashqi manbalarga bog'liq bo'lish;
- aktiv va passivlarning muddati bo'yicha mutanosibligi;
- to'g'ri yo'lga qo'yilgan menejment;
- birinchi darajali bank imiji.

Bankning mustahkam kapital bazasi deganda aktivlar bo'yicha xatarni qoplash va omonatchilar mablag'larini kafolatlash maqsadida o'z kapitalining absolyut qiymatiga ega bo'lishi tushuniladi. Bankning o'z kapitali asosini ustav fondi va har xil maqsadlar, shu jumladan, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga mo'ljallangan boshqa fondlar tashkil qiladi. Shaxsiy kapital qanchalik ko'p bo'lsa bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Bank likvidligiga ta'sir qiluvchi boshqa bir omil bu uning aktivlari sifati. Aktivlar sifati to'rtta **mezon** asosida aniqlanadi: likvidlilik, xatarlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalanganlik. Likvidli aktivlar deganda aktivlarni realizatsiya qilish yoki qarzdor tomonidan qarzlarini sundirilishi natijasida ularni pul ko'rinishiga tez transformatsiyalanish qobiliyatiga tushuniladi.

Aktivlar likvidligining darajasi ko'p jihatidan ularning nima maqsadda ishlatilishiga bog'liq bo'ladi. Bankda pul ko'rinishida mavjud bo'lgan aktivlar asosan to'lov funksiyasini bajarish uchun ishlatiladi. Ssudalar, qimmatbaho qog'ozlar va investitsiya qilinadigan pul qo'yilmalari bank mijozining qisqa va uzoq muddatli ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

Bu borada likvidlik darajasi jihatidan bank aktivlari bir qancha guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhni quyidagi yuqori darajali likvidli aktivlar tash-

¹ (Lavrushin O.I. i dr. Bankovskoe deloyu Izd. 2-e pererab. I dopoln. –M.: Finansi i statistika, 2005 g. –S. 140).

kil qiladi: bankning kassa va vakillik hisob raqamidagi pul mablag‘lari, bank portfelidagi qimmatli qog‘ozlar.

Birinci guruh aktivlar hajmini ushlab turish bank likvidligini ta‘minlashning ajralmas va zaruriy sharti hisoblanadi.

Likvidlik darajasi bo‘yicha aktivlarning ikkinchi guruhini jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan qisqa muddatli ssudalar, banklararo kreditlar, faktoring operatsiyalari, aksionerlik jamiyatlarining tijorat qimmatli qog‘ozlari tashkil qiladi. Bu aktivlarni pul shakliga keltirish uchun nisbatan ko‘proq muddat kerak bo‘ladi.

Likvidlik darajasi jihatidan aktivlarning uchinchi guruhi uzoq muddatli qo‘yilmalar va investitsiyalar, uzoq muddatli ssudalar, lizing operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlarga qilingan uzoq muddatli investitsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Va nihoyat aktivlarning likvidlik darajasi bo‘yicha to‘rtinchi guruhi ham mavjudki, bunda ular nolikvid aktivlar hisoblanib muddati o‘tgan ssudalar, ba‘zi bir turdagi daromad keltirmaydigan qimmatli qog‘ozlar, bino va inshootlar ko‘rinishda bo‘ladi.

Aktivlar sifati mezon bo‘lgan xatarlilik – bu aktivlarni pul shakliga aylantirish jarayonida zarar ko‘rish mumkinligini bildiradi.

Aktivlar xatarining darajasi ularning ma‘lum bir turlariga xos bo‘lgan ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ssudalar xatari qarz oluvchining moliyaviy holati, kreditlash obyektining maqsadi, ssuda hajmi, kreditni berish tartibi va uni so‘ndirish va hokazolar bilan asoslangan.

Qimmatli qog‘ozlarga qilingan qo‘yilmalar xatari emitentlarning moliyaviy barqarorligi, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotish mexanizmi, birjada kotirovka qilinishi qobiliyati va boshqalarga bog‘liq.

Aktivlar xatarlilik darajasining turkumlanishi har xil mamlakatlar va har xil maqsadlar uchun bir xil bo‘lmaydi.

Tizimlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi jahon amaliyotida kapitalning yetarililigini baholash uchun Bazal kelishuvining tavsiyalaridan foydalaniladi va bunga ko‘ra riskka tortilgan aktivlar to‘rt guruhga ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi bank amaliyotida Markaziy bankning 2000-yil 26-apreldagi 420-sonli Tartibiga asosan aktivlar risklilik darajasi bo‘yicha 4 guruhga bo‘linadi (0%,20%,50% va 100%). Mamlakatimiz bank tizimi kredit portfelini baholash maqsadida xatarining har xil darajalarini aniqlash yo‘li bilan kreditlar 5 ta guruhga ajratiladi.

Aktivlarni mazkur mezon bo‘yicha turkumlanishi yuzasidan har xil mamlakatlarning aniq amaliyotiga bog‘liq bo‘lmagan yagona prinsipial tartib borki, bunda bank likvidligining aktivlar xatariga bog‘liqligini o‘rnatish imkonini beradi. Bank aktivlarining yalpi xatari qancha yuqori bo‘lsa, bank likvidligi shuncha past bo‘ladi.

Aktivlar daromatlilikini ular sifatining mezonini hisoblanib, aktivlarning ishga layoqatliligini va effektivligini bildiradi, ya'ni bunda daromad topish qobiliyati mavjud bo'lib, bankni rivojlantirish va kapital bazasini mustahkamlash uchun imkoniyat mavjud bo'ladi.

Daromatlilik jihatidan bank aktivlari ikki guruhga bo'linadi: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlar. Daromad keltiruvchi aktivlar ulushi qancha yuqori bo'lsa daromad hajmi ham shuncha ko'p bo'ladi va bu o'rinda bankning o'z kapital bazasini mustahkamlash imkoniyati kengayadi. Bu esa bank tomonidan o'z zimmasiga olgan xatarlarga shiddat bilan bardosh bera olish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, bank aktivlari tarkibini daromadlik darajasi jihatdan tartibga solishda ehtiyot bo'lish kerak, chunki haddan tashqari daromadlikka intilish aktivlarini yuqotilishiga va likvidlikni pasayishiga olib keladi.

Bank resurslarini har xil sohalarga joylashtirilganlik darajasini ko'rsatuvchi diversifikatsiya ham aktivlar sifatining mezonini hisoblanadi. Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalangan bo'lsa bank shunchalik likvidli hisoblanadi.

Bank depozit bazasining sifati ham bank likvidlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini bank tomonidan vakillik hisob raqamlariga, muddatli va jamg'arma omonatlariga jalb qilish orqali depozit bazasi shakllantiriladi. Depozitlar (talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli) barqarorligi ular sifatining mezonini belgilab beradi. Depozitlarning barqaror qismi qancha ko'p bo'lsa bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi, chunki aynan shu qismda resurslar bankdan chiqib ketmaydi. Depozitlar barqaror qismining ko'payishi bankning likvidli aktivlarga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi, ya'ni bunda majburiyatlar tiklanishi yuz beradi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tahlillar talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar kam darajadagi barqarorlikka ega ekanligini ko'rsatgan. Depozitning mazkur turi foiz stavkasiga bog'liq emas. Uning u yoki bu bankka tegishli bo'lishi ko'p jihatdan quyidagi faktorlarga bog'liq bo'ladi: mijozlarga taklif qilinadigan xizmatlarning turli xil bo'lishi va bankning mijozga yaqin joylashishi. Shuning uchun mijoz bankda yuqoridagi talablarni qanoatlantiruvchi hisob raqamlarni ochish bilan bir qatorda doimiy ravishda mablag'larni tassaruf qilish va to'ldirish yo'li bilan bank bilan uzoq muddatli aloqa o'rnatadi.

Xorij tadqiqotchilarning tahliliga ko'ra jamg'ariluvchi va muddatli depozitlar ko'proq darajada barqarorlikka ega bo'lishi ko'rsatilgan. Bu turdagi depozitlarning ma'lum bir bankda mavjud bo'lishiga foiz stavkasining miqdori katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu depozitlar har xil banklar

tomonidan o'rnatiladigan foiz stavkalarining ma'lum bir tebranishlari yuz bergan holda, migratsiya ta'siri ostida bo'ladi.

Shu bilan birga bank likvidligi banklararo kreditlardan tashkil topgan tashki manbalardan bog'liq bo'lishi bilan ham asoslaniladi. Banklararo kreditning belgilangan miqdorda mavjud bo'lishi bank likvidligini xavf-xatar ostiga qo'ymaydi, balki likvid aktivlarga bo'lgan qisqa muddatli tanqisliklarni bartaraf qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin banklararo kreditlar jalb qilingan resurslar tarkibida asosiy o'rinni egallasa banklararo bozordagi salbiy holat bankni inqirozga uchratishi mumkin.

Aktivlarning passivlar bilan miqdori va muddati bo'yicha mos kelishi bank likvidligiga jiddiy ta'sir qiladi. Bank, o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishda, omonatchilar tomonidan taqdim qilingan mablag'larning muddati, shu mablag'larni investitsiya qilish muddatiga mutanosib bo'lishi lozimligi yuzasidan kelishib olganligini anglashi lozim. Jalb qilingan resurslar hisobiga ishlayotgan banklar tomonidan bu qoidani inkor qilinishi kreditlari oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olmaslik holatiga olib keladi. Albatta, barcha depoiztlar birdaniga tassaruf qilinmaydi, ularning ma'lum bir qismi boshqa omonatlar tushumi hisobiga tiklanadi, ammo aktiv va passivlarning asosiy ulushi uchun bu qoidaga rioya qilinishi zaruriy hisoblanadi.

Bank likvidlik darajasiga bog'liq bo'lgan ichki faktorlardan biri bu menejment, ya'ni bank faoliyati, shu jumladan, likvidlikni boshqarish tizimi. Bankni boshqarish sifati bank siyosati mavjudligi va uning mohiyatida; strategik va joriy muammolarni yuqori darajada hal qilish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmaning mavjud bo'lishida; bankning aktiv va passivlarini boshqarishning munosib mexanizmini shakllantirishda; muhim qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning mohiyatini to'g'ri anglashda o'z ifodasini topadi.

Menejment yuqori darajada bo'lishi uchun yuqori toifali mutaxassislariga ega bo'lish, kerakli ma'lumotlar bazasini yaratish lozimligi va eng asosiysi bank faoliyatini boshqarishning ilmiy tizimini tashkil qilish muhimligi bank rahbariyati tomonidan to'g'ri anglab olinishi lozim.

Bank likvidligini ta'minlovchi faktorlardan yani biri bu bank imiji. Agar bank yaxshi imijga ega bo'lsa mablag'larni jalb qilish borasida boshqa banklarga nisbatan avfzalliklarga ega bo'ladi va bu bilan likvid mablag'larga bo'lgan tanqisligini bartaraf qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Bir holatda bank likvidligi muammosini depozitlar bazasining tarkibi va sifati, ikkinchi holatda aktivlar sifati va uchinchi holatda menejment hal qilsa, boshqa holatlarda bir qancha faktorlar majmuasi hal qilishi mumkin. Shuning uchun bank likvidligi muammosi ko'p faktorli ekanligini tan olish bilan bir

qatorida, uning individualligini va ma'lum bir banklar uchun muhim hisoblangan nozik tomonlarini aniqlab olishni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, bank likvidlik holati bank faoliyatidan tashqarida yotuvchi bir qator tashki faktorlarga ham bog'liq.

Bu faktorlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mamlakatning umumiy iqtisodiy va siyosiy holati;
- qimmatli qog'ozlar bozori va banklararo bozorning rivojlanganligi;
- qayta moliyalash tizimini tashkil qilinishi;
- mamlakatimiz Markaziy bankining nazorat funksiyalari effektivligi.

Mamlakatning umumiy siyosiy va iqtisodiy holati bank tizimining muvofaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va bank operatsiyalarini rivojlantirish uchun muhit yaratib beradi, bank faoliyati iqtisodiy asoslarining barqarorligini ta'minlaydi, mahalliy va xorij investorlarning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Sanab o'tilgan shart-sharoitlarsiz banklar muqobil depozit bazasini shakllantirish, operatsiyalarning rentabelligiga erishish, instrumentlar majmuasini rivojlantirish, aktivlar sifatini oshirish va boshqarish tizimini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish natijasida banklarda daromadlilikda yuqotishlarsiz sharti bilan likvidli aktivlarni shakllantirishning eng qulay usuli ta'minlanadi. Chunki ko'pchilik xorij mamlakatlarda bank aktivlarini pul mablag'lariga aylantirishning eng qisqa yo'li fond bozorlarining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq.

Banklararo bozorning rivojlanishi bo'sh pul resuslarini banklar o'rtasida tez qayta taqsimlash imkonini beradi. Bank o'zining likvidligini ta'minlash uchun banklararo bozordan har xil muddatga, shu jumladan bir kunga mablag'larni jalb qilishi mumkin. Banklararo bozordan mablag'larni olish tezligi umumiy moliyaviy konyunkturadan, banklararo bozorning tashkil qilinishiga va bank obro'siga bog'liq bo'ladi.

Demak bank likvidligi bu doimiy ravishda harakatda bo'luvchi ko'pgina faktorlarga bog'liq bo'lgan bank faoliyatining sifat xarakteristikasidir. Shuning uchun bank likvidligi o'zining xususiyati jihatidan muqobil faktorlar va tendensiyalarning ta'siri ostida xarakterlanuvchi va sekinlik bilan vujudga keluvchi dinamik holatni ifodalaydi.

8.2. Tijorat banklari likvidlik ko'rsatkichlari tavsifi

Har bir bank nazorat qiluvchi organing tavsiyalari va aniq (mavjud) bankning likvidligiga ta'sir qiluvchi spetsifik omillarni hisobga olishdan kelib chiqib likvidlik ko'rsatkichlar tarkibini o'zi belgilab oladi.

Ikki pog'onli bank tizimi tashkil qilinishi bilan tijorat banklari likvidligini baholash mexanizmi shakllantirildi. Bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish

maqsadida, yangi tashkil qilinayotgan banklar likvidligi davlat tomonidan tartibga solinishi muhimligi belgilab olindi. 1989-yilda sobiq ittifoq Davlat banki tomonidan ijro qilinishi majburiy bo'lgan tijorat va kooperativ banklar uchun bir qator me'yoriy ko'rsatkichlar o'rnatib berildi. Bu ko'rsatkichlar guruhini quydagilar tashkil qilardi: bank majburiyatlarini cheklash (K1); fuqarolar omonatlarini cheklash (K2); bank balansining joriy likvidligi (K4); bank balansining o'rta muddatli likvidligi (K5); bir qarzdorga bo'lgan xatarning maksimal miqdori (K3).

Bank majburiyatlarini cheklash K1 ko'rsatkichi bankning barcha majburiyalarining yig'indisi va uning o'z mablag'lari o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi. Mazkur bog'lanish bank o'z majburiyatlarini cheksiz oshirib borishi mumkin emasligini, ya'ni mablag'larni jalb qilishda bank domiy ravishda mazkur majburiyatlarni bajarilishga kafolat beruvchi o'z mablag'lariga asoslanishi lozimligini anglatadi. K1 ko'rsatkichi qiymati bank majburiyatlari umumiy yig'indisining uning o'z mablag'lari hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Bank majburiyatlari tarkibiga korxonalar, tashkilotlar va muassasalar hisob-kitob va joriy hisob raqamlari, yuridik shaxslarning omonat va depozitlari, aholi omonatlari, boshqa banklardan olingan qarzlarni, kafolat va kafilliklarning 50% miqdori kiritiladi.

Bankning zaxira va boshqa jamg'armalari, belgilangan ajratmalar keyingi foyda, bino va inshootlar qiymati, debitorlik qarzlarni, boshqa tashkilotlar ustaviy kapitalidagi ulushlarning yig'indisi yordamida bankning o'z mablag'lari miqdori aniqlanadi.

Har xil toifadagi banklar uchun K1 ko'rsatkichining differensial miqdori, ya'ni tijorat banklari uchun uning miqdori 1/20 va kooperativ banklari uchun 1/12 dan kam bo'lmay belgilangan.

K2 ko'rsatkichi fuqarolar omonatlari bo'yicha bank majburiyatlariga ma'lum bir chegaralarni o'rnatadi. Mazkur ko'rsatkichning miqdori fuqarolar omonatlarining bank o'z mablag'lariga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning me'yoriy qiymati 1 qilib belgilanib, har bir bank o'z mablag'lari hajmi miqdorida aholidan mablag'lar jalb qilishi mumkinligini bildirgan.

Keyingi K4 va K5 ko'rsatkichlari muddat bo'yicha tasniflangan aktivlar va passivlarni taqqoslash asosida joriy va o'rta muddatli likvidlikni tartibga solish uchun mo'ljallangan. K4 ko'rsatkichi likvidli aktivlarning 30 kun muddatgacha bo'lgan majburiyatlarga nisbati orqali aniqlangan. Bunda, likvidli aktivlar tarkibiga kassa va yo'ldagi pul mablag'lari, kredit muassasalari bo'yicha hisob-kitob hisob raqamlaridagi qoldiqlar, davlat obligatsiyalariga qilingan qo'yilmalar, 30 kun muddatga berilgan kreditlar kiritilgan.

Joriy majburiyatlarni talab qilib olinguncha depozitlar, 30 kungacha bo'lgan aholining muddatli omonatlari, bank tomonidan 30 kun muddatga

berilgan kafillik va kafolatlar tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichning me'yoriy miqdori 0,3 dan kam bo'lmasiligi belgilab berilgan. Belgilangan bu me'yorga asosan har bir bank joriy to'lovlar uchun qisqa muddatli majburiyatlarning 30% dan kam bo'lmagan likvidli aktivlariga ega bo'lishi lozim bo'lgan.

K5 ko'rsatkichi muddati bir yildan ortiq bo'lgan aktivlarning shu muddatli majburiyatlari nisbati orqali aniqlangan. Sobiq ittifoq Davlat Banki aktiv va passivlarning bu tarkiblari bo'yicha to'liq mutanosiblikka rioya qilishni, ya'ni banklarning K5 ko'rsatkichi miqdori birdan oshib ketmasligini talab qilgan.

Shu davr maboytida tijorat banklarining likvidligi K3 ko'rsatkichi, ya'ni bir qarzdorga bo'lgan maksimal xatarni cheklash orqali ham tartibga solingan.

K3 ko'rsatkichi bir qarzdor ssudalari bo'yicha yalpi majburiyatlarning (shu qarzdor bo'yicha berilgan balansdan tashqari majburiyatlarning 50%ni hisobga olgan holda) bankning o'z mablag'lariga nisbatini ifodalagan. Bu ko'rsatkichning me'yoriy miqdori 0,5 dan oshib ketmasligi lozim bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, tijorat banklari o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida likvidlikni optimal darajada ushlab turilishini ta'minlashlari lozim.

Likvidlik muammosi, uni davlat tomonidan tartibga solinishi va banklar tomonidan boshqarish banklar paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan va hozirgi kunda milliy bank tizimiga ega bo'lgan har bir mamlakatda mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida asosiy qiziqish kasb etgan banklarning barcha aktiv faoliyatlari, ya'ni barcha bank operatsiyalaridan pul mablag'larini topish, bank likvidligi talablarini bajarish, shuningdek, ishonchlilik va barqarorlikka erishish maqsadida likvidlikni ta'minlash usullari muhim ahamiyatga ega.

Makroiqtisodiyot nuqtayi nazaridan banklarning likvidlikni boshqarilishi davlat tomonidan tartibga solish orqali to'ldirib boriladi. Markaziy bank tomonidan likvidlik me'yorlari va ko'rsatkichlarini belgilab berilishi, ularning bajarilishi ustidan nazorat qilishi va banklarning faoliyat ustidan umumiy nazorat qilish orqali davlat bank tizimi barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qiladi, ya'ni pul-kredit siyosatini amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati sohasidagi vakolati, tijorat banklari ustidan nazorat qilish va tartibga solish funksiyalaridan kelib chiqib tijorat banklari uchun quyidagi likvidlikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab berdi.

Bank likvidligi tahlil qilinganda ma'lum bir muddat oralig'ida (oylik, chorak, yillik) likvidlik koeffitsiyentlarining o'zgarish dinamikasiga e'tibor

berish kerak. Bunda likvidlik koeffitsiyentlari o'zgarishining qonuniyatini aniqlash va ularning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning majburiy tartibda nazorat qilish pozitsiyasidan qaralganda K_1 ko'rsatkichining minimal qiymatini ushlab turish bu omonatchilar manfaatini bevosita davlat tomonidan himoyalash shakli hisoblanadi.

2. *Lahzali likvidlik* (K_2) koeffitsiyenti bankning yuqori likvidli aktivlar yig'indisining, bankning talab qilib olinguncha hisob raqamlari bo'yicha majburiyatlar yig'indisiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_2=(L_2/M_{t2})*100\% \quad (2).^{1*}$$

Bu yerda, L – yuqori likvidli aktivlar (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali aniqlanadi),

M_{t2} – talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar.

Mazkur majburiyatlarning asosiy summasi Markaziy bank metodikasi orqali aniqlanadi va bunga bank tomonidan chiqarilgan talab qilib olinguncha veksellar ham kiritiladi.

K_2 koeffitsiyentining miqdori 20%dan kam bo'lmasligi kerak.

Iqtisodiy mohiyati jihatidan mazkur ko'rsatkich bankning joriy daqiqalarda omonatchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini bildiradi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida birinchi bor tadbir qilinmoqda, shuning uchun uni joriy qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.

3. Uzoq muddatli likvidlik (K_3) koeffitsiyenti bank tomonidan bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar yig'indisining bank kaptaliga, shuningdek, bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlariga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_3=(K_{yo}/(K+M_{yo}))*100\% \quad (3),$$

bu yerda, K_{yo} – milliy va xorij valyutasida bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar, shuningdek, bir yildan ortiq muddatga bank tomonidan berilgan kafillik va kafolatlarning 50%;

M_{yo} – bankning bir yildan ortiq muddatga olgan kreditlari va shu muddatli boshqa qarz majburiyatlari;

K – bank kapitali.

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 2-noyabrdagi «Tijorat banklari likvidligini tartibga solish to'g'risida»gi 421-sonli Nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2000-yil 26-apreldagi 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarilgiga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida»gi Tartibiga muvofiq majburiy bo‘lgan ko‘pgina iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda foydalaniladi. Kapitalning qiymati ustav fondi, bankning fondlari, taqsimlanmagan foyda, kapital xarajat bilan bog‘liq bo‘lgan kamaytirishlar, zararlar, qayta sotib olingan xususiy aksiyalari va 30 kundan ortiq bo‘lgan debitorlik qarzlari yig‘indisidan tashkil topadi.

Ustav fondi balansning passiv qismida bo‘lib, bank tomonidan qarz majburiyatlarini bajarilishin kafolatlaydi va uning likvidligini va barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlaydi.

K_3 ko‘rsatkichining maksimal qiymati 120% miqdorida belgilangan.

K_3 koeffitsiyentning iqtisodiy mohiyati K_1 va K_2 ko‘rsatkichlarnikiga o‘xshash bo‘lib, bank faoliyatini uni likvidlik bilan ta‘minlashi yuzasidan tartibga solib turadi.

4. *Likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati* (K_4) koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_4=(LA/A)*100\% \quad (4),$$

Bu yerda, A – bank balansining barcha aktivlari yig‘indisi, Markaziy bank metodikasi asosida aniqlanadi.

K_4 ko‘rsatkichining minimal qiymati 20% miqdorida belgilanadi.

Iqtisodiy mohiyati jihatidan mazkur ko‘rsatkich bankning aktiv operatsiyalari bo‘yicha daromadlilik yuqori va likvidlik kerakli darajada bo‘lishi uchun aktivlar tarkibini iqtisodiy muvofiq bo‘lgan qanday proporsiyalarda ushlab turish lozimligini bildiradi. K_4 ko‘rsatkichi 20%dan kam bo‘lishi, likvidlik boshqarilishi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi va o‘z faoliyatini samarali amalga oshirilmayotganligidan darak beruvchi bankning aktiv operatsiyalaridan daromad olishda yuqotishlarga yo‘l qo‘yilishini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan bir talay huquqiy va me‘yoriy hujjatlar tizimi mam-lakatimiz tijorat banklarining faoliyatini amalga oshirishda va likvidligini tartibga solishda yetarlicha kuchli baza shakllantirilganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlarga asoslangan holda o‘zlarining ichki me‘yoriy hujjatlarini joriy qilish orqali bankning likvidligini tartibga solish, mablag‘larni jalb qilish va joylashtirish va boshqa faoliyatlarini doirasini, imkoniyatlarini va rejalarini belgilab oladilar. Bunda, tijorat banklari bank likvidligini boshqarishda Hukumat va Markaziy bank tomonidan belgilab berilgan ma‘lum bir iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarga rioya qilishlari shartligi va bankning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ichki siyosatini belgilab olishi lozim bo‘ladi.

Rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan ko'pchilik mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham tijorat banklari likvidligini boshqarilishining huquqiy va me'yoriy bazasini shakllantirishda Xalqaro Bazel Qo'mitasi talablari va tavsiyalaridan keng ko'lamda foydalanilgan. Mamlakatda huquqiy bazani bunday tartibda shakllantirish milliy bank tizimini xalqaro andozalarga yanada yaqinlashtirishga qilingan harakat deb baholash mumkin.

8.3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari

Bank likvidligini tahlil qilish quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- bank likvidligining koeffitsiyentlarini hisoblash tizimi to'g'riligini va to'liqligini tasdiqlash;
- bank holati bo'yicha xulosalarni shakllantirish;
- bank balansi likvidligining yomon holatga kelayotganligidan darak beruvchi real va salbiy potensial tendensiyalarni aniqlash;
- salbiy tendensiyalarni vujudga keltirgan omillarni tahlil qilish;
- bank balansi likvidligini tahlil qilish va tekshirish natijalariga ko'ra bank uchun takliflarni belgilab olish.

Yangi tashkil qilinayotgan tijorat banklari uchun ustav kapitalning minimal miqdori va tashkil qilingan banklar uchun kapitaldagi shaxsiy mablag'larining minimal miqdori;

kapitalning yetarlilik normativlari;

likvidlik normativlari;

bir qarzdorga yoki qarzdolar guruhiga bo'lgan xatarning maksimal miqdori;

yirik kreditlar xatarining maksimal miqdori;

bitta kreditorga (omonatchiga) bo'lgan xatarning maksimal miqdori;

aholidan jalb qilingan mablag'larning maksimal miqdori va hokazo.

Bu ko'rsatkichlar orasida likvidlik normativlari muhim ahamiyatga ega, chunki ularning miqdori ko'p jihatdan bankning depozit va kredit siyosatining samarali yuritilishiga bog'liq bo'ladi. Banklar likvidlik ko'rsatkichlarining minimal miqdorini ushlab turishga harakat qiladi, chunki bunda likvidlik va yuqori daromadlilik ko'rinishdagi qarama-qarshilik sharoitida optimal qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 2-noyabrdagi «Tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo'yicha qo'yilgan talablar to'g'risida»gi 421-sonli Tartibda likvidlik normativlari berilgan (joriy, lahzalik va uzoq muddatli likvidlik). Mazkur ko'rsatkichlar tizimidan likvidlik normativining

joriy likvidlik ko'rsatkichini o'tgan oxirgi besh yil davr maboynida mamlakatimizning yirik va kichik tijorat banklari misolida ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasida joriy likvidlik ko'rsatkichining minimal miqdori 30% miqdorida belgilangan.

Joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblashda tijorat banklarning oxirgi 5 yil, ya'ni 2005–2009-yillar maboynidagi yillik balanslaridan foydalaniladi. Mazkur koeffitsientni hisoblashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining metodikasi, shuningdek, jalb qilingan mablag'lar va aktivlarning muddati va miqdori bo'yicha tarkibiy ma'lumotlari asos qilib olindi. Shuningdek, hisoblangan ma'lumotlar asosida joriy likvidlik koeffitsiyentining 2005–2009-yillar maboynida dinamikasi o'rganib chiqildi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

1) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali hisoblanadigan likvidli aktivlar, yaqin 30 kun muddatga milliy va chet-el valyutasida berilgan kreditlar (hech bo'lmaganda bir marta prolongatsiya qilingan ssudalar bundan mustasno), shuningdek, bank foydasiga bo'lgan yaqin 30 kun ichida amalga oshiriladigan to'lovlar;

2) Talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki metodikasi orqali hisoblanadi, bunda boshqa kredit tashkilotlaridan 30 kun muddatga olingan kreditlar va bank tomonidan 30 kun muddatda majburiyatlarni o'z zimmasiga olish bo'yicha kafolat va kafilliklarning 50% ni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar Markaziy bankning metodikasi bo'yicha va tijorat banklarning balans ma'lumotlari asosida hisoblandi. 2010–2011-yillar maboynida tijorat banklarining joriy likvidlik koeffitsiyentlari yillar bo'yicha quyidagicha bo'lganligi aniqlandi.

8.1- jadval

Tijorat banklarning 2007–2011-yillar maboynida joriy likvidlik koeffitsiyenti

(yil oxiriga)

Tijorat banklari	2007 y. holatiga koeffitsiyent, (%)	2008 y holatiga koeffitsiyent, (%)	2009 yil holatiga koeffitsiyent, (%)	2010 y holatiga koeffitsiyent, (%)	2011 y holatiga koeffitsiyent, (%)
OATB«O'zsanoatqurilishbank»	58,5	83,5	85,7	80,7	54,3
O'z R DT «Xalq banki»	72,4	68,4	95,0	75,6	86,9

Demak, 2007–2011-yillarda OATB «O‘zsanoatqurilishbank»ning joriy likvidlik koeffitsiyenti mos ravishda 58.5%, 83.5%, 85.7%, 54.3% ni va O‘zR DT Xalq bankining joriy likvidlik o‘rtacha koeffitsiyenti mos ravishda 72.4%, 68.4%, 95%, 75.6% va 86,9% ni tashkil qilgan. Mazkur koeffitsiyentning optimal belgilangan miqdori 30% ni tashkil qiladi.

Mazkur tijorat banklarida joriy likvidlik koeffitsiyentining belgilangan me‘yorga nisbatan 2007–2011-yillar maboynida o‘zgarishini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi holatni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi:

Birinchidan, tahlil davrida banklarning likvidlik ko‘rsatkichlari belgilangan normativdan ancha yuqori, hattoki ba‘zi davrlarda 2,5; 3 barobar ko‘p. Ikkinchidan, ushbu holat banklarning to‘lov qobiliyati ancha yuqori darajada ekanligini bildiradi va uchinchidan, likvidlik ko‘rsatkichining ancha yuqori darajadali bank aktivlarining asosiy qismi likvid, lekin daromad keltirmaydigan aktivlar tashkil etishini isbotlaydi.

8.2-jadval

2007–2011-yillar davomida tijorat banklarining joriy likvidlik koeffitsiyentining belgilangan me‘yorga nisbatan o‘zgarishi

(yil oxiriga)

Banklar	2007		2008		2009		2010		2011	
	Haqiqatda	Belgilangan me‘yorga nisbatan farqi (+,-)	Haqiqatda	Belgilangan me‘yorga nisbatan farqi (+,-)	Haqiqatda	Belgilangan me‘yorga nisbatan farqi (+,-)	Haqiqatda	Belgilangan me‘yorga nisbatan farqi (+,-)	Haqiqatda	Belgilangan me‘yorga nisbatan farqi (+,-)
OATB «O‘z-sanoat-qurilish-banki»	58,5%	1,95	83,5%	2,8	85,7%	2,9	80,7%	2,7	54,3%	1,8
DT «Xalq banki»	72,4%	2,4	68,4%	2,3	95%	3,2	75,6%	2,5	86,9%	2,9

Mazkur jadval ma‘lumotlariga ko‘ra ko‘rib chiqilayotgan banklarning joriy likvidlik koeffitsiyentlari belgilangan me‘yordan (joriy likvidlik koeffitsiyentining optimal belgilangan me‘yori 30%) bir necha barobar oshib ketgan. Jumladan, OATB «O‘zsanoatqurilishbank»da 2007-yilda joriy likvidlik koeffitsiyenti 1.95 punktga, 2008-yilda 2.8 punktga, 2009-yilda 2.9 punktga, 2010-yildda 2.7 punktga va 2011-yilda 1.8 punktga oshgan.

DT «Xalq banki»da joriy likvidlik koeffitsiyenti 2007-yilda 2,4 punktga, 2008-yilda 2,3 punktga, 2009-yilda 3,2 punktga, 2010-yilda esa 2,5 punktga va 2011-yilda 2,9 punktga oshgan.

OATB «O‘zsanoatqurilishbanki»ning joriy likvidlik koeffitsiyenti tahlilining natijaridan xulosa qilish mumkinki, mazkur bank yuqori likvidli hisoblanadi. Bu holatda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari har tomonlama himoyalangan. Ammo, joriy likvidlik koeffitsiyentining haddan tashqari yuqori bo‘lishi bankda ortiqcha resuslar muammosi mavjudligidan dalolat beradi. Mazkur muammo daromadlilik darajasini pasaytiradi va bu o‘z urinda mazkur bank aksionerlarining talabiga javob bermaydi. OATB «O‘zsanoatqurilishbanki»da joriy likvidlik koeffitsiyentining bunday tarzda ko‘payib ketishiga asosiy sabab, kassa va boshqa kassa hujjatlari, O‘zRMBdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hisob raqamlarida haddan tashqari pul mablag‘larini saqlashdandir. Jumladan, 2007-yilning 31-dekabr holatiga kassa hisobraqamlarda – 5 889,0 mln so‘m, O‘zMBdan olinishi lozim bo‘lgan hisobraqamlarda – 5 495,0 mln. so‘m; 2008-yil 31-dekabr holatiga kassada – 20 569,2 mln. so‘m, O‘zMBdan olinishi lozim bo‘lgan hisobraqamlarda – 9 927,7 mln. so‘m; 2009-yil 31-dekabr holatiga kassada – 16 150,2 mln. so‘m, O‘zMBdan olinishi lozim bo‘lgan hisobraqamlarda-29 878,8 mln. so‘m va hokazo.

Tahlilimizning to‘laqonliligini ta‘minlash maqsadida biz bankning aktivlari va majburiyatlari tarkibiga e‘tibor qaratmog‘imiz lozim. Aktivlar va majburiyatlar tarkibi hamda dinamikasini o‘rganish asosida ularni belgilangan maqsadlarga erishish uchun tarkibiy o‘zgartirish to‘g‘risida asoslangan qaror qabul qilishga zamin yaratadi.

8.3-jadval

**«B» Bankning 2007–2011-yillar maboynida
aktivlar va majburiyatlari to‘g‘risida
ma‘lumot**

(yil oxiriga, mln.so‘m)

	2007	2008	2009	2010	2011
Aktivlar					
Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari	5 889,0	20 569,2	16 150,2	18 432,1	31 038,9
O‘zRMBdan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar	5 495,0	9 927,7	29 878,8	28 935,1	45 517,7

Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	27 082,6	28 525,1	31 410,1	74 137,8	79 099,9
Sotish-sotib olish hisobraqamlari	3 659,4	3 963,7	3 355,4	2 727,8	2 513,8
Ssuda va lizing operatsiyalari	121564,6	163324,5	181802,5	232615,5	305106,2
Sof investitsiyalar	248,1	537,0	614,0	818,6	1 941,3
Asosiy vositalar	4 512,2	7 738,5	11 246,3	15 849,0	21 483,1
Olish uchun hisoblangan foizlar	1 325,1	2 012,3	4 228,4	5 455,9	6 449,0
Bankning boshqa mulki	0,0	2,5	337,6	601,3	499,2
Boshqa aktivlar	4 420,1	3 074,4	5 745,0	6 336,9	28 553,2
Jami aktivlar	174 196,0	239 675,0	284 768,3	385 909,9	522 202,3
<i>Aktivlarning o'sish sur'ati</i>	<i>100%</i>	<i>137.6%</i>	<i>118.8%</i>	<i>135.5%</i>	<i>135.3%</i>
Majburiyatlar					
Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar	48 871,9	67 362,5	66 380,3	115154,7	187733,6
Jamg'arma depozitlari	516,1	260,5	4 586,3	28 042,9	23 785,5
Muddatli depozitlar	8 402,0	20 922,6	22 793,1	13 372,2	48 406,2
Boshqa banklarga to'laniladigan mablag'lar	1 352,2	1 503,3	2 260,7	1 088,8	10 381,9
To'lanilishi lozim bo'lgan ssudalar	87 622,8	111737,3	120738,3	140390,2	147176,6
To'lash uchun hisoblangan foizlar	48,9	283,4	344,8	642,3	908,0
Boshqa majburiyatlar	7 653,4	9 414,3	32 610,7	46 637,2	56 119,1
Jami majburiyatlar	154467,3	211484,0	249714,2	345328,2	474510,8
<i>Majburiyatlarning o'sish sur'ati</i>	<i>100%</i>	<i>136.9%</i>	<i>118.2%</i>	<i>138.1%</i>	<i>137.4%</i>

Demak, yuqoridagi tahlil natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, mazkur bankda aktiv va passivlarni boshqarish siyosati samarasiz amalga oshirilmogda.

8.4-jadval

«A» bankning 2008–2010-yillar davr uchun aktiv va majburiyatlar bo'yicha ma'lumot

(yil oxiriga, mln. so'm)

	2008	2009	2010	2011
Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari	22842,4	4 681,7	4 199,6	17 097,5
O'zRMBdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	3 907,4	860,5	1 211,9	4 322,1
Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	4 122,1	4 504,1	4 847,3	19 876,5
Sotish-sotib olish hisobraqamlari	5,3	8,6	0,0	0,5
Sof ssuda va lizing operatsiyalari	12864,1	12141,6	15 288,2	24 403,1
Sof investitsiyalar	397,2	2 226,8	3 999,4	2 747,9
Asosiy vositalar	7 764,2	9 488,0	10 076,8	10 323,9
Olish uchun hisoblangan foizlar	306,3	955,6	2 041,0	2 257,9
Bankning boshqa mulki	36,4	435,3	617,5	334,2
Boshqa aktivlar	40691,2	63293,2	60 564,2	101790,4
Jami aktivlar	92936,6	98595,4	102845,9	192570,5
Aktivlarning o'sish sur'ati	100%	106%	104%	187%
Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar	40647,2	29668,4	27 886,1	40 736,7
Jamg'arma depozitlari	9 166,6	12908,8	4 056,2	8 096,8
Muddatli depozitlar	4 859,5	6 252,9	6 373,8	20 239,9
Boshqa banklarga to'laniladigan mablag'lar	0,0	0,0	300,0	0,0
To'lanilishi lozim bo'lgan ssudalar	195,0	609,6	1 671,8	5 850,2
To'lash uchun hisoblangan foizlar	235,5	200,1	460,6	431,7
Boshqa majburiyatlar	27138,7	34937,3	46 612,5	101657,0
Jami majburiyatlar	82242,3	84577,1	87 360,9	177012,3
Aktivlarning o'sish sur'ati	100%	103%	103%	203%

«A» bankda joriy likvidlik koeffitsiyentining tahlil natijalari ko'rib chiqilganda mijozlar manfaati himoyalangan, lekin mazkur koeffitsiyentning

belgilangan me'yordan o'tib ketganligi ortiqcha resurslar mavjud bo'lish bilan bog'liq muammo mavjudligidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, bu muammo «A» bankning daromadlilik darajasini pasaytirib ta'sischi talabiga javob bermaydi. «A» bankning joriy likvidlik koeffitsiyentining bunday sur'atlarda oshib ketishining asosiy sababi kassa, vakillik hisobraqamda va boshqa aktiv hisobraqamlarda pul mablag'larini ko'p miqdorda harakatsiz ushlab turishi natijasidir. Jumladan, 2007-yilning 31-dekabr holatiga kassa hisob raqamlarda 22 842,4 mln. so'm, muxbirlik hisobraqamda 3907,4 mln. so'm, boshqa aktiv hisob raqamlarda 40 691,2 mln. so'm; 2008-yil 31-dekabr holatiga kassa hisob raqamlarda 4 681,7 mln. so'm, muxbirlik hisobraqamda 860,5 mln. so'm, boshqa aktiv hisob raqamlarda 63 293,2 mln. so'm; 2009-yil 31-dekabr holatiga kassa hisob raqamlarda 4 199,6 mln. so'm, muxbirlik hisobraqamda 1 211,9 mln. so'm, boshqa aktiv hisob raqamlarda 60 564,2 mln. so'm; 2010-yil 31-dekabr holatiga kassa hisob raqamlarda 17 097,5 mln. so'm, muxbirlik hisobraqamda 4 322,1 mln. so'm, boshqa aktiv hisob raqamlarda 101 790,4 mln. so'm.

Tahlil natijalariga asosanib xulosa qilish mumkinki, Davlat-tijorat Xalq bankida mablag'larni jalb qilish va ularni samarali joylashtirish siyosati yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Bu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bankning kassa va boshqa kassa hujjatlari hisobraqamdagi, muxbirlik hisobraqamdagi va boshqa aktivlardagi pul mablag'larini ma'lum bir qismini optimal joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Yuqoridagi xulosalarni tasdiqlash maqsadida 2008–2011-yillar davomida mazkur banklarning jami aktivlardagi joriy likvidli aktivlar (kassa, NOSTRO-vakillik hisobraqamlari, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar)ning salmog'ini va uning dinamikasini ko'rib chiqamiz.

8.5-jadval

Tijorat banklari joriy likvidli aktivlarining jami aktivlardagi dinamikasi

(yil oxiriga)

Ko'rsatkich nomi	2007	2008	2009	2010	2011
DT Xalq banki	49%	27%	25%	35%	35%
OATB «O'zsanoatqurilishbank»	22%	25%	27%	31%	30%

Jadval ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, DT Xalq bankida 2007-yilda joriy likvidli aktivlari jami aktivlarning 49% ni, 2010–2011-yillarda 35% ni tashkil qilgan. Joriy likvidli aktivlarni jami atktivlar tarkibida bunday miqdor-

larda ushlab turish mablag'larni optimal joylashtirilmaganligidan, bankning daromadlilik darajasi pastligini bildiradi va joriy likvidlik koeffitsiyentining belgilangan me'yordan oshib ketishiga sabab bo'ladi.

AT «O'zsanoatqurilishbank»da joriy likvidli aktivlar jami aktivlarda oxirgi besh yil davomida mos ravishda 22%, 25%,27%,31% va 30% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar ham joriy likvidli aktivlarning salmog'i haddan tashqari yuqoriligini va resurslar optimal joylashtirilmaganligidan dalolat beradi. Demak, bu holat ham o'z navbatida bankning joriy likvidlik koeffitsiyentining belgilangan me'yoridan oshib ketishiga sabab bo'lgan.

Yuqoridagi tahlillardan aytish mumkinki, mazkur tijorat banklarida jalb qilingan resurslarni samarali joylashtirish siyosati olib borilmasdan, yuqori likvidli va daromad keltirmaydigan aktivlarda saqlab kelinmoqda.

9-BOB.

TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY NATIJALARI TAHLILI

9.1. Bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlilining asosiy vazifalari

9.2. Tijorat banklari foydasining tahlili

9.3. Tijorat banklari faoliyatining rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili

9. 1. Bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlilining asosiy vaziflari

Tijorat banklari bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi barcha subyektlar kabi, faoliyatidan olgan daromadlaridan qilgan sarf-xarajatlarni qoplab, ma'lum miqdorda foyda olishlari lozim. Foyda–tijorat banklari faoliyatlarining yakuniy natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichdir. Tijorat banklari foydasi yoki faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo'lsa, zarari ushbu hisobot davrida (oy, chorak, yil) barcha daromadlaridan xarajat hamda soliq va to'lovlarni chiqarib tashlangandan qolgan summani tashkil etadi.

Tijorat banklari faoliyatlari davomida oladigan daromadlari va bo'ladigan xarajatlari turlarini oldingi mavzularda kengroq yozganmiz, qolaversa «Bank ishi» va boshqa o'qitiladigan fanlardan mufassal o'rganib olgansiz. Tijorat banklari daromadlari ikki guruhga: foizli va foizsiz daromadlarga ajratiladi. Bank daromadlari tijorat banklari mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar uchun olingan foizlar, maboda kreditlarni vaqtida qaytarmagan tarzda mijozlardan yuqori stavkalar bo'yicha olinadigan foiz daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalaridan olingan daromadlar, turli xil investitsiyalar bo'yicha olingan daromadlar kabilar foizli daromadlarga kiradi. Banklar olgan xizmat haqi, savdo va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar – foizsiz daromadlar bo'ladi. Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilganda – foydaning asosiy manbai bo'lgan daromadlarning tarkibi va o'zgarishini chuqur o'rganish lozim.

Tijorat banklari xarajatlari ham foizli xarajatlar va operatsion xarajatlarga guruhlanadi. Tijorat banklari depozitlarga, olingan kreditlarga, qimmatbaho qog'ozlarga to'lanadigan foiz va shu kabilarga –foizli xarajatlar deyiladi. Ti-

torat banklariga ko'rsatilgan xizmatlarga (transport, suv, gaz, elektroenergiya va shu kabilarga), xodimlarga ish haqi, ma'muriy-boshqaruv xarajatlarga-operatsion xarajatlar deyiladi. Banklar moliyaviy natijalar tahlilida bu xarajatlarning zarurligi, o'tgan davrlar bilan o'zgarganligi, tejamkorlikga rioya qilinganligi o'rganiladi. Xullas, tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili, ularning daromad va xarajatlari tahlili bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi lozim ekan.

Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni asosan, banklar buxgalterlik balansi, «Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot»lardan, hamda audit tekshiruvi, yig'ilishlar bayonnomalaridan, zarurat tug'ilganda buxgalteriya hisobining analitik yozuvlaridan olish mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- faoliyat moliyaviy natijalarini (foyda yoki zarar) aniqlash;
- foydaning belgilangan rejaga mosligi va o'tgan davrlardan farqini o'rganish;
- foydaning tarkibi: daromadlar, xarajatlar miqdori va tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish hamda ularning sabablarini aniqlash;
- faoliyat davomida tejamkorlikga rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- xarajatlarni va daromadlarni optimallashtirish orqali foydasni ko'paytirish ichki imkoniyatlarini aniqlash va shu kabilar. Ushbu vazifalar tahlili kelgusida to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

9. 2. Tijorat banklari foydasining tahlili

Tijorat banklari foydasini tahlil qilganda, daromadlari xarajatlari turlari hamda tarkibiga e'tibor qaratiladi. Eng avvalo, hisobot davridagi olingan haqiqiy foyda summasi reja bilan taqqoslanib, undan ko'p yoki kam ekanligi aniqlanadi va farqlar sabablari o'rganiladi. Bank foydasini shakllantiruvchi daromad, xarajatlar tarkibi o'tgan yillar bilan taqqoslanadi.

Respublika aksiyadorlik-tijorat banki «Savdogarbank» faoliyat natijalari 2011-yilda 564037,0 ming so'm sof foyda bilan yakunlangan. Respublika hududida ko'pgina bo'limlari bo'lgan bu bankning faoliyatidan olgan bunday summadagi foydasiga baho berish uchun (umuman olganda foydali ishlaganligi yaxshi ko'rsatkich) o'tgan yilgi ma'lumotlar bilan taqqoslash lozim. «Savdogarbank» hisobotiga ko'ra o'tgan – 2010-yilda -250952,0 ming so'm sof foyda olgan. Demak, bank 2011-yilda 2010-yilga nisbatan faoliyatini 2

baravardan ko‘proq foyda olish bilan yakunlagan. Bularning sababini chuqur o‘rganish uchun, daromadlar, xarajatlar tarkibini o‘rganish va tahlil qilish zarur (9.1-jadvalga qarang).

Jadval ma’lumotlaridan, «Savdogarbank» foyda summasini qaysi manbalardan ko‘paytirganligi, nimalardan xarajatlar ko‘payganligi ko‘rinib turibdi. Bankning foizli daromadlari 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 126,9 % ko‘paygan bo‘lsa, foizli xarajatlari – ushbu davrda 140,3 foizga ko‘paygan. Demak, foizli xarajatlarning o‘sish (ko‘payish) sur‘ati juda yuqori, bunday yo‘l tutib borilaversa bo‘lmaydi. Natijada sof foizli daromadlar bo‘yicha ko‘rilgan natija 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan faqat 16,1% ga o‘sgan (daromadlar-26,9% o‘sganligiga qaramasdan).

Bank 2011-yilda kreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan ehtimoli zararlarga qarshi shakllantirilgan zaxiralarga 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 2 baravardan kamroq summa (48,5%) ajratgan. Shunday qilib, foizli daromadlar summasini biroz oshirgan. Lekin bank foizsiz daromadlarini 2010-yilga nisbatan kamaytirib yuborgan (51044,0 ming so‘mga). Natijada shungacha bank foydasi o‘tgan yilga nisbatan kamaygan. Tijorat banki operatsion xarajatlar summasini ko‘paytirmaslik choralarini ko‘rgan. Natijada bu xarajatlar 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan faqatgina 107,9% gagina o‘sgan. Tijorat bank bo‘limlarida foizli va foizsiz daromad turlarini ko‘paytirishning ichki imkoniyatlarini topish lozim.

9.1-jadval

**«A» bank moliyaviy
natijalarining tahlili**

(yil boshiga, mln. so‘m)

№	Moddalar	O‘tgan yil	Joriy yil	O‘zgarishi	
				so‘mda	% da
1	Foizli daromadlar – jami	5541,9	7037,8	1495,9	126,9
2	Foizli xarajatlar – jami	2491,5	3496,6	1005,0	140,3
3	Sof foizli daromadlar	3050,3	3541,2	490,0	116,1
4	Kreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy zararlarga qarshi shakllantirilgan zaxirani baholash	381,6	185,0	-196,6	48,5

5	Zaxirani baholashni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan sof foizli daromad	2668,7	3356,2	687,5	125,7
6	Foizsiz daromadlar – jami	1963,2	1912,2	– 51,0	97,4
7	Operatsiya xarajatlari – jami	3930,0	4241,3	310,7	107,9
8	Daromad (foyda) solig'i to'languncha bo'lgan sof foyda (zarar)	701,4	1027,1	325,7	146,4
9	Daromad (foyda) solig'i	450,4	463,1	12,7	102,8
10	Sof daromad (zarar)	251,0	564,0	313,0	224,7

Joriy yilda bankning sof foydasi 313,0 mln. so'mga, ya'ni 224,7 foizga o'sgan. Bunga asosan foizli daromadlarning o'sishi va ehtimoliy zaxiralarning kamayishi ta'sir etgan.

9.3. Tijorat banklari rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili

Tijorat banklari foyda summaları bo'yicha sifat (reyting) baho berib bo'lmaydi. Chunki kichik, o'rta va yirik banklar mavjud. Misol: bir yilda bir bank 640 000,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, ikkinchi bank esa 680 000,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, ikkinchi bankni foydali ishlayapti deb baho berib bo'lmaydi. Chunki birinchi bank faoliyati jihatidan kichik, ikkinchi bank esa juda katta faoliyat yurituvchi bank bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham banklarning rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil qilinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari nisbiy ko'rsatkich bo'lib, foyda summasini barcha aktivlari, o'z sarmoyasi summalariga bo'lish bilan aniqlanadi.

Tijorat banklarining mavjud barcha mablag'larni to'g'ri joylashtirib ulardan foydalanish darajasi aktivlar rentabelligi bilan o'lchanadi. Bank aktivlarining rentabelligi (B.A.R.) sof foyda summasini (sf) barcha aktivlar summasiga (balans jami summasi) bo'lib topiladi.

$$BAR = \frac{sf \times 100}{BA}; \text{ bu yerda } BA - \text{ barcha aktivlar.}$$

«A» bank bo'yicha bu ko'rsatkichlar:

2010-yilda $BAR = 250952:40021498 \times 100 = 0,62\%$

2011-yilda $BAR = 564037:37349977 \times 100 = 1,51\%$

Demak, ushbu ko'rsatkich bo'yicha bank 2011-yilda o'sishga erishgan, ya'ni 0,62 % dan 1,51% gacha ko'tarilgan.

Tijorat banklari kapitalining samaradorligi

9.2-jadval

(yil boshiga, mln.so‘m)

Tijorat banklari	Sof foyda		Xususiy kapital		sf. / xususiy kapital	
			Joriy yil	O‘tgan yil	Joriy yil	O‘tgan yil
O‘zsanoatqurilish-bank	2697,5	2528,1	30777,1	30283,6	9,7	8,3
Aloqabank	890,4	699,7	4260,5	3818,0	25908,9	19624,1
Savdogarbank	564,0	251,0	4276,8	4194,7	13,2	6,0
Kapitalbank	538,9	298,0	2084,5	1565,6	28,0	19,0
O‘ktambank	82,0	94,9	1545,9	1572,1	5,3	6,3

9.3-jadval

(mln.so‘m)

Tijorat banklari	Sof foyda		sf. / j. kapital(ROE)		sf. / aktiv (ROA)	
			2011	2010	2011	2010
O‘zsanoatqurilish-bank	2697,5	2528,1	9,7	8,3	0,67	0,81
Aloqabank	890,4	699,7	25908,9	19624,1	4,53	3,56
Savdogarbank	564,0	251,0	13,2	6,0	1,51	0,63
Kapitalbank	538,9	298,0	28,0	19,0	5,63	3,66
O‘ktambank	82,0	94,9	5,3	6,3	3,00	3,50

Tijorat banklari aktivlarining samarali foydalanishini boshqa tijorat banklari ko‘rsatkichlari bilan qiyoslab (taqqoslab) tahlil qilish yaxshi natijalarni beradi.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, rentabellik ko‘rsatkichlari tijorat banklari bo‘yicha juda xilma xil. Bu ko‘rsatkich banklarda 2010-yilda 3,66 % dan (Kapitalbank) 0,63% gacha (Savdogarbank), ya‘ni 5,8 baravar farq qiladi. 2011-yilda esa Savdogarbank rentabellik ko‘rsatkichi yaxshilanib, to 1,51% gacha ko‘tarilgan. Aktivlar rentabelligi bo‘yicha 2011-yilda eng past daraja O‘zsanoatqurilishbankida bo‘lib, 0,65 % ni tashkil etgan va Kapitalbank ko‘rsatkichidan 8,4 baravar (Kapitalbank – 5,63 %) past. Tahlil qilinayotgan 2010–2011-yillarda aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi O‘zsanoatqurilishbank (2010-yil -0,81%, 2011-yil -0,67 %) va O‘ktambank (2010-yil -3,50 %, 2011 yil -3,00%) larda pasaygan, qolgan banklarda esa ko‘tarilgan.

Tijorat banklarida xususiy kapital rentabelligi ko‘rsatkichi ham ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkich (XKr) bankning sof foyda summasini (sf) 100 ga ko‘paytirib (foizda) xususiy kapital (XK) o‘rtacha qiymatiga bo‘lib topiladi.

$$XKr \frac{sfx100}{xk} ;$$

Biz tahlil qilayotgan «Savdogarbank»da bu ko‘rsatkich 2010-yildagi 6,0 % dan, 2011-yil – 13,2 % gacha ko‘tarilgan.

NAZORAT UCHUN TESTLAR

1. Tahlil soʻzi qaysi tildan olingan va qanday maʼnoni anglatadi?

A. «Tahlil» soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» degan maʼnoni anglatadi

B. «Tahlil» soʻzi fransuz tilidan olinib, «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» degan maʼnoni anglatadi

C. «Tahlil» soʻzi grek tilidan olinib, «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» degan maʼnoni anglatadi

D. «Tahlil» soʻzi ingliz tilidan olinib, «butunni boʻlakchalarga boʻlib oʻrganaman» degan maʼnoni anglatadi.

2. Tahlil qayerda oʻtkazilishiga qarab qanday turlarga boʻlinadi?

A. Ichki tahlil

B. Global tahlil

C. Lokal tahlil

D. Tashqi tahlil.

3. Oʻrganiladigan davriga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang:

A. Joriy, boshkaruv va moliyaviy

B. Tezkor, ichki va tashqi

C. Tezkor, istiqbolli, ichki va tashqi

D. Joriy, tezkor va istiqbolli.

4. Qaysi manbalar xoʻjalik moliya faoliyatini tahlil etishda asosiy manbalar hisoblanadi?

A. Buxgalteriya, statistika

B. Iqtisodiy va ekologik

C. Operativ texnik hisob va hisobot, hisobdan tashqari manbalar

D. Hisob va huquqiy.

5. Tijorat banklarida tahlil oʻtkazishdagi ketma-ketlik qanday koʻrinishga ega?

A. Maʼlumot toʻplash va qayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish

B. Taxlil oʻtkazish rejasini tuzish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash

C. Tahlil oʻtkazish rejasini tuzish, maʼlumot toʻplash, tahlil, oʻzgarishlarni aniqlash, takliflar bildirish

D. Maʼlumot toʻplash, tahlil va yechimini aniqlash.

6. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot qaysi davrga tuziladi?

- A. Yil bo'yicha
- B. Choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik
- C. Yarim yillik va yillik
- D. To'liq hisobot davri bo'yicha.

7. Tahlil fanining uslubi deganda nima tushuniladi?

- A. Materialistik dialektik yondashish tushuniladi
- B. Kompleks yondashish tushuniladi
- C. Xo'jalik faoliyatini o'rganishdagi umumiy yondashish tushuniladi
- D. Ijodiy yondashish tushuniladi.

8. Tizimli tahlil nechta bosqichdan iborat?

- A. Oltita
- B. To'rtta
- C. Beshta
- D. Yettita.

9. Qaysi usullar iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari bo'lib hisoblanadi?

- A. Taqqoslash va iqtisodiy matematik usullar
- B. Taqqoslash, guruhlashtirish
- C. Taqqoslash, guruhlashtirish va nazariy o'yin
- D. Zanjirli bog'lanish va balans.

10. Taqqoslash usulini qo'llashdagi e'tiborga olinadigan talablarni belgilang:

- A. Baho va aniqlanish usuli bir xil
- B. Ixtisoslashuvi bir xil
- C. Hajmi bir xil
- D. To'g'ri javob yo'q.

11. Quyidagilardan qaysi biri tijorat banklari aktivlari tarkibiga kirmaydi?

- A. Naqd pullar
- B. Joriy xarajatlar
- C. Hisob-kitob scheti
- D. Berilgan kreditlar.

12. Daromad keltiradigan aktivlar tarkibini belgilang.

- A. Berilgan kreditlar
- B. Turli investitsiyalar
- C. Asosiy vositalar
- D. Pul mablag‘lari, kapital xarajatlar.

13. Tez sotiluvchi aktivlar deganda nimani tushunasiz?

- A. Debitor qarzlari
- B. Tayyor mahsulot
- C. Pul mablag‘lari
- D. Valyuta mablag‘lari.

14. Qiyin sotiluvchi aktivlar deb nimalar aytiladi?

- A. Aylanma aktivlar
- B. Uzoq muddatli aktivlar
- C. Pul mablag‘lari
- D. Asosiy vositalar.

15. Yuqori likvidli aktivlar tarkibini aniqlang?

- A. Qimmatli metallar
- B. Asosiy vositalar
- C. Akkreditiv
- D. Berilgan kreditlar.

16. Tashkil qilish manbasiga qarab jalb qilingan resurslar qanday guruhlanadi?

- A. Depozitli
- B. O‘z mablag‘lari
- C. Jalb qilingan mablag‘lar
- D. Depozitsiz.

17. Amaliyotda depozitlarning necha shakli mavjud?

- A. 5 ta
- B. 3 ta
- C. Bankning ichki siyosatiga bog‘liq
- D. 4 ta.

18. O‘z mablag‘lari deganda nimani tushunasiz?

- A. Tijorat banklarining o‘ziga tegishli mablag‘lari
- B. Qarzga olingan (uzoq muddatga) mablag‘lar

- C. Mahsulot sotishdan olingan daromadlar
- D. Majburiyatlar qoplanishidagi ortiqcha mablag'lar.

19. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun o'rnatilgan bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi... .

- A. Bank regulyativ kapitalining 15 foizi
- B. Bank 1-darajali kapitalining 25 foizi
- C. Bank 1-darajali kapitalining 10 foizi
- D. Bank regulyativ kapitalining 5 foizi.

20. Bankka daxldor shaxslarga berilgan ishonchli kreditning maksimal darajasi qancha bo'lishi lozim?

- A. Bank 1-darajali kapitalining 25 foizi
- B. Bank regulyativ kapitalining 10 foizi
- C. Bank 1-darajali kapitalining 25 foizi
- D. Bank 1-darajali kapitalining 5 foizi.

21. Ustav kapitali balansning qaysi bo'limida ko'rsatiladi?

- A. Passiv tomon – 1-bo'limda
- B. Passiv tomon – 2-bo'limda
- C. Aktiv tomon – 2-bo'limda
- D. To'g'ri javob keltirilmagan.

22. Xususiy kapital qatoriga kiruvchi mablag'lar?

- A. Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda
- B. Zaxira kapitali, qo'shilgan kapital
- C. Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar
- D. ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr bo'yicha to'lovlar zaxiralari.

23. Xususiy kapitalni tahlil qilishda qaysi hisobot shakllari ma'lumotlariga tayaniladi?

- A. 1-shakl – «Balans»
- B. 2-shakl «Moliyaviy natijalar» to'g'risidagi hisobot
- C. 4-shakl – «Pul oqimi» to'g'risidagi hisobot
- D. 5-shakl – «Xususiy kapital» to'g'risidagi hisobot.

24. Xususiy kapital tug'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?

- A. Balans passivi 1-bo'lim bo'yicha tarkiblashni berish
- B. Balansning 1-bo'limi passivini tartiblashtirish
- C. Ma'lumotlardan foydalanuvchilar, qiziquvchilarga xususiy kapital O'zgarishi to'g'risidagi axborotlar berish
- D. O'z mablaglari holati to'g'risida axborotlar berish.

25. Xususiy kapital nimalardan iborat?

- A. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapitalidan
- B. Qo'shilgan va rezerv kapital, taqsimlanmagan foydadan
- C. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zararlardan
- D. Hissadorlik kapitalining o'sishidan.

26. Qo'shimcha kapital tarkibini aniqlang?

- A. Qayta baholashdan keladigan daromad
- B. Emission daromad
- C. Subordinatsiyalangan majburiyatlar
- D. Devalvatsiya zaxirasi.

27. Bank kapitalining nechta funksiyasi mavjud?

- A. 5 ta
- B. 2 ta
- C. 4 ta
- D. 3 ta.

28. «Bazel» qo'mitasining taklifiga ko'ra bank kapitali qanday guruhlanadi?

- A. Asosiy va davriy
- B. Qo'shilgan va rezerv kapital
- C. Asosiy va qo'shilgan
- D. Ustav, qo'shilgan va rezerv kapital.

29. Bank kapitali tarkibi to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

- A. To'lanishi lozim bo'lgan devidentlar
- B. Tekinga olingan mulk
- C. Depozit majburiyatlari
- D. Jami kreditlar miqdori.

30. Subordinatsiyalangan majburiyatlar 2-darajali kapitalning... % idan oshmasligi kerak?

- A. 50
- B. 35
- C. 70
- D. 45,5.

31. Foizli daromadlar tarkibini aniqlang?

- A. Forvard kontraktidan daromad
- B. Bank xizmatlari uchun to'lovlar va yig'imlar
- C. Korxonalarni tashkil etishda ta'sischilikdan daromad
- D. Qimmatli qog'ozlar bozor bahosining oshishidan olingan daromadlar.

32. Foizsiz daromadlar tarkibini aniqlang.

- A. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar
- B. Forvard shartnomasidan daromad
- C. Brokerlik operatsiyalaridan daromad
- D. Boshqa banklarga joylashtirilgan depozitlardan olingan foizlar.

33. Vaqt va iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra tijorat banklar daromadini belgilang.

- A. Doimiy
- B. O'zgarmas
- C. O'zgaruvchan
- D. Vaqtinchalik.

34. Quyidagilardan qaysi biri operatsiyalarga oid (foizli) xarajatlar-ga mansub?

- A. Trast va faktoring operatsiyalarga xarajatlar
- B. Qaytarilmaslik xatari bo'lgan kreditlar
- C. Xodimlarga hisoblangan ish haqi
- D. Ijara, soliqlar va boshqa xarajatlar.

35. Foiz to'lovlariga bog'liq bo'lmagan xarajatlar tarkibini aniqlang.

- A. Ijtimoiy sug'urta va boshqa jamg'armalarga ajratmalar
- B. Trast va faktoring operatsiyalarga xarajatlar
- C. Talab qilib olinadigan depozitlar
- D. Muddatli depozitlar.

36. Respublikamiz tijorat banklarining operatsion xarajatlari o'z ichiga qanday xarajat turini oladi?

- A. Ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, ijara to'lovlari va xo'jalik, xarajatlari, xizmat safari va transport xarajatlari, ma'muriy xarajatlar
- B. Joriy depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar, muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar Markaziy bankka to'lov hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
- C. Xayr-ehsonlar, amortizatsiya xarajatlari, soliqlar, sug'urta va boshqa xarajatlar
- D. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish – sotish hisobvaraqlari bo'yicha ko'rilgan zararlar, investitsiyalardan ko'rilgan zararlar.

37. Bank faoliyati operatsiyalariga bog'liq bo'lganligi sababli bu xarajatlarni ... deb ham yuritiladi.

- A. Foizli
- B. Foizsiz
- C. O'zgarmas
- D. O'zgaruvchan.

38. Bir qarz oluvchiga beriladigan kreditning eng yuqori miqdori.

- A. Regulyativ kapitalining 25% gacha
- B. Regulyativ kapitalining 50% gacha
- C. Regulyativ kapitalining 75% gacha
- D. A va S javoblari to'g'ri.

39. Bank qo'shimcha kapitaliga qo'yilgan cheklov

- A. Regulyativ kapitalining 25% gacha
- B. Regulyativ kapitalining 50% gacha
- C. Regulyativ kapitalining 75% gacha
- D. B va S javoblari to'g'ri.

40. Xalqaro andozalar bo'yicha bank kapitali yetarligi...

- A. 6%
- B. 8%
- C. 10%
- D. A va D javoblari to'g'ri.

50. Taqsimlanmagan foydaga to'g'ri ta'rif berilgan javobni belgilang.

- A. Sof foydaning dividendlar to'langandan keyin qolgan qismi
- B. Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda solig'i summasini ayirib tashlangan qismi

- C. Sof foizli daromad summasiga foizsiz daromad summasini qo‘shib, olingan natijadan foizsiz xarajatlar summasi ayirib tashlangan qismi
- D. Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan yalpi foyda summasidan kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari summasini ayirib tashlangan qismi.

51. Tijorat banklarini sof foydasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni aniqlang.

- A. Foydaning devidendlar to‘langandan keyin qolgan qismi
- B. Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda summasidan foyda solig‘i summasini ayirib tashlangan qismi
- C. Yalpi foyda summasidan kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari summasini ayirib tashlangan qismi
- D. Sof foizli daromad summasiga foizsiz daromad summasini qo‘shib, olingan natijadan foizsiz xarajatlar summasi ayirib tashlangan qismi.

52. Quyidagilardan qaysi biri bank foydasidan shakllantiriladi?

- A. Sug‘urta va boshqa ijtimoiy to‘lovlar
- B. Devidentlar
- C. Zaxiralarga ajratma
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

53 Tijorat banklarining aktivlariga nisbatan rentabellik qanday aniqlanadi?

- A. $(\text{Sof foyda} \times 100) / \text{korxonada aktivlari jami}$
- B. $(\text{Sof foyda} \times 100) / \text{balansning 1-bo‘limi jami}$
- C. $\text{korxonada aktivlari jami} / \text{sof foyda}$
- D. $(\text{Sof foyda} \times 100) / \text{asosiy fondlar} + \text{aylanma fondlar}$.

54. Bank faoliyati samardorligini aniqlashtiruvchi moliyaviy koef-fitsiyentlar (Ks) (Ks1) qanday aniqlanadi?

- A. Kapitali
- B. Xarajat
- C. Daromadlari
- D. Foizli daromadlar.

55. Majburiyatlar samardorligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin...

- A. $Sm = \text{chetdan jalb etilgan mablag‘lar} * 100 / \text{foizli sof foyda}$

- B. $S_m = \text{chetdan jalb etilgan mablag'lar} / \text{foizli sof foyda} * 100$
- C. $S_m = \text{foizli sof foyda} / \text{chetdan jalb etilgan mablag'lar} * 100$
- D. $S_m = \text{foizli sof foyda} * 100 / \text{chetdan jalb etilgan mablag'lar}$.

56. Tijorat banklarida xususiy kapital rentabelligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin...

- A. $(\text{Sof foyda summasini} / \text{xususiy kapital}) * 100$
- B. $(\text{Xususiy kapital} / \text{sof foyda}) * 100$
- C. $(\text{Bank kapitali} / \text{Daromad keltiruvchi aktivlar}) * 100$
- D. To'g'ri javob keltirilmagan.

57. Tijorat banklarining mavjud barcha mablag'larni to'g'ri joylashtirib ulardan foydalanish darajasi bilan o'lchanadi.

- A. Kapital rentabelligi
- B. Aktivlar rentabelligi
- C. Asosiy vositalar rentabelligi
- D. Kreditlardan samarali foydalanish ko'rsatkichi.

58. Leveraj koeffitsiyenti nima?

- A. Bank kapitalining riskli aktivlarga nisbati
- B. Aktivlarning kapital bilan ta'minlanganligi bank kapitalining aktivlarga nisbati
- C. Aktivlarning majburiyatlarga nisbati
- D. A va B javoblari to'g'ri.

ILOVALAR

1-ilova

JAMLANMA BALANS HISOBOTI

___ va ___ yil 31-dekabr holatiga ko'ra _____ bank

to'liq nomi

Bank ro'yxatga olingan raqam _____

(ming so'mda)

T/r	Moddalar	Izoh	Joriy yil	O'tgan yil
	Aktivlar			
010	Naqd pullar			
020	Bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan (O'zR MB) olishi lozim bo'lgan summolari			
030	Bankning boshqa banklardan olishi lozim bo'lgan summolari			
040	Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari – Savdoga mo'ljallangan			
041	– Savdoga mo'ljallanmagan			
050	Hosilaviy moliyaviy vositalar			
060	Sotishga mo'ljallangan mavjud investitsiyalar			
061	So'ndirilguncha saqlab turiladigan investitsiyalar			
070	Teskari REPO			
080	Mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklar:			
081	Minus: Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi			
082	Sof kreditlar va bo'naklar			
090	Moliyaviy ijara			
100	Qaram xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar			
101	Qo'shma korxonalariga qilingan investitsiyalar			
110	Gudvill			
120	Asosiy vositalar (sof balans qiymati bo'yicha)			
130	Nomoddiy aktivlar (sof balans qiymati bo'yicha)			

140	Boshqa xususiy mulk			
150	Soliq talabnomalari			
160	Boshqa aktivlar			
170	JAMI: AKTIVLAR			
	Majburiyatlar			
	Depozitlar			
181	Talab qilib olinguncha saqlanadigan			
182	Jamg'arma			
183	Muddatli			
184	Depozit sertifikatlari			
185	Hukumatga tegishli hisobvaraqlar			
190	Jami: depozitlar			
200	Markaziy bankka to'lanishi lozim bo'lgan summalar			
210	Hukumatga to'lanishi lozim bo'lgan summalar			
220	Boshqa banklarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar			
230	REPO va boshqa qarz mablag'lari			
240	Hosilaviy moliyaviy vositalar			
250	Soliq majburiyatlari			
260	Boshqa majburiyatlar			
270	Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar			
280	Jami: majburiyatlar			
	Xususiy kapital			
300	Oddiy aksiyalar			
310	Imtiyozli aksiyalar			
320	(Sotib olingan xususiy aksiyalar)			
330	Jami: Aksiyadorlik kapitali			
340	Qayta baholash zaxiralari			
350	Taqsimlanmagan foyda (jamlangan defitsit)			
360	Jami: Xususiy kapital			
370	JAMI: Majburiyatlar va xususiy kapital			

Bank boshqaruvi raisi

F.I.O.

imzo

Bosh buxgalter

F.I.O

MO'

imzo

**Foyda va zararlar to'g'risida hisobot
yil boshidan _____ gacha**

Kod	Ta'rifi	Nomi	
10	Ta'rifi	Foizli daromadlar	
20	40200	O'RMBdagi hisobraqamlar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
30	40400	Boshqa banklardagi hisobraqamlar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
40	40600	Qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish hisobraqamlari bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
50	40800	Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
60	41000	Akkreditiv va/yoki trast hujjatlari asosida mijoz majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
70	41200	Ushbu bankning to'lanmagan akseptlariga doir mijoz majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
80	41400-44600	Olinadigan ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
90	44700	Sud jarayoni davomida ssudalar va bo'naklar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
100	44800	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	x,xxx,xxx
110	44900	Boshqa foizli daromadlar	x,xxx,xxx
120	20-110	Jami foizli daromadlar	x,xxx,xxx
140	Ta'rifi	Foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
150	50100-54100	Depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
160	51600	O'RMBdagi to'lanadigan hisobraqamlar bo'yicha foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
170	52100	Boshqa banklardagi to'lanadigan hisobraqamlar bo'yicha foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
180	52600	Bank tomonidan yoki ushbu bank topshirig'iga ko'ra to'lanmagan akseptlarga doir qilingan foizli xarajatlar	x,xxx,xxx

190	53100-54100	To'lanadigan ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
200	54900	Boshqa foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
210	150-200	Jami foizli xarajatlar	x,xxx,xxx
230	120-210	Sof foizli daromad	x,xxx,xxx
250	230-240	Ehtimoliy zararlar zaxirasi chiqarib tashlanganidan so'ng sof foizli daromad	x,xxx,xxx
270	Ta'rifi	Foizsiz daromadlar	x,xxx,xxx
280	45200	Vositachilik daromadi	x,xxx,xxx
290	45400	Chet el valyutasidagi foyda	x,xxx,xxx
300	45600	Xarid va sotish hisobraqamlari bo'yicha foyda	x,xxx,xxx
310	45800	Investitsiyalar bo'yicha foyda va dividendlar	x,xxx,xxx
320	45900	Boshqa foizsiz daromadlar	x,xxx,xxx
330	280-320	Jami foizsiz daromadlar	x,xxx,xxx
350	250-330	Jami: Daromadlar	x,xxx,xxx
370	Tariflash	Foizsiz xarajatlar	x,xxx,xxx
380	55100	Vositachilik haqini to'lash xarajatlari	x,xxx,xxx
390	55300	Chet el valyutasidagi zararlar	x,xxx,xxx
400	55600	Xarid qilish va sotish hisobraqamlari bo'yicha zararlar	x,xxx,xxx
410	55800	Investitsiyalar bo'yicha zararlar	x,xxx,xxx
420	55900	Boshqa foizsiz xarajatlar	x,xxx,xxx
430	380-430	Jami foizsiz xarajatlar	x,xxx,xxx
450	350-430	Operatsiya xarajatlari qilingunga qadar sof daromad	x,xxx,xxx
480	56100	Xodimlarga beriladigan ish haqi va boshqa to'lovlar	x,xxx,xxx
490	56200	Ijara va ofisni ta'minlash	x,xxx,xxx
500	56300	Xizmat safari va transport xarajatlari	x,xxx,xxx
510	56400	Ma'muriy xarajatlar	x,xxx,xxx
520	56500	Reprezentatsiya va xayriya ishlari	x,xxx,xxx
530	56600	Eskirish xarajatlari	x,xxx,xxx

540	56700	Sug'urta, soliqlar va boshqalar	x,xxx,xxx
550	56800	Ehtimoliy zararlar zaxirasi	x,xxx,xxx
555	jumladan 56802	Ehtimoliy zararlarni baholash – ssudalar va bo'naklar	x,xxx,xxx
80	450-560	Daromad solig'ini hisobga olmagan holda sof daromad *	x,xxx,xxx
600	56900	Minus: Daromad solig'ini baholash**	<u>x,xxx,xxx</u>
620	580-600	Hisobot davridagi sof daromad (zararlar)	<u>x,xxx,xxx</u>

3-ilova

Bank aktivlari va resurs bazasi tahlilida qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

Koeffitsiyentlar	Ko'rsatkichlar	Hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon	Izoh
K a1	Daromad keltiruvchi aktivlar/jami aktivlar	Dka/A	Min 0,70 Max 0,85	Koeffitsiyent jami aktivlarning qancha foizi daromad keltiruvchi aktiv sifatida ishlayotganini ko'rsatadi
K a2	Daromad keltiruvchi aktivlarga ehtimoliy yo'qotish bo'yicha zaxira/daromad keltiruvchi aktivlar	Dkaz/Dka	Min 0,04	Daromad keltiruvchi aktivlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarning zaxira orqali qoplanish darajasini ko'rsatadi.
K rb1	Bank jalb etgan majburiyatlari/ishlayotgan aktivlarga nisbatan	Jkm/Dka	Max 1,2	Bank tashqaridan jalb etilayotgan majburiyatlarini samarali joylashtirish darajasini ko'rsatadi.
K rb2	Mijoz hisobvarag'ilaridagi mablag'lar/majburiyatlar	Mxvm/M	Min 0,10	Bankning arzon, lekin no-barqaror resurs manbasi bo'lgan mijoz hisobvarag'idagi mablag'larning jami majburiyatlardagi salmog'ini ko'rsatib beradi.

**Bank ishonchliligi va kapitalining yetarliligini aniqlash bo'yicha
koeffitsiyentlar (K i)**

Koef- fitsiyentlar	Ko'rsatkichlarni hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon
K i1	Bank kapitali / daromad keltiruvchi aktivlar	Min-0,25
K i2	Bank kapitali / Jami majburiyatlar	Min-0,10
K i3	Ustav jamg'arma / bank kapitali	Min-0,15; Max-05

**Bank aktivlari va resurs bazasi tahlilida qo'llaniladigan
koeffitsiyentlar (Ka),(Krb)**

Koeffitsiyentlar	Ko'rsatkichlarni hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon
K a1	Daromad keltiruvchi aktivlar / jami aktivlar	Min 0,70, Max 0,85
K a2	Daromad kel.aktivlarga ehtimoliy yo'qotish bo'yicha zaxira / daromad keltiruvchi aktivlar	Min 0,04
K rb1	Bank jalb etgan majburiyatlari / ishlayotgan aktivlarga nisbatan	Max 1,2
K rb2	Mijoz h/v.laridagi mablag'lar / majburiyatlar	Min 0,10
Koeffitsiyentlar	Ko'rsatkichlarni hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon
K s1	Sof foyda / daromad (yoki xarajat)	Min 0,20
K s2	Bank xarajatlari / bank daromadlari	Min 0,80
K s3	Foizli xarajatlar / foizli daromadlar	Min 0,60
K s4	Sof foyda / aktivlar <u>ROA</u>	Min 0,005 Max 0,010
K s5	Sof foyda / kapital <u>ROE</u>	Min 0,10

Banklarini moliyaviy holatini nazorat qilish bo'yicha iqtisodiy normativlarni qo'llanilishi

Iqtisodiy me'yorlarning nomlanishi	Hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal mzon
Kapital yetarliligi koef.	Bankning umumiy kapitali /jami riskka tortilgan aktivlar	Min.0,10
1-darajali kapitalning yetarliligi	1 darajali kapital/ jami riskka tortilgan aktivlar	Min0,05
Joriy likvidlilik koef.	Likvid aktivlar va 30 kun mobaynida qaytishi kerak bo'lgan aktivlar/ talab qilib olguncha majburiyat va 30 kun mobaynida so'ndirilishi lozim bo'lgan majburiyatlar	Min.0,30
Bir yoki guruh qarzdorlariga o'rnatilgan ta'minlangan qarzning maksimal darajasi	Bir qarzdorga berilgan kreditning maksimal darajasi/1 darajali kapital	Max.0,25
Barcha yirik kreditlarning maksimal darajasi	Barcha yirik kreditlar/1 darajali kapital	Max.8,0
Bir emitentning qimmatli qog'oziga investitsiya qilishning maksimal darajasi	Bir emitentning qimmatli qog'oziga investitsiya/1 darajali kapital	Max.0,15
Barcha emitentlar ustav kapitali va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalar miqdori	Barcha emitentlar ustav kapitali va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalar miqdori/1 darajali kapital	Max.0,50

Bank tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan majburiy iqtisodiy me'yorlar

Majburiy iqtisodiy me'yorlar	Iqtisodiy me'yorlarning nomlanishi	O'rnatilgan me'yor	Haqiqatda	Bajari-lishi
Me'yor N1	Kapital yetarliligi koef	Min. 0,10		
Me'yor N2	1-darajali kapitalning yetarliligi	Min. 0,05		
Me'yor N3	Leveraj	Min. 0,06		
Me'yor N4	Joriy likvidlilik koef	Max. 0,30		
Me'yor N5	Bir yoki guruh qarzdorlariga o'rnatilgan ta'minlangan qarzning maksimal darajasi	Max. 0,25		

Me'yor N6	Bir yoki guruh qarzdorlariga o'rnatilgan ta'minlanmagan qarzning maksimal darajasi	Max. 0,05		
Me'yor N7	Barcha yirik kreditlarning maksimal darajasi	Max. 8,0		
Me'yor N8	Bir emitentning qimmatli qog'oziga investitsiya qilishning maksimal darajasi	Max. 0,15		
Me'yor N9	Oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishning maksimal darajasi	Max.0,25		
Me'yor N10	Barcha emitentlar ustav kapitali va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalar miqdori	Max. 0,50		
Me'yor N11	Bir insayderga yoki daxldor shaxslar guruhiga berilgan ta'minlangan kreditlar miqdori/lizing	Max.0.25		
Me'yor N12	Bir insayderga yoki daxldor shaxslar guruhiga berilgan ta'minlanmagan kreditlar miqdori/lizing	Max. 0,05		
Me'yor N13	Barcha insayderlarga taqdim etilgan kreditlarning umumiy miqdori	Max. 1,0		

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Bank faoliyati tahlili fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	4
1.1. Bank faoliyati tahlilining asoslari va ahamiyati.....	4
1.2. Bank faoliyati tahlili fanining maqsad va vazifalari.....	6
1.3. Bank faoliyati tahlilining turlari.....	10
2-bob. Bankning aktiv operatsiyalari tahlili	15
2.1. Bank aktivlari holati va dinamikasi tahlili.....	15
2.2. Bank aktivlarining daromadliligi tahlili.....	19
2.3. Bank aktivlari risklilik darajasi tahlili.....	24
2.4. Bank aktivlari likvidliligi tahlili.....	26
2.5. Bank aktivlaridan samarali foydalanishning tahlili.....	34
3-bob. Bank kapitalining (mablag'lari) tahlili	36
3.1. Tijorat banklari kapitalining (mablag'lari)tahlili.....	36
3.2. Bankning o'z mablag'lari (kapitali) tahlili.....	41
4-bob. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili	48
4.1. Tijorat banklari majburiyatlari tahlili.....	48
4.2. Tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi tahlili.....	54
4.3. Bank majburiyatlari tahlili.....	60
5-bob. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli	65
5. 1. Kreditning mohiyati, ahamiyati va turlari.....	65
5. 2. Mijozlarning kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash usullari.....	67
5. 3. Tijorat banklari kreditlarining umumiy tahlili.....	71
5. 4. Bank kreditlarining ta'minlanganligi tahlili.....	72
5. 5. Kredit hajmi va uning aylanishi tahlili.....	74
6-bob. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalari tahlili	77
6.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarining turlari.....	77

6.2. Tijorat banki qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining holati va tarkibining tahlili.....	78
7-bob. Tijorat bank daromadlari va xarajatlari tahlili	81
7.1. Bank daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili.....	81
7.2. Bank xarajatlari tahlili.....	85
8-bob. Tijorat banklari likvidliligi va to'lovga layoqatliligi tahlili	92
8.1 Tijorat banklari likvidliligining mohiyati va ahamiyati	92
8.2. Tijorat banklari likvidlik ko'rsatkichlari tavsifi	98
8.3. Tijorat banklari likvidliligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari	103
9-Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili	111
9.1. Bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlilining asosiy vazifalari	111
9.2. Tijorat banklari foydasining tahlili.....	112
9.3. Tijorat banklari rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili.....	114
Nazorat uchun testlar	117
Ilovalar	126

